Boshqaruv (ma'muriy) nuqtai nazaridan shahar aholi manzilgohlari respublikaga, viloyatga va tumanga bo'yisuvchi shaharlarga ajratiladi. **Respublikaga bo'yisuvchi shaharlarga** aholisi soni 500 mingdan ortiq bo'lgan yirik ma'muriy, iqtisodiy, madaniy markazlar kiradi. Odatda, bunday shaharlar qatoriga poytaxt shaharlar, millioner shaharlar, muhim iqtisodiy va harbiy strategik ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar kiradi, masalan, O'zbekistonda Toshkent shahri, Qozog'istondagi Almati, Astana shaharlari shular jumlasidan.

**Viloyatga bo'yisuvchi shaharlar** — aholi soni 30 mingdan kam bo'lmagan, muhim sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan, iqtisodiy va madaniy markazlardir. Ba'zan, aholisi 30 mingga yetmаса-da, aholi soni jadal o'sayotgan, alohida sanoat, madaniy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan shaharlar ham ushbu toifaga kiritiladi. Ularga Qorag'alpog'iston Respublikasi va barcha viloyat markazlari, ulardan tashqari, masalan, Katta-qo'rg'on, Chirchiq, Taxiotosh, Kogon kabi yirik shaharlar kiradi. O'zbekistonda hozir ularning soni 23 tani tashkil etadi.

**Tumanga bo'yisuvchi shaharlar** jumlasiga sanoat korxonalari, uy-joy fondi, rivojlangan ijtimoiy-madaniy muassasalari, savdo shahobchalari, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat obyektlariga ega bo'lgan, aholisi 7 mingdan kam bo'lmagan, aholisining 2/3 qismi qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan shaharlarda band bo'lgan shaharlar kiradi.

Ayrim hollarda yirik shaharlar boshqaruv ixtisoriga hududiy jihatdan ushbu shaharga tegishli bo'lmаса-da, rivojlanishi (boshqaruv) shahar bilan bog'liq bo'lgan bir yoki bir necha shahar, shaharcha yoki qishloq ham kiritiladi va u shahar kengashi deb ataladi. Samargand shahri o'z atrofidagi Xisrav, Kimyogarlar, Farhod kabi shaharchalar bilan Samargand shahar kengashiga, Nurobod, Krasnogorsk shaharchalari Angren shahar kengashiga qaraydi.

Shaharchalar ham shahar aholi manzilgohlari qatoriga kiradi. **Shaharcha** — sanoat korxonalari, kommunal xo'jalik, qurilish, temir yo'l stansiyalari hududida joylashgan, aholisi soni 2 mingdan kam bo'lmagan

va ular o'z zolarining 2/3 qismi noqishloq xo'jalik sohalarida band bo'lgan aholi manzilgohlardir. Ba'zi hollarda, alohida ahamiyatga ega bo'lgan, sanoat korxonasi, davolanish yoki dam olish muassasasi bo'lgan, qulay ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan, aholisi 2 mingga yetmagan aholi manzilgohi ham shaharcha deb yuritilishi mumkin.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlarda shahar o'z ma'muriy hududiy chegaralari doirasida **yuridik shahar** deb ataladi. Ushbu doiradagi aholi markaz shahar aholisi hisoblanadi. Ko'pincha, aholi shahar atrofiga kelib o'rnatiladi, ayniqsa, qulay yo'l bo'ylari tez o'zlashtiriladi. Ya'ni, aslida, shahar o'z chegarasi atrofiga ham davom etadi, bunday shahar **geografik shahar** deb ataladi, aholi soni esa statistik ma'lumotlarda "shahar atrofi bilan" deb ko'rsatiladi. Masalan, dunyodagi eng yirik shahar Tokio bo'lib, unda 13 mln., atrofi bilan 35 mln. aholi yashaydi. Respublikamizda shahar hududidan foydalanish, qurilish ishlarini olib borish, chegaralarini belgilash O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik kodeksida belgilangan tartib-qoidalar orqali amalga oshiriladi.

Tarixdan ma'lumki, geografik o'rni qulay bo'lgan shahar garchi u yovvoyi bo'lsa-da, bir necha bor qayta tiklangan yoki o'rni yangi shahar harpo bo'lgan (Toshkent, Afrosiyob). Ayrim shaharlar esa xarobaga aylanib, ulardan faqat tepaliklar qolgan. Masalan: Troya, Xarappa, O'tror va b. Ilmiy adabiyotlarda yana "o'lik shaharlar" degan iborani uchramoiz, ular mavjud, lekin turli sabablarga ko'ra aholi yashamaydi: Chernobil AЭС halokati tufayli Pripyat shahri, Angara daryosi irmog'i Kova rayonidagi (Чепрово краёвине) bir necha shaharcha kasallik tarqatishi qo'llabida, neftlar o'likasidagi Xalmer-YU (o'liklar vodiysi) koks ko'mirni qazib olish asosida vujudga kelib, kon istiqbolsiz bo'lgani bois tashlab ketilgan. AQSHda 250 ka yaqin "o'lik shaharlar" bo'lib, ularni ba'zan kinematografistlarina filmlar suratga olish uchun yo'qlab borishadi.

Urbanizatsiya jamiyat hayotida shaharlar rolining ortib borishi bilan bog'liq bo'lgan jarayon bo'lib, turli mamlakat va rayonlarda o'ziga xos tarzda sodir bo'lmoqda. Dastlab, urbanizatsiya Yevropada boshlanib, hozirda cho'qqisiga yetib orgaga qaymoqda. Shaharlar nihoyatda kattalashib, aholisi 10-12 mln.gacha yetdi. Aholi o'z ta'zich joylashgan binolar, alovqin-suron, turli asabuzarliklar, keskin ekologik — nozogeografik vaziyatdan qochib (dezurbanizatsiya), ochiq tabiat qo'yiniga intilmoqda. Natijada, suburbanizatsiya, ya'ni shaharlarning shahar atrofiga o'sishi kuzaltilmoqda. Lotin Amerikasida bu jarayon o'z cho'qqisida, Osiyo, shimoliy Afrika mamlakatlarida jadal bormoqda, aholining qishloqlardan shahar, ayniqsa poytaxt shaharlarga ko'chishi natijasida Mumbay, Kalokut, Inkarta, Karachi, Qohira, Teatron, Manila, Lagos, Dakka kabi yirik

shaharlar aholisi 12-15 mln. ni tashkil etmoqda. Ayrim davlatlarda Afg'oniston, Nepal, Bangladesh, Butan, Tropik Afrika davlatlarida u hall boshlangani yo'q.

O'rta Osiyo va O'zbekistondagi urbanizatsiya shargona xususiyatiga ega. Qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi yuqori bo'lgani bois, urbanizatsiya ko'rsatkichlari o'rtacha bo'lsa-da, aslida u "soxta urbanizatsiya" ni bildiradi.

**Global shaharlar.** Hozirgi vaqtga kelib, jahon iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti ma'lum ma'noda "global shaharlar" rivojlanishida o'z ifodasini topmoqda. So'nggi yillarda ilmiy adabiyatlarda tez-tez qo'llanilayotgan ushbu atamaning fanga kirib kelganiga esa ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Hozirda bu yangi atamaning mazmun-mohiyati unga mansub bo'lgan obyektlarning o'ziga xos xususiyatlari, mezonlari, o'zgarishlarini tadqiq etish asosida asta-sekin ochib berilmoqda.

Bu atama fanga ilk marta "dunyo viy shaharlar" nomi bilan 1915-yilda britaniyalik urbanist P. Geddes tomonidan kiritilgan va u biznes ishlari eng ko'p yuritiladigan, shuningdek, xalqaro biznes uchrashuvlari o'tkaziladigan shaharlarni shu toifaga kirilgan. Ammo global shaharlarga 1970-yillardan xalqaro munosabatlar jadal rivojlangach, alohida e'tibor berila boshlandi. 1991-yilda chop etilgan Saskiya Sassenning "The global city" asarida ta'rif berilishicha, **global shaharlar** (ingliz tilida "dunyo shahri", "alfa shahar") – bu jahon iqtisodiy tizimining muhim elementi hisoblanuvchi, xalqaro miqyosda o'ziga xos markaziy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy vazifalarni bajaruvchi sifatida tan olingan shaharlardir. Masalan, London, Jeneva xalqaro moliyaviy, Nyu-York – iqtisodiy, Kuala-Lumpur – turizm markazi hisoblanadi.

Global shaharlar vujudga kelishining asosiy omili – xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon hamjamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy hayotining yanada baynalmillialashuvi, transport va aloqaning rivojlanishi bilan davlatlararo o'zaro munosabatlarda davlat chegaralarining to'siq sifatidagi rolining kamayib borishi yotadi. Global shaharlar boshqa shaharlardan farqli ravishda aholi sonidan qat'i nazar, xalqaro miqyosda iqtisodiy, moliyaviy, biznes va xizmat ko'rsatish faoliyatlarini qulay, tez, sifatli tarzda amalga oshirishi, shu bilan birga, aynan shu sohalarida jahon miqyosida markaz sifatida tan olingan bo'lishi lozim. Shuningdek, ular xalqaro siyosiy, huquqiy tashkilotlarning shtab-kvartiralarini, ilmiy ishlab chiqarish salohiyati, axborot-texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasi, dunyoning eng mashhur o'quv yurtlari, kutubxonalari, ilmiy-tekshirish institutlari joylashganligi bilan ahamiyatlidir. Masalan, Tokio dunyoda o'z ilmiy, tabiiy-texnika fanlarining eksperimental obyektlari, Nyu-York esa

o'ziga xos tor mutaxassislik tekshirish institutlari, ayniqsa, vulqon-shimoshlik, alternativ energiya manbalari turini ko'paytirish, ekologik toza yashilg'ini imkon boricha arzon ishlab chiqarish bo'yicha noyob markazlar ko'p joylashganligi bilan ajralib turadi. Global shaharlarda sivilizatsiya-ni eng yaxshi yutuqlari, jahon ahliga tanilq teatr, muzey va madaniyat uylari joylashganligi sababli bu shaharlarga turistlar, asosan, inson qo'li bilan yaratilgan noyob obyektlarni ko'rish maqsadida boradi. Bu jihatdan Tokio o'zining Imperator saroyi, Tokio teleminorasi, Tokio Milliy muzeyi, Leno bog'i bilan mashhur bo'lsa, London 7,5 mln. eksponatli Britaniya muzeyi, Madam Tyusso eksponatlar muzeyi, Globus teatri va boshqalar bilan mashhur. Nyu-York esa o'zining Butun jahon Savdo markazi, AQSH ilmiy telekompaniyalari – SBS, BBS, NBS shtab-kvartiralarini, Ozodlik haykali bilan o'ziga ko'plab sayyohlarni jalb eta oladi. Hozirgi vaqtda global shaharlar ro'yxatiga 60 ga yaqin shaharlar kirgan, ularning qatoridan MDHdagi birotta ham shahar o'rin olmagan.

Shaharlar o'zaro bog'lanib, tizim hosil qiladi. Uning eng quyi bosqichi shahar aglomeratsiyalardir. "Shahar aglomeratsiyalari xilma-xil intensiv aloqalar bilan yagona, dinamik tizimga birlashgan aholi manzilgohlarining ixcham hududiy guruhidir"<sup>8</sup>.

Yevropa, Shimoliy Amerika, Sharqiy Osiyodagi ana shunday 40-50 ta yirik aglomeratsiyalar yonma-yon joylashib, bir-biriga qo'shilib, yirik urbanizatsiyalashgan hududlar, ya'ni megalopolislarni hosil qilgan. Ushbu atamani birinchi marta amerikalik sotsiolog olim L. Mamford qo'llagan. 1. Goltman esa Atlantika qirg'oqlari bo'yab deyarli 1000 km ga polosa-almon cho'zilib ketgan 50 ga yaqin aglomeratsiyani va 50 mln. dan ziyod aholini o'z ichiga olgan Bosvash (Boston-Vashington) aglomeratsiyalar tizimini birinchi bo'lib tadqiq etdi va uni megalopolis nomi bilan atadi. Ana shunday urbanizatsiyalashgan hududlardan sayyoramizning sharqiy qismida, markazi Tokioda joylashgan Tinch okeanning muhim savdo yo'llari bo'yab cho'zilgan Tokaydo (Tokio-Osaka) megalopolisi Sharqning o'ziga xos o'sish qubbi hisoblanib, unda aholi va ishlab chiqarishning 2/3 qismini mujassamlashgan.

Megalopolis so'zi ikki yoki undan ortiq shahar aglomeratsiyalarining qo'shilib ketishini anglatasa, megalopolis atamasi esa hozirgi vaqtda BMT tomoniga ko'ra aholi soni 8 mln. dan ortgan shaharlar uchun qo'llanilmoqda. Odatda, bunday shaharlar o'z ma'muriy-hududiy chegarasi doirasidan chiqib ketadi, shahar atroflari ham shaharga bevosita qo'shilib ketadi. Bunday yirik shaharlarga ega bo'lmagan ko'pgina mamlakatlar o'zlarining

bosh, yetakchi, ko'p hollarda poytaxt shaharlarini megapolis deb atash moqda. Toshkent shahri ham megapolis hisoblanadi.

Shaharlarning aksariyati bizning sharoitimizda, ya'ni dehqonchilik rivojlangan mamlakatlarda, qishloqlar asosida tashkil etiladi; ular muayyan talab darajasiga yetganlaridan so'ng qonuniy ravishda bu rasmiy maqomni olishadi. Shaharlarning bunday genetik xususiyatlari urbanizatsiya jarayonining, ayniqsa, qishloq urbanizatsiyasining "sharqona" rivojlanishi-dan darak beradi<sup>9</sup>.

O'zbekistonda garchi shaharlar qadimda, 2,5-3 ming yil avval vujud-ga kelgan bo'lsa-da, urbanizatsiya jarayoni ancha kech boshlandi. Uni o'ziga xos bo'lgan bir necha tarixiy bosqichlarga ajratish mumkin.

**1-bosqich.** Qadimiy davr 1917-yilgacha bo'lib, bunda shahar maqo-mini berish bo'yicha rasmiy mezonlar bo'lmagan. Aholi sonidan qat'iy nazar yirik aholi manzilgohlari, xonlik, amirlik hamda bekliklarning ma'muriy markazlari shahar deb yuritilgan. Bu davrda shaharlar, asosan, transport tuguni (karvonsaroylar), savdo (bozorlar), harbiy-strategik (istehkomlar), diniy va ma'muriy markazlar sifatida vujudga kelgan. 1897-yilgi aholi ro'yhatiga ko'ra ushbu shaharlarda jami aholining 18,8 foizi yashagan.

**2-bosqich.** 1917-yildan keyin shahar maqomi berish qoidalari o'zga-rishi bilan shaharlar doirasi kengaydi. Bunda shahar tashkil etuvchi tarixiy, iqtisodiy, siyosiy, demografik, geografik va boshqa omillar hisobga olin-a boshladi. Dastlabki shaharlarga maqom berish bo'yicha 1929-yilda qabul qilingan "O'zbekiston SSRning shahar va shahar punktlari ro'yhatini tuzish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra 15 ta shahar ro'yhatga kiritildi<sup>10</sup>. O'zbekistonda urbanizatsiya, asosan, Rossiya tarkibiga kirgach, rus xalqining ko'chib kelishi va shaharlarga joylashuvi hisobiga olib bordi, mahalliy millat vakillarining aksariyati esa qishloqlarda yashar edi. 1917-yilda shahar aholisi 20,9%, 1940-yilda 24,5 foizni tashkil etdi<sup>11</sup>.

**3-bosqich.** II jahon urushi davriga to'g'ri keladi. Mazkur davrda front ortidan ko'plab zavod, fabrika, muassasalar, shuningdek, ko'plab aholining yurtimiz hududiga evakuatsiya qilinishi, yoki frontga zarur oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslaha yetkazib berish maqsadida ayrim shaharlarning tez o'sishi kuzatildi (Toshkent, Chirchiq, Angren va b.), ularda shahar hosil qiliuvchi tarmoqlarning asosi shakllandi. 1945-yilda shahar aholisi salmog'i 33,8 foiz bo'lib, 5 yil ichida 10 foizdan ortiqroq ko'paydi.

**4-bosqich** urushdan keyin xalq xo'jaligining tiklanish davri bo'lib,

o'zbekistonda yo'llar qurilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi (Mirzacho'l, G'arshi cho'l), konlarning ochilishi bilan shaharlashish jarayoni avvalgi davrlarga nisbatan jadal bordi. 1959-yilda mamlakatda jami 101 ta shahar aholi manzilgohi qayd etildi. Ularda 2,7 mln. aholi yashab, urbanizatsiya darajasi 33,6 foizga yetdi. Shaharlarning aksariyati kichik (91 ta), 5 tasi o'rta, 5 tasi katta va yirik shaharlardan iborat bo'lgan (Toshkent, Samar-qand, Andijon, Namangan va Qo'qon). 1970-80-yillarda xalq xo'jaligini kompleks rivojlantirish asosida urbanizatsiya tez o'sdi, yillik shahar aholi-sining o'sishi 4,4% ni tashkil etdi. Yiliga o'rtacha 5-6 tadan yangi shaharlar paydo bo'ldi. Bu esa mazkur davrda iqtisodiy rivojlanish, aholi tabiiy ko'payishi va shahar maqomi berilishi talabining 10 mingga 7 mingga tushirilishi bilan bog'liq bo'ldi. Mamlakatda sanoatning ixtisos-lashuvi, sanoat tugunlari, rayonlari bir yoki bir necha tarmoqlarga birlashtirilgan ishlab chiqarish majmualarining vujudga kelishi, fan-teknika tarqalishi, diniy va ma'muriy markazlar rivojlanishiga olib keldi. Tub joy aholining ham yirik shaharlar, ayniqsa poytaxtga migratsiyasi kuchaydi. Ana shu davrda urbanizatsiya ko'rsatkichi o'zining ilk marotaba cho'qqisiga chiqdi va 1979-yilda 41,4 foizni tashkil etdi.

**5-bosqich.** 1980-yillarning oxirlariga kelib, rusiyazon xalqlarning o'z yurtlariga ko'chib ketish jarayoni kuzatildi. Ro'y bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar urbanizatsiyaga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Urbanizatsiyaning demografik ko'rsatkichi 1991-yilda 40,4 foizga teng bo'ldi. Umumiy aholi tabiiy harakati suslashdi, shahar joylarda aholining tabiiy o'sishi qishloqlarga qaraganda 1,5 barobar past bo'lgani urbanize-tsion darajasining pasayishiga ikkinchi asosiy sabab bo'ldi. Urbanizatsiya darajasi yiliga 0,5-0,6 foizdan kamayib borib, 2008-yilda 35,8 foizga kamib, G'arshi, urbanizatsiya son jihatdan pasaysa-da, uni sifat jihatdan rivojlantirishga – shaharlarni obodonlashtirish, qurilish va arxitekturasiga, ular tarixiy va madaniy merosini saqlash, tiklash ishlariga katta e'tibor qaratildi. Ularning hududiy va urbanistik tarkiblarida qator o'zgarishlar omilga oshirildi. Jumladan, mamlakat aksariyat aholisining qishloqlarda yashashini hisobga olgan holda, ularga shahar hayot tarzini, madaniyatini olib kiritish, infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 2009-yilda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq 965 ta qishloqqa shaharcha maqomi berildi.

**6-bosqich.** Qishloqlarning shaharchalarga aylantirilishi respublika urbanizatsiyasida o'ziga xos yangi bosqich bo'ldi. Shahar aholisi soni 2008-yilda 9,6 mln. bo'lgan bo'lsa, 2009-yilda 14,3 mln. kishini tashkil

<sup>9</sup> Gonen A. Ilkxapimiy reorganizatsiya. Mapryza kartini. – T.: 2000. – B. 22.

<sup>10</sup> Axborot 3. Yubekiston iqtisodiy-geografik xarakteristikasi. – T.: Ady. Amir M. Sano nomidagi Tashkent universiteti, 2004. – B. 93.

<sup>11</sup> Ayta-Muradov O., G'arshiyev B., Muradov P. Yubekiston aholiyoqonlanishini, iqtisodiy-demografik o'zgarishlari. – T.: 1998. C. 25.

erib, urbanizatsiya darajasi 51,7 foizga ko'tarildi. Bunda, eng yuqori ko'rsatkich Namangan viloyatida kuzatilib, 64,6 foiz, ikkinchi o'rinida Farg'ona viloyati – 58,7 foiz va uchinchi viloyat – Andijonda – 53,1 foiz shahar aholisi qayd etildi. Agar nazariy jihatdan tahlil qilinsa, aholi soni va ular oila a'zolarining aksariyati qishloq xo'jaligida band emasligini hisobga olsak, shaharcha maqomi berish talablariga javob beraadi. Biroq shahar infratuzilmasi, arxitekturas, shahar madaniyati, aholining yashash tarz, jihatidan, bu – "soxta urbanizatsiya"ning bir ko'rinishidir.

Agar o'tgan bosqichda urbanizatsiya darajasiga ko'ra Qorqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Toshkent viloyatlari yetakchilik qilgan bo'lsa, so'ngi davrda aholi soni ko'p va zich yashagan Farg'ona vodiysiga almashti. Buning asosiy sababi, Farg'ona vodiysida ko'plab aholi soni katta bo'lgan yirik qishloqlarga ega bo'lganligidir.

Demak, O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi pastligi sabablari:

- qishloq-shahar migratsiyasining sustligi;
- shahar aholisi tabiiy harakatining qishloq aholisiga nisbatan pastligi;
- shaharlarning aholini jalb etish salohiyatining zaifligi;
- muntazam ravishda yangi shaharlarning vujudga kelmasligi;
- hududlarning sanoat salohiyatining pastligi;
- aholining ko'proq qishloq joylarga moyilligi va b.

#### Nazorat savollari

1. Urbanizatsiyaning mintaqaviy xususiyati qanday?
2. Shaharlar boshqarishga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
3. Global shaharlar guruhiga qanday shaharlar kiradi?
4. O'zbekistonda urbanizatsiya muammolarini tushuntiring.
5. Shaharlarning hududiy tizimlari qanday hosil bo'ladi?

#### Global muammolar

XX asrning oxirlari insoniyat oldiga ko'plab muhim va murakkab muammolarni qo'ydi. Bu muammolar butun xalqqa, dunyoga tegishi bo'lgani, ommaviy tus olayotgani bois, global muammo deb nom oldi. Qaysi muammoni global deb hisoblash kerak? Bu savolga ko'plab mutaxassislar tomonidan 40 dan ortiq muammo ro'yxatga kiritildi, shundan 10 dan ortiq'i bilan biz kundalik hayotimiz davomida bevosita tanishmiz. Global muammolar – butun yer sharini qamrab olgan, insoniyat hayoti, uning

kelajagi uchun xavf solayotgan, yechimi uchun barcha davlatlar va xalqlar hamkorlikda harakat qilishlarini talab etayotgan muammolardir.

**Urushni oldini olish va tinchlikni saqlash muammosi.** XX asrda 2 ta jahon urushi va mahalliy urushlar natijasida 100 mln. dan ortiq aholi halok bo'ldi. Ayrim davlatlarning yadro quroliga, ballistik raketalariga zo'r berishi, "sovuq urush" xavfi keyingi yillarda biron pasaygan bo'lsa-da, urush o'rnini o'zgaracha xarakterga ega bo'lgan – terrorizm, ekstremizm, diniy-milliy urushlar egalladi. Uning geografyasi kengayib bormoqda, butun dunyo, Iroq, Yaman, Liviya, Yaman, Chad ko'li havzasi mamlakatlaridagi qarama-qarshiliklar, fuqarolar urushi, jangarlarning xunrezliklari oqibatida minglab odamlar halok bo'lmoqda.

Xalqaro kompaniyalar prognoziga ko'ra 2020-yilga borib, jahonda qurol-yuqor, savdosi ortib, 150 milliard AQSH dollariga yetishi mumkin. Ko'p oluvchilar Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Hindiston, Misr, Iroq va b. Uni ishlab chiqaruvchi yirik davlatlar AQSH, Fransiya, Buyuk Britaniya va b. Harbiy qurollarni qisqartirish va cheklash to'g'risidagi bitimga imzo chekligani bilan, u amalda bajarilmayapti. Chunki, dunyoda eng katta daromad qurol sotishdan keladi. Qurollarni saqlash, ishlatish, undagi texnik xato, tomonlarning siyosiy manfaatlarini butun sayyora aholi jabr ko'rishi mumkin. Shu bois, tinchlik inson uchun eng oliy ne'mat ekanligini tushunish va uni saqlash lozim.

**Ekologik muammolar.** Ekologik muammolar ikki xil sababga ko'ra: tabiiy jarayonlar va antropogen-inson hayoti va mehnat faoliyatida tabiatdan noto'g'ri foydalanish oqibatida kelib chiqadi. Vulqon otilishi, zilzila, qor ko'chishi, sel, suv toshqini, surilma va boshqa tabiiy ofatlar natijasida tabiat ifloslanadi, ko'plab insonlar hayoti xavf ostida qoladi. Biroq, bu tabiat qonuniyati, lekin inson o'zi anglab turib, tabiatdan ilmiy asoslanmagan holda belatib foydalanishi, tabiiy resurslarni ortiqcha qazib olish, atrof muhitni qattiq, suyuq, turli chiqindi gazlar bilan ifloslash oqibatida global ekologik tizim undan-da ko'proq buzilmoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan aholi tabiatga ayovsizlarcha munosabatida bo'ldi.

Dunyo okeaniga tashlanayotgan neft mahsulotlari, sanoat-naishiy chiqindilar, oqova suvlar, radioaktiv va turli zaharli kimyoviy moddalar har yili sayin oshib bormoqda. Okeanlardan neft qazib olish natijasida yiliga 100 minglab tonna neft okean suviga tarmoqmoqda. Qishloq xo'jaligida turli pestitsidlarning ishlatilishi tirik organizmlarni nobud qilib, aholi orasida turli xil kasalliklarni keltirib chiqarmoqda. Yilida 130 ming insondan ortiq har xil pestitsidlar atmosfera orqali yoyilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda sanoatning jadal rivojlanishi 1960-70-yillarga borib ekologik muvozanatning buzilishiga olib keldi. Hozirgi

kunda rivojlangan davlatlar o'z bo'yligidan, rivojlanayotgan davlatlar esa, kambag'aligiidan qiyalimoqda. Barchasi ekologiyani asrash yo'lini qidirsar, ikkinchisi bu muammoni chetga surib, sanoatni jadal rivojlantirib, foyda olish uchun intilmoqda.<sup>12</sup>

Olib borilayotgan chora-tadbirlar, eng avvalo, atrof muhitning toksik sanoat va maishiy, tibbiyot chiqindilari bilan ifloslanishining oldini olish, tabiatda ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan. Qolaversa, chiqindilar bilan birga, qimmatli modda va materiallarning yo'q bo'lib ketmasligi, iktilamchi resurslarni, yoojlig'i-energetika sanoati uchun "tekin" energiya manbai hosil qilish mumkin.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida bu borada talaygina tajriba to'plangan. Masalan, Yaponiyada ularni yoqib energiya olish, ulardan turli sintetik tola ishlab chiqarish yo'liga qo'yilgan. Germaniyada texnik, ekologik, iqtisodiy jihatdan qayta foydalanish mumkin bo'lgan chiqindilar saqlab qolindi va ko'mishdan oldin ajratib olinadi.

Fan-texnika va sanoatning rivojlanishi bilan insoniyatning energietikaga bo'lgan talabi kundan kunga oshib bormoqda. Bu esa IES, GES va AESlarni ko'paytirishni talab qiladi. Ulardan chiqqan issiqlik esa "issiql-xona samarasi" muammosini kuchaytiradi, ozon qatlami yemiradi.

"Issiqxona samarasi" atmosferadagi karbonat angidrid gazi xuddi oranjerevadagi oyna kabi quyosh nurini o'tkazadi, lekin issiqlikni ushlab qolish xususiyatiga ega. Uning miqdori esa sanoat korxonalar, energiya manbalari, aviotransportdan havoga ko'tarilib, ortib bormoqda. Demak, iqlim ham yildan-yilga isib boradi. Olimlar bashoratiga ko'ra, 2020-yilga borib, harorat odatdagidan 2,5°C, 2050-yilga borib, 4°C ga ortadi. Uning natijasida okean suvi ko'tariladi, havo massalari o'z yo'nalishini o'zgartiradi, muzliklar eriydi, quruqlikning qirg'oq bo'yari suv ostida qolish xavfi bor.

U global isishga ham ta'sir etadi. Global isish tabiatdan bo'ladigan hodisa hisoblanadi. U quyosh qobig'idagi qora dog'lar, ya'ni magnit maydonchalari (ular quyosh aktivligidan hosil bo'ladi) ko'payishi natijasida hosil bo'ladi. Quyoshda qancha qora dog'lar ko'p bo'lsa, issiqlik ham oshadi, buni 1893-yilda Edward Munder aniqlagan. Ilgari quyoshda bunday dog'larni ko'rishmagan, o'sha paytda iqlim sovuq bo'lgan, demak issiqlik oshib bormoqda va yana pasayish ehtimoli bor. Amerikalik olimlarning fikricha odamlar yaratgan mashina, zavodlardan chiqadigan gaz CO<sub>2</sub> ozon qatlami yemirib, quyoshning issiqligini yerga ko'proq kelishining sababi bo'lar ekan. Yana boshqa olimlarning statistikasiga ko'ra issiqlikka zavod, mashinalar ta'sir qilmasligini ham aniqlashdi.

<sup>12</sup> Илюминий В. Современное состояние географии зарубежного мира. - М., 2001. С.98.

**Demografik muammolar.** Dunyo aholisi bir yilda O'zbekiston aholisiga deyarli uch barobarga teng miqdorda oshib bormoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, Afrika va Osiyo davlatlari bu borada yetakchilik qiladi. Bashoratlarga ko'ra, 2050-yilga borib dunyo aholisi 9,8 mlrd'ga yetadi, Afrika aholisi 2 marotaba ko'payadi. Aholi soni ortishi bilan ishsizlik, qashshoqlik ortadi, bu yerda 90 foiz aholi qishloqlarda yashaydi. Qishloqlarda esa ishlab chiqarish darajasi past, yashash tarzi qolqoq, o'tmish iktir-chikirlarini saqlab qolgan. B.Urlianis prognoziga ko'ra, dunyo aholisi 12 mlrd. bo'lganda turg'unlashadi. Shaharlarda ham aholi soni ortib borishi bilan o'ziga xos muammolar yuzaga kelmogda. Yirik shaharlar soni 15-16 mln.g'a qarab kelmogda. Grek olimi K.Doksiadisning bashoratiga ko'ra, yirik shahar aglomeratsiyalari, megalopolislar ham birturi bilan qo'shilib ketib, yer yuzini qamrab oladi va oykunnapolis vujudga keladi. Bu esa ekologik, shovqin-suron, transport, sotsial va jinoiyatchilik, axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Aholi sonining oshib borishi ularni oziq-ovqat, kiyim-kechak, yashash joyi, o'qish, davolanish va boshqa talabalarini qondirish masalasini ham ko'ndalag qo'yadi. Ularni bari etish uchun ishlab chiqarishni kengaytirish, qishloq xo'jaligi uchun unumli yerlarni o'zlashtirishga katta sarf-xarajalar kerak bo'ladi, 2100-yilga borib resurslar tugaydi, ishlab chiqarish qisqaradi, o'lim ko'payadi, talokat yuz beradi.<sup>13</sup>

Hozirgi vaqtda jahonda mayjud barcha aholining 30 foizga, davlatlarning 40 foiziga yaqini kambag'allik va qashshoqlikda yashamoqda. Ularning 3/4 qismi Afrikada, 1 tasi Yevropada, 4 tasi Janubiy Amerikada va 11 tasi Osiyoda joylashgan. Ularning qolqoqligi bir qancha shahar bilan bog'liq. Tabiiy sharoit, qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvi, aholining hayot tarzi, uzooq davr mustamlaka bo'lgani va uning sarqitlarining saqlanib qolgan, ijtimoiy tengsizlik va b. Bir kunlik oziq-ovqat normasi 2400-2500 kkal dan past bo'lmashligi lozim. Ovqatni to'yib yemashlik 1800 kkal dan past bo'lganda, ocharchilik, 1000 kkal dan kam bo'lganda kuzatiladi. Ocharchilik, to'yib ovqat yemashlik aholining kasallanishi, unni qisqaligi va o'lim ko'rsatkichlarining yuqoriligiga olib keladi. Dunyoda 500 mln. aholi ocharchilikka mahkum, 1 mlrd.dan ortig'i to'yib ovqat yemaydi. Iqtisodiy qolqoqlik mazkur mamlakatlarda siyosiy beqarorlik, ijtimoiy tengsizlik, irqiy va diniy ziddiyatlarni keltirib

<sup>13</sup> Илюминий В. и др. Ижевская работа. 30 лет спустя = Limits to growth. The 30-year update. - М.: Аквариум, 2007. - 342. - ISBN 978-5-94628-218-5.

chiqarmoqda. Bu esa dunyoda millionlab odamlarning halok bo'lishiga olib kelmogda.

Keyingi yillarda aholi sifatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Sog'lom turmush tarzi uchun, avvalo, u jismonan sog'lom bo'lishi kerak. Hozirda tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishildi, qizamiq, shol, vabo, chechak, bezgak kabi ko'plab kasalliklarga barham berilgan. Biroq asr vabosi deb nom olgan OITS va boshqa yangi kasalliklar paydo bo'ldi, yurak-qon tomir, onkologik, venerologik kasalliklar, narkomaniyadan millionlab odamlar nobud bo'lmogda.

Insoniyatning yaqin kelajigida katta ahamiyatga ega bo'lishi kutilayotgan tabiiy resurs turlaridan biri **Dunyo okeani** resurslaridir. U amalda bitmas-tugannas xazina, insoniyat uchun kelgusi zaxiradir. U natqat tabiiy resurs zaxirasi, balki mamlakatlarni bir-biri bilan bog'lovchi transport yo'li, insonlarni ichimlik suvi, energiya, kislrod olish manbai hamdir. Mendeleevning elementlar davriy sistemasidagi 75 xil kimyoviy element erigan holda mavjud. Energiya, oziq-ovqat, xom ashyo tanqisligi undan tartibsiz foydalanishga olib kelmogda. Insoniyat ularidagi 150 ming turdagi okean hayvon va o'simliklarining 2 foizidan foydalanmogda (oqsilning 20 foizi). Okean va dengiz bo'ylarida xo'jaliklar tashkil etilgan: baliqchilik, energetika, qazib olovchi va qayta ishlovchi sanoat, savdo, rekreatsiya va h.k. Ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishda aholining dengiz bo'ylariga sijishi kuzatildi. Dunyo okeani bilan bog'liq ko'plab loyihalar ishlab chiqilmogda. Bu esa kelgusida uni yanada intensiv o'zlashtirish uchun asos bo'ladi.

2015-yilning sentabrida BMITning Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan tarixiy sammitida 193 ta davlat tomonidan barqaror taraqqiyot borasidagi 17 ta ustuvor maqsad bir ovozdan ma'qullandi. 2030-yilgacha ocharchilik, qashshoqlikni yo'qotish, sayyoramizni asrash, umumiy farovonlikni ta'minlash kabi ustuvor yo'nalishlar qabul qilindi. Bu vazifalarni amalga oshirish siz, biz, barchamizning burchimizdir.

### Nazorat savollari

1. Qanday muammolar global muammolar qatoriga kiradi?
2. Tabiatga bo'lgan tabiiy va antropogen ta'simi tushuntiring.
3. O'rta Osiyo mintaqasida ushbu muammolardan qaysitarini dolzarb deb o'ylaysiz?
4. O'zbekistonning ekologik muammolarini tushuntiring.

### Jahon ho'jaligi

**Jahon ho'jaligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari.** Jahon ho'jaligi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yaxlit tizimi orqali o'zaro bog'langan milliy iqtisodiyotlarning majmui hisoblanadi.

Jahon bozori jahon ho'jaligi rivojlanishi uchun asos bo'lib, XV-XVIII asrlarda shakllangan. Ayniqsa, u XIX asrning o'talarida intensiv rivojlandi. XX asrga kelib jahon bozori to'liq rivojlanib bo'ldi. XX asr jahon xo'jaligining jadal rivojlanishi va tarkibining takomillashuvining yuz yilligi bo'ldi. XXI asrda jahon xo'jaligi bozor tamoyillari asosida rivojlana boshladi. Davlat chegaralarining borligiga qaramasdan xo'jalik hayotining boyulminalashuvi jahon xo'jaligi rivojlanishining barqaror tendensiyasiga aylandi. Uni xalqaro mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasi va ishlab chiqarishni xalqaro darajada ijtimoiylashuvining natijasi sifatida qaraladi. Ushbu jarayonlar bir paytning o'zida ikki darajada kechmogda. **Makroiqtisodiy darajada** ko'pgina mamlakatlar iqtisodiy munosabatlarni erkinlashtirish, investitsion va savdo to'siqlarini olib tashlash, erkin iqtisodiy zonalar yaratish va boshqalarga e'tibor bermogdalar. **Mikroiqtisodiy darajada** esa milliy korxonalar va milliy korxonalar faoliyatining milliy darajadan tashqarida rivojlanihi va kengayishi ko'ribilganadi.

Jahonning ko'pgina hududlarida iqtisodiy integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning o'zaro uyg'unlashib, birlashib ketishi, o'zaro manfaatli iqtisodiy siyosat olib borish jarayonlari kuzatilmogda. Buning uchun milliy organlardan tepada turuvchi xalqaro organlar tashkil etilmogda. Integratsion guruhlardan tashqarida maxsus tartiblovchi institutlar (Xalqaro valyuta fondi, Umumijahon savdo tashkiloti, Umumijahon banki)ning roli ortib bormogda.

Xalqaro xo'jalik hayotining globallashuvi jarayonlari xalqaro savdo, xalqaro valyuta munosabatlari sohasida amalga oshirilmogda va ilmiy texnik, axborot almashuvi sohasida jadal rivojlanmogda. Kapital va ishchi kuchi migratsiyasini jadallashtirmogda. Texnologiya, buxgalteriya va statistika hisoblari, ta'lim va madaniyatga yagona standartlar keng qo'llanilmogda. Makroiqtisodiy siyosatning yagona mezonlari amaliyotga jallb qilinmogda, soliq va bandlik siyosati talablari unifikatsiya qilinmogda.

Jahon iqtisodiyotidagi globallashuv jarayonlarining rivojlanib bori-shiga qaramasdan uning quyidagi muammolar (iqtisodiy, demografik va boshqalar) kuchayishidagi rolini ham inkor etish kerak emas.

Jahon xo'jaligi tarkibidagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasi va xalqaro

mehnat taqsimotidagi rolga qarab kuchli differentsiallashganligini ko'ramiz. Yuqorida ko'rsatilgan va ko'rsatilmagan parametrlar bo'yicha industrial jihatdan yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar qo'shimcha ustunlik va afzalliklarga ega bo'ladi. Qarama-qarshi qutbda esa nochor, iqtisodiyoti past rivojlangan mamlakatlar bo'lib, ular moliyaviy va texnologik jihatdan yangi xalqaro iqtisodiy tartib o'rnatishni talab etuvchi jahon iqtisodiyoti liderlari ta'sirida bo'ladi.

1. **Geografik kashfiyotlar** XV-XVII asrlarda yangi ochilgan hududlarni kolonizatsiya, dispartitet (tengsizlik) asosida metropoliya va koloniyalarni iqtisodiy birlashtirish bilan xarakterlanadi.

2. **Sanoat inqilobi** XVIII asrda birinchi bug' bilan ishlaydigan mashinaning kashf qilinishi manufaktura (qo'l mehnati)da fabrika ishlab chiqarishiga o'tish jarayoni boshlandi. Mehnat unumdorligi tez oshdi, ichki bozor zarur tovarlar bilan to'ldi, jahon bozori va xalqaro mehnat taqsimotining paydo bo'lishiga kuchli turtki bo'ldi. Ishlab chiqarish va ayirboshlashning internatsionalizatsiyasi jarayonlari boshlandi.

3. **Oltin standarti** qog'oz pulning oltin ta'mini va valyutalarini etkin konvertatsiyasi xalqaro savdo rivojlanishini rag'batlantirdi.

4. XIX asrda Yevropa mamlakatlaridan kapital olib ketila boshladi. U AQSHning sanoat jihatidan o'zlashtirishga olib keldi. Obligatsiya zayonlari keng tarqala boshladi.

XIX-XX asrlarda ilmiy texnika taraqqiyoti va kapitalning notekis taqsimlanishi natijasida jahon bozorlarida transmilliy korporatsiyalar va transmilliy banklar asosiy rol o'ynay boshladilar. Xalqaro raqobatning jadal rivojlanishi natijasida qo'shni mamlakatlar iqtisodiy integratsiya jarayonlariga tortila boshladilar. Xalqaro tashkilotlar tarmog'i paydo bo'la boshladi, u chegaralar hududlaridagi tovar, kapital va ishchi kuchi harakatini tartibga solib boshladi. Demak, jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendentsiyasi ishlab chiqarish va ayirboshlashning internatsionalizatsiyasi, makro va mikrodarajadagi integratsiya va u asosidagi global iqtisodiyot hisoblandi.

### Jahon iqtisodiyotining rivojlanish dinamikasi

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish dinamikasini jahon va alohida mamlakatlar bo'yicha tahlil qilishda yalpi jahon mahsuloti va yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. XX asrda yalpi jahon mahsuloti 19 barobarga ortdi va o'rtaacha yillik o'sish ko'rsatkichlari 3 foizni tashkil etdi.

### Jahon iqtisodiyotining siklligi

Jahon iqtisodiyotining xarakterli xususiyatlaridan biri sikllik hisoblanadi. U iqtisodiy rivojlanishning uzluksiz tebranish dinamikasini ifodalaydi.

#### Siklning 4 fazasi ma'lum:

1. Pk (iqtisodiy faollikning yuqori nuqtasi).
2. Tushkunlik (retsessiya).
3. Faollikning quyi nuqtasi.
4. Ko'tarilish (ekspansiya).

Iqtisodiy dinamikaning o'rta muddatli (5-7 yil) va uzoq muddatli (40-60 yil) sikllari farqlanadi.

Uzoq muddatli sikl "Kondratyev konyunkturasining katta sikllari" nomi bilan mashhur.

Bir sikldan ikkinchisiga o'tish ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

Siklning yuqori to'liqlari quyidagi davrlarda kuzatildi:

> XVIII asrning oxirida to'qimachilik sanoati va po'lat ishlab chiqarish bilan bog'liq;

> XIX asrning o'rta davrlarida dengiz va temir yo'l transportining rivojlanishi;

> XIX asrning o'rta davrlarida XX asrning boshlarida elektrning ochilishi bilan;

> XX asrning 60-yillarida EHMning tabiiy qilinishi, kommunikatsiyaning yangi vositalari, sintetik materiallar, kosmosning o'zlashtirilishi.

XXI asrning boshlarida yuqori tendensiya (beshinchi sikl) gen injeneriyasi, biotexnologiyalar va informatikaning rivojlanishi bilan bog'liq.

Pasaytiruvchi tendensiyalar jahon xo'jaligida Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari va 70-yillardagi energetika krizislari bilan bog'liq.

So'nggi ellik yil davomida jahon yalpi mahsuloti quyidagi tarzda o'zgardi:

- > 1960-1970-yillar - 5,3 foiz;
- > 1970-1980-yillar - 3,7 foiz;
- > 1980-1990-yillar - 3 foiz;
- > 1987-1996-yillar - 3,3 foiz;
- > 1997-2006-yillar - 3,9 foiz.

O'rta muddatli sikllik tebranishlarga qaramasdan 50-yillardan to' 70-yillarning boshiga qadar jahon xo'jaligining yuqorilab boruvchi tendensiyani kuzatildi, 70-yillardan 90-yillarning boshiga qadar pasayib boruvchi

dinamika, 90-yillardagi tushkunlik sinxron tavsifga ega. AQSH iqtisodiyotining asta-sekinlik bilan o'sishi Yaponiyadagi past va Yevropadagi nochor iqtisodiy konyunktura bilan bog'liq bo'ldi.

Jahonda iqtisodiy o'sishning jadallashuviga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi:

- Amerika iqtisodiyotining nisbatan yuqori sur'atlarda o'sishi;
  - G'arbiy Yevropada siklik jonlanish jarayonlari;
  - Shakllanayotgan bozorlardagi vaziyatning barqarorlashib borishi (O'zbekiston);
  - Neft qazib oluvchi davlatlar iqtisodiyotining rivojlanishi;
  - Yaponiyaning stagnatsiyadan chiqishi;
  - XXR iqtisodiyotining jadal o'sishi.
- Xalqaro tahlilchilar jadal rivojlanib borayotgan iqtisodiyotga ega bo'lgan davlatlarni: Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoyni BRIC mamlakatlar guruhiga birlashtirdilar.

#### Nazorat savollari

1. Jahon xo'jaligi rivojlanishi nechta bosqichga ajratiladi?
2. Buyuk geografik kashfiyotlar qaysi asrlarga to'g'ri keladi?
3. Sanoat inqilobi nima?
4. Jahonda iqtisodiy o'sishning jadallashuviga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?

#### Jahon sanoati

**Sanoat tarmoqlarining joylashish xususiyatlari.** Jahon mamlakatlari xo'jaligining barcha tarmoqlardagi texnika taraqqiyoti va mamlakatning mudofaa qudrati sanoatga bog'liq. Sanoatning rivojlanishi bilan yangi shaharlar, transport yo'llari vujudga keladi, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo-sotiqning taraqqiyoti darajasi o'zgaradi, sanoatning rivojlanishi hudud tabiatiga ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat ham, xo'jalikning boshqa tarmoqlari kabi, korxonalardan, zavodlar, shaxtalar, elektr stansiyalardan iborat.

Iqtisodiyotni tubdan qayta qurish korxonalar mustaqilligini kengaytirishni, ularning oxirgi natija uchun mas'uliyatini oshirishni ko'zda tutadi. Korxonalarining daromadi ana shu oxirgi natijaga bog'liq. Korxonalar har xil kattalikda bo'ladi. Masalan, birgina binoga joylashgan kichik tikuvchilik fabrikalaridan tortib, o'rta shahar maydonini egallagan yuzlab binolarga joylashgan neft haydash va metallurgiya

zavodlarigacha bor. Fan-texnika taraqqiyoti hamma tarmoqlarda yirik korxonalar sonini ko'paytiradi.

Ishtab chiqarishning yirik korxonalarda to'planishi **ishtab chiqarishning markazlashuvi** (konsentratsiyasi) deyiladi. Ishtab chiqarishning markazlashuvi hozirgi zamon texnikasidan to'laroq foydalanishga va mehnat unumdorligini oshirishga imkon beradi. O'nlab mayda korxonalarni qurishga qaraganda bitta yirik korxonani qurish uchun mablag' kamroq ketadi.

Ilgarigi vaqtda har xil mahsulotlar, masalan, stanok, paroxod, vagon ishtab chiqaradigan korxonalar ko'pchilikni tashkil etgan. Endilikda, ko'pchilik korxonalar bir xil mahsulot chiqaradi, ya'ni faqat stanoklar yoki faqat vagonlar chiqaradi. Ishtab chiqarishni tashkil etishning bu shakli **ixtisoslashuv**, deb ataladi. Ixtisoslashgan korxonalarda mehnat unumdorligi yuqori, mahsulot birligiga qilinadigan sarf kam bo'ladi, ishchilarning mehnat malakalaridan yaxshiroq foydalaniladi.

Ixtisoslashgan korxona o'ziga xom ashyo, detallar, mashina qismlari va boshqalarni yetkazib beradigan boshqa korxonalar bilan ishtab chiqarish aloqalarini o'rnatadi. Ishtab chiqarishning tayyor mahsulotni tayyorlashda bir qancha korxona qatnashadigan tashkiliy shakli **kooperativlashuv** (hmmk) deb ataladi.

Ixtisoslashuv va kooperativlashuv ijtimoiy mehnat unumdorligini oshiradi.

Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishtab chiqarishga tez tatbiq qilish uchun ilmiy ishtab chiqarish birlashmalari tashkil qilinadi. Bunday birlashmalar mashinalar va materiallarning yangi turlarini ishtab chiqaruvchi ilmiy institutlardan va ularni tayyorlovchi korxonalardan iborat bo'ladi.

Bir xil mahsulot ishtab chiqaruvchi va ishtab chiqarish jarayonlari o'rnatish (yoki dastlabki xom ashyosi bir xil) bo'lgan hamma korxonalar, mamlakatning turli qismlarida joylashgan bo'lsa ham xalq xo'jaligi tarmog'ini tashkil etadi.

Sanoatning rivojlanishi yangi (avtomobilsozlik, aviasozlik, pribor-sozlik) va eng yangi (elektronika, atom, mikrobiologiya) tarmoqlarning puydo bo'lishiga olib keladi.

Shu bilan bir vaqtda, tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning kuchayishi ro'y beradi. Bu aloqalar FTR davrida kuchayadi, bu esa o'zaro bog'langan tarmoqlar komplekslarining – tarmoqlararo komplekslarining tarkib topishiga olib keladi. Hozirgi vaqtda tarmoqlararo har bir kompleks uchun muayyan maqsadli dasturlar ishlanmoqda. O'zaro bog'langan sanoat tarmoqlari majmualari bilan birga tarmoqlararo majmualar tarkib topmoq-

da. Bunday majmualarda qishloq xo'jaligi, sanoat bilan transportning (agrosanoat majmuasi), sanoat va xizmat ko'rsatishning, sanoat va qurilishning (qurilish majmuasi) tarmoqlari o'zaro bog'langan holda rivojlanmoqda.

**Yozilg'i sanoati va uning tarmoqlari.** Yozilg'i sanoati yozilg'ini qazib olish va ishlov berishdan tashkil topadi.

Jahon mamlatlarida qanchalik ko'p energiya ishlab chiqarilsa va undan foydalanilsa, u shuncha ko'p mahsulot ishlab chiqaradi va iqtisodiy rivojlanish darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Hozirgi vaqtda jahondagi ko'pgina mamlatlarda fan-texnika taraqqiyotini jadallashirishga emas, balki barcha tarmoqlarda energiyadan tejab-tergab foydalanishga e'tibor qaratilmoqda.

2000-yilga kelib xo'jalikda an'anaviy bo'lmagan energiya manbalaridan (quyosh, shamol, suv qalqishi, geotermal, issiq buloqlar energiyasidan) keng miqyosda foydalanish boshlandi.

Energetika resurslariga yozilg'i resurslari (ko'mir, neft, gaz, torf, slanes, yog'och) va gidroresurslar (daryoning yuqoridan tushayotgan suvining energiyasi, dengiz suvining qalqishi energiyasi) kiradi.

Bugungi kunda birlamchi asosiy energetika resurslariga ko'mir, neft, gaz, suv energiyasi, atom energiyasi kiradi. Qolgan birlamchi energiya resurslarining (torf, slanes, yog'och, dengiz suvining qalqishi, quyosh energiyasi, shamol, geotermal energiya) ulushi jahon energiya iste'molida katta emas.

Jahon xo'jaligi butunlay yozilg'i-energetika resurslari asosida rivojlanadi. Bu atzallikni saqlab qolish uchun bu resurslardan oqilona foydalanish lozim.

Yozilg'i resurslari jahon xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun hozircha energiyaning asosiy manbaidir. Lekin insoniyat ishlab chiqarishda Yerning ichki issiqlik energiyasidan, quyosh va ayninga, atom energiyasidan foydalana boshladi, kelajakda esa termoyadro energiyasidan foydalanadi. Yozilg'ining turli xillarini taqqoslash uchun ular shartli yozilg'iga aylantirildi. Sharti yozilg'i deb, 1 kg yozilg'i yonganda 7 ming kkal (29 MJ/kg) energiya beradigan, issiqlik ko'rsatkichi esa bir, deb qabul qilingan yozilg'iga aytiladi. Yozilg'ini sharti yozilg'iga aylantirish uchun yozilg'ilar haqidagi ma'lumotlarni tegishli issiqlik ko'rsatkichiga ko'paytirildi. Hisoblashlarda 1 kg sharti yozilg'i o'rta hisobda 2 kVt.soat elektr energiyasiga teng deb ham qabul qilinadi, lekin bunda elektr stansiyasining foydali ish ko'rsatkichi (FIK) hisobga olinadi.

Turli xil yozilg'ilarning yongandagi issiqligi

5-jadval

| Yozilg'i turi            | 1 kg yozilg'i yonganda chiqadigan issiqlik |             | Issiqlik ko'rsatkichi |
|--------------------------|--------------------------------------------|-------------|-----------------------|
|                          | Joulda                                     | ming kkalda |                       |
| Neft                     | 44-10                                      | 10,5        | 1,5                   |
| Gaz                      | 44-10                                      | 10,4        | 1,5                   |
| Toshko'mir <sup>14</sup> | 29-10                                      | 7,0         | 1,0                   |
| Qo'ng'ir ko'mir          | 13-10                                      | 3,0         | 0,43                  |
| Slanes                   | 8,8-10                                     | 2,1         | 0,3                   |
| Torf                     | 1,4-10                                     | 3,4         | 0,5                   |
| Qurug' o'tin             | 1,0-10                                     | 2,5         | 0,4                   |

Issiqligi (kaloriyasi) kam bo'lgan yozilg'ini - torf, slanes, qo'ng'ir ko'mirni uzoq masofalarga tashib yurishdan foyda yo'q. Bular mahalliy yozilg'i turlaridir.

Yozilg'i resursining qiymati uning faqat kaloriyasigagina bog'liq bo'lmay, undan foydalanish imkoniyatiga, qazib chiqarish xarajatiga ham bog'liq. Bular texnika taraqqiyoti bilan o'zgarib boradi. Eng tejamli yozilg'i neft va gazdir, chunki ularni qazib chiqarish va quvurlar orqali yuborish arzon tushadi. Shunga ko'ra turli xil yozilg'ini qazib chiqarish va undan foydalanish ko'lamini o'zgarib turadi.

Energetika resurslarining zaxiralari, asosan, Osiyoda joylashgan, energiyaning asosiy iste'molchilari esa Shimoliy Amerika va Yevropada joylashgan.

**Neft sanoati.** Neftsiz hozirgi zamon xo'jaligini yuritish mumkin emas. Neft xom hoida ishlatilmaydi. Qayta ishlash natijasida undan turli xil yozilg'i va yangi kimyoviy mahsulotlar olinadi. Neftni qayta ishlashdan olingan qora moy elektr stansiyalarida yozilg'i sifatida ishlatiladi. Lekin kelajakda bunday ishlatish kamayadi. Neftni qazib chiqarish xarajati ko'mirni qazib chiqarish xarajatidan o'rta hisobda 4 baravar kam. Jahon xo'jaligining turli tarmoqlarida neftdan foydalanish juda ko'p mablag'ni tejashga imkon beradi. Neftni qazib chiqarish sur'ati pasayib boradi, lekin undan olinadigan mahsulotlarning miqdori va turlari keskin o'rta boradi.

Neftning tannaxsiga uning qanday chuqurlikda yotganligidan ko'ra ko'pincha qanchalik kattaligi va bitta burg'u qudug'idan qanchalik ko'p neft olishi mumkinligi ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Neftni qazib olishning eng

<sup>14</sup> 1 kg toshko'mirning issiqligi 1 kg sharti yozilg'ining issiqligiga teng.

arzon usuli fontan usuli bo'lib, bunda neft bur'u quduqlaridan neft bosimi ostida ko'tarilib chiqadi. Bosim asta-sekin kamayadi va u turti usullar orqali ko'tarib turiladi. Neftni nasoslar yordamida chiqarib olish ham keng tarqalgan.

Jahonda neft bor maydonlar juda notekis taqsimlangan bo'lib, G'arbiy Osiyo, Shimoliy Amerika va Rossiya davlatlarida joylashgan.

1950-yillarda neft qazib chiqarish bo'yicha yetakchi davlat Amerika Qo'shma Shtatlari bo'lib, jahonda qazib olinadigan neftning 51 foizini berardi. 2012-yilga kelib bu davlatning jahondagi ulushi 9,6 foizga tushdi. Bugungi kunda neft qazib oluvchi yetakchi davlatlar Saudiya Arabistoni (13,3%), Rossiya (12,8%), AQSH (9,6%), Xitoy (5,0%) va Kanada (4,4%)dir.

Jahon neft sanoatining asosiy xususiyati neft qazib olinadigan hududlar va iste'mol qiladigan hududlar o'rtasidagi farqning mavjudligidir.


Bunday farqning mavjudligi minaqalar orasida neft va neft mahsulotlarini hududlararo tashishi talab etadi. Neft, asosan, temir yo'llar orqali sistemalarda, neft quvurlarida va tankerlarda tashiladi. Jahon energoresurslari bozorida bir yilda 2,7 mlrd. tonna neft sotilmoqda. Neft va neft mahsulotlarining iste'moli bo'yicha yetakchi hududlar Osiyo va Shimoliy Amerika hisoblanadi.

Mamlakatlarda neftdan foydalanish ko'lanmi kengayib bormoqda. Shu sababli ham jahonda neft qazib chiqarish yildan-yilga o'sib borgan. Yuqoridagi grafikdan ko'rinish turibdiki, 2005-yilga nisbatan neft qazib olish 424,1 mln. tonnaga oshgan.

Neftni quvurlar orqali yuborish neft tashishning eng arzon va xavfsiz usulidir (temir yo'l orqali tashishga qaraganda 4 baravar arzonaga tushadi). Quvurlar neftni iste'molchilarga bir me'yorda etkazib berishni ta'minlaydi va o'rtib tushirishda bo'ladigan isrofgarchilikning oldini oladi.

Jahonda neft qazib chiqarish (mln. tonna)

6-jadval



**Gaz sanoati.** Yoqilg'i sanoatining eng yosh tarmog'i bo'lgan gaz sanoati keyingi yillarda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Gaz – yoqilg'ining juda arzon turi. Gazdan sanoatda ham, aholining ro'zg'orida ham foydalaniladi.

Gazning sanoat zaxirasi jihatidan AQSH dunyoda yetakchi o'rinlardan birida turadi. Gaz konlari, odatda, neft konlari yaqinida joylashgan. Gazning kamroq qismi neft bilan birga qazib chiqariladi, lekin gazning asosiy qismi sof gaz konlaridan olinadi. Gaz qazib chiqarishda yetakchi davlatlar AQSH (20,4%), Rossiya (17,6%), Eron (4,8%), Qatar (4,7%)dir.

Jahon mamlakatlarida 2015-yilda 3538,6 mlrd.m<sup>3</sup> gaz qazib chiqarilgan. Gazni quvurlar orqali yuborish har qanday yoqilg'ini tashishdan arzon tushadi. Gaz quvurlarining uzunligi yildan-yilga oshib bormoqda.

Ko'mir sanoati. Jahonda ko'mir zaxirasi juda notekis joylashgan. Ko'mirni qazib olishning mehnat unumdorligi eng yuqori va arzonaga tushadigan usuli uni ochiq usulda, karyerlardan qazib chiqarishdir. Shu bilan birga, karyer qancha katta bo'lsa, xarajat shuncha kam bo'ladi.

Ochiq usulda qazib olish mumkin bo'lgan ko'mir konlari jahonning katta qismini tashkil qiladi. Kelajakda ochiq usulda qazib chiqariladigan ko'mir salmog'i 80% gacha yetadi.

Ko'mirni yer ostidan qazib olish qimmatga tushsa ham, bunday usulda ko'mir chiqarishni ham kengaytirish maqsadga muvofiqdir, chunki hokimiyat yuqori sifati ko'mir zarur. Metallurgiya va kimyo sanoati rivojlangan sari bunday ko'mirga ehtiyoj o'rtib boradi. Ko'mirni tegimli gidravlik usulda qazib olish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon hududlari tabiatni muhofaza qilish maqsadida ko'mir sanoatida ilgari karyer bo'lgan joylar tiklanmoqda, ya'ni rekultivatsiya qilinmoqda. Shaxtalar yaqinidagi keraksiz tog' jinslari to'plam o'simliklar bilan mustahkamlanmoqda. Jahonning ba'zi hududlarida neft, gaz va ko'mirdan tashqari, to'rt va yonuvchi slanestlardan foydalanish ham katta o'rin tutadi.

**Yengil sanoat.** Yengil sanoatning tarmoqlari: to'qimachilik va tikuvchilik, poyafzal, zargarlik, mebel, o'yinchoqlar ishlab chiqarishdan iboratdir.

Yengil sanoat tarmoqlarini joylashtirishga iste'mol, xom ashyo, mehnat omillari ta'sir ko'rsatadi.

Yengil sanoatning asosiy xom ashyosi qishloq xo'jaligi va organik sintez kimyosi mahsulotlaridir. Rivojlanayotgan davlatlarning jahon yengil sanoatidagi ulushi 40-45% ni tashkil etadi.

Jahonda paxta to'rali matolarni ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy (12%), Hindiston (23%), AQSH (5%) yetakchilik qiladi.

Yengil sanoatning eng muhim tarmog'i — to'qimachilikdir. U juda qadimgi tarmoqdir. To'qimachilik sanoatining rivojlanishiga arzon ishchi kuchi mavjudligi, aholining tarixiy tarkib topgan yigirish, to'qish malakalari va qulay transport yo'llari boriqisi sabab bo'ldi.

Jahonning hozirgi kundagi to'qimachilik sanoati korxonalari rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan eng yangi jihozlar bilan ta'minlangan. Xom ashyoga: paxta, zigir, jun, jut, kanop kiradi. Gazlama to'qib chiqarish jarayoni bir qancha bosqichlardan iborat. Xususan, xom ashyoga dastlabki ishlov beriladi. So'ngra toladan ip yigiriladi (yigirish jarayoni), ipdan xom gazlama to'qiladi (to'qish jarayoni). So'ngra xom gazlama bo'yaladi, unga gul bosiladi (pardozlanadi).

To'qimachilik sanoatida ko'proq ayollar mehnat qiladi. Binobarin, ayollar mehnati resurslaridan to'liqroq foydalanish uchun to'qimachilik sanoatini aholi ko'p to'plangan joylarda va og'ir sanoat rayonlarida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, to'qimachilik sanoati korxonalarini joylashtirishda iste'molchilar, mehnat resurslari va xom ashyo manbalari hisobga olinadi.

To'qimachilik sanoatining asosiy tarmoqlari paxta to'li gazlama, ipakchilik, jun gazlama, sun'iy toladan gazlama ishlab chiqarishdir.

Janubiy Osiyo, G'arbiy Yevropa, Amerika Qo'shma Shtatlari, MDH, Sharqiy Osiyo to'qimachilik sanoatining asosiy makazlari hisoblanadi. Gazlama ishlab chiqarishda AQSH va Xitoy, aholi jon boshiga ma'o ishlab chiqarishda Amerika Qo'shma Shtatlari, Italiya davlatlari yetakchilik qiladi.

Paxta to'li matolarning asosiy ishlab chiqaruvchilari Xitoy, AQSH, Hindiston, Yaponiya, Italiya, Germaniya, Tayvan, Janubiy Koreya.

Jahonda kimyoviy to'li matoning asosiy ishlab chiqaruvchilari: AQSH, Yaponiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Tayvan, Xitoy va Germaniya hisoblanadi. Kimyoviy to'liar yog'och-taxtadan tayyorlanisa (*viskoza, atsetali ipak*) sun'iy to'la, agar neft, gaz, ko'mirdan ishlab olinisa (*kapron, lavsan*), sintetik to'la deyiladi. Kimyoviy to'li matolarni asosiy eksportchilari: Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan.

Jun gazlamalarni ishlab chiqaruvchi davlatlar G'arbiy Yevropa (Germaniya, Italiya), Yaponiya, Xitoy bo'lib, jun gazlama xom ashyosini eksport qiluvchi davlatlar Avstraliya, Yangi Zelandiya, Xitoy, Argentina, Urugvay, Janubiy Afrika, Buyuk Britaniya, Ispaniyadir.

Zig'ir to'li mahsulotlar qadimdan Yevropa va Rossiyada ishlab chiqarilgan. Asosiy sabablaridan biri bu hududlarda zig'ir o'simligini o'stirish imkoniyatining mavjudligidir. Shuning uchun ham zig'ir to'lasidan

qilingan matolarni ishlab chiqarishda Rossiya, Fransiya, Belgiya, Gollanidiya, Buyuk Britaniya yetakchilik qiladi.

Ipak matolarni ishlab chiqarishda, asosan, Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Germaniya, Italiya yetakchilik qiladi. Bu mamlakatlarda ipakchilikning rivojlanishiga sabab qadimdan bu hududlarda pillachilik taraqqiyotgan.

Jut sanoati mahsulotlari (texnik, qadoqlash, mebel ma'o, gilam)ni yirik ishlab chiqaruvchi mamlakatlarda Bangladesh, Hindiston, Pokistondir.

Trikoj mahsulotlaridan ichki kiyimlar ishlab chiqarishda rivojlangan mamlakatlar, mukammal kiyimlar ishlab chiqarishda esa rivojlangan mamlakatlar yetakchilik qiladi.

Tikuvchilik sanoatida asosiy ishlab chiqaruvchi davlatlar Xitoy, Hindiston, Italiya, Portugaliya, Janubiy Koreya, Tayvan, Turkiya, Germaniya hisoblanadi.

Jahonda asosiy poyafzal ishlab chiqaruvchilari AQSH, Italiya, Xitoy, Tayvan, Ispaniya davlatlari hisoblanadi.

Ilmiy va texnologik taraqqiyot yengil sanoatni rivojlantirishga kuchli ta'sir qiladi. Bu sanoat tarmog'ining rivojlanishiga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, xom ashyo bazasining o'zgarishi katta ta'sir ko'rsatadi.

**Oziq-ovqat sanoati.** Bu sanoat turi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydigan 50 xildan ortiq ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Oziq-ovqat sanoati agrosanoat kompleksining asosiy tarmoqlaridan biridir.

Jahon xo'jaligida oziq-ovqat sanoati yetakchi o'rin tutadi. Endilikda oziq-ovqat sanoati jahon xo'jaligining hozirgi zamon texnikasi bilan ta'minlangan, yuqori darajada rivojlangan tarmog'idir. Oziq-ovqat sanoati har bir hududning xususiyatidan kelib chiqib rivojlanadi. Dunyoning umumiy ta'minlanishiga hududlarida vinochilik, sabzavotchilik va bog'dorchilik rivojlangan hududlarida esa meva konserva sanoati rivojlanadi. Ayniqsa un tortish, qand-shakar va go'sht, sut, baliq mahsulotlarini qayta ishlash sanoati, shuningdek, qandolarchilik mahsulotlari ishlab chiqarish dunyoning deyarli barcha davlatlarida rivojlangan.

Oziq-ovqat sanoatining bundan keyingi taraqqiyoti mahsulot hajmini oshirish, uni mamlakatlarda bir tekisda joylashtirish va jadal rivojlantirish yo'llardan borishi lozim.

Oziq-ovqat sanoati qishloq xo'jaligi bilan boshqa tarmoqlarga alohidan ko'proq bog'langan. Bu sanoat qishloq xo'jaligidan xom ashyo (don, sut, qand lavlagi, kartoshka) oladi va dehqonchilik hamda chorvachilikka ta'sir ko'rsatadi. Oziq-ovqat sanoati yirik, mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarishga aylangan. Shu sababli oziq-ovqat sanoatining bir guruh

korxonalari – qand-shakar, yog', vino va boshqa mahsulotlar ishlatib chiqarish xom ashyo manbaiga yaqin joylarda, ya'ni qishloq xo'jaligi qanavilaviagi yetishtirishga, bog'dorchilikka, sabzavotchilikka, uzumchilikka, shohorvachilikka ixtisoslashgan rayonlarda quriladi.

Qand-shakar sanoati, asosan, rivojlangan mamlakatlarda yaxshi shakllangan.

Go'sht kombinatlari chorvachilik rivojlangan joylarda quriladi chunki tirik molni tashishdan ko'ra go'shtni tashish tejamliroq. Hozirgi transportning tezligi va maxsus muzlatkichlar go'shtni uzoq masofaga tashiganda uning sifatini saqlashga imkon beradi. Go'sht kombinatlardagi ishlab chiqarish jarayoni xom ashyodan kompleks holda foydalanish (go'sht, yog' olish) bilan birga chiqitilarni to'la ravishda qayta ishlashdan iborat.

Dengiz atrofida joylashgan turli mamlakatlar yuqori darajada rivojlangan baliq sanoatiga ega. Muzlatish apparatlari bo'lgan, baliq go'shtini tozalovchi, baliq konservalari tayyorlovchi, chiqitilarni qayta ishllovchi asbob-uskunalar bilan jhozlangan maxsus flotilyalar barpo etilgan. Baliq ovlash jihatidan Tinch okeani va uning dengizlari birinchi Atlantika okeani ikkinchi o'rinda turadi. Shimoliy Muz okeanining baliq ovlanadigan asosiy dengizi Barents dengizidir. Katta dengiz portlari bo'lgan shaharlarda baliq konserva sanoati barpo etilgan.

Oziq-ovqat sanoati xom ashyosi va tayyor mahsulotining ko'p turidan uzoq masofaga tashiganda buziladi. Shu sababli oziq-ovqat sanoatining boshqa bir ishlab chiqarish guruhini iste'molchilarga yaqin joylashtirish taqozo qilinadi. Non zavodlari, makaron, kondier fabrikalari va boshqa shu kabi korxonalar yirik aholi punktlarida joylashtiriladi. Shunday qilib oziq-ovqat sanoatining rivojlantirishi va joylashtirishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- aholining soni va joylashishi, ya'ni iste'molchilar bilan;
- qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, ya'ni xom ashyo manba bilan;

d) tayyor mahsulotni tashish shart-sharoitlari bilan.

Xom ashyoning xilma-xilligi va oziq-ovqat mahsulotlarining hammi yerda iste'mol qilinishi oziq-ovqat sanoatining barcha joyda tarqalishiga imkon beradi. Oziq-ovqat sanoati ana shu xususiyati bilan boshqa tarmoqlardan farq qiladi. Lekin bu sanoat ba'zi joylarda faqat mahalliy aholiga xizmat qilsa, boshqa joylarda esa mamlakatning ko'pgina hududlariga mahsulot yetkazib beradi.

Sanoatni hududiy tashkil etish hamda joylashtirish shakllari. Kam korxonalar joylashgan shahar tipidagi posyolka shahar sanoat

punktidir. Bir qancha korxonalari bo'lsa ham, lekin ular bir-biri bilan bog'lanmagan va energiya hamda suv bilan ta'minlash umumiy tizmasi bo'lmagan shahar sanoat markazi deyiladi. Sanoat uzellari, markazlari va punktlari to'plangan teritoriya sanoat rayoni deb ataladi. O'zaro bog'langan ishlab chiqarish korxonalarini bir-biriga yaqin joyga – bir shaharga yoki yonma-yan turgan bir qancha shahar va posyolkalarga qarish foydaliroqdir. Sanoat uzellari shunday vujudga keladi.

Sanoat uzelliga kirgan korxonalar yagona transport tarmog'idan, energiya va suv ta'minotining umumiy manbalaridan birgalikda foydalana-di (ba'zan xom ashyo resurslari ham umumiy bo'ladi), erak va ayollar-ning mehnat resurslarini ishlab chiqarishga to'laroq jalb qiladi. Bularning hammasi mehnat unumdorligini oshirishga, mablag'larni tejashga, zavodlar ogallaydigan teritoriyalarni qisqartirishga olib keladi. Sanoat uzellari – sanoat korxonalarini joylashtirishning progressiv shaklidir.

Sanoat uzellari, markazlari va punktlari to'plangan hududlarlar sanoat rayonlari deyiladi. Ularning katta-kichikligi har xil bo'ladi.

**Metallurgiya.** Metallurgiya ikki tarmog'ini: qora metallurgiya va rangli metallurgiyani o'z ichiga oladi.

**Qora metallurgiya** – temir rudasi qazib chiqarish, cho'yan, po'lat eritish, prokat va ferrogotishmalar ishlab chiqarishdan iborat. Hozirgi zamon metallurgiyasi uchun, birinchidan, metallning asosiy qismini metallurgiya kombinatlarida ishlab chiqarish xarakterlidir.

Metallurgiyada xom ashyoga ketma-ket ishlov beradigan kombinat-lar ko'p. Bunday kombinatlarda temir rudasidan domna pechlarida cho'yan eritib olinadi, suyuq cho'yan va temir-tertsakdan (metalloidomdan) po'lat erituvchi pechlarda (konverter, marten, elektr pechlarda) po'lat eritiladi, po'landan esa tayyor mahsulot – prokat olinadi. Ikkinchidan, metallurgiya-dagi fan-texnika taraqqiyoti metall eritishning chiqindisiz texnologiyasini, metall olishning yangi, umumli usullarini joriy qilishga olib kelmog'daki, bu po'lat sifatini oshirishni va eng muhimi, oxirgi mahsulot – prokatning xilma-xil turlarini olishni ta'minlaydi. Uchinchidan, qora metallurgiyada ishlab chiqarishning markazlashuvi to'xtovsiz o'sib bormog'da.

Metallurgiya bir qancha ishlab chiqarishni: koks kimyosi, mashina-sozlikni rivojlantirishga asos bo'ladi. Metallurgiya sanoati ko'p miqdorda xom ashyo va yoqilg'i ishlatadi. Shu sababli metallurgiya kombinatlari xom ashyo yoki yoqilg'i hazzalari yaqinida, ba'zan ular oralig'ida quriladi. Bu to'la siklli metallurgiya korxonalarini (kombinatlarini) joylashtirishning eng muhim tamoyillaridir. Bu korxonalarini joylashtirishda suv, elektr energiya, tabiiy gaz bilan ta'minlash va tabiatni muhofaza qilish zarurligi ham e'tiborga olinadi.

Jahon mamlakatlarining metallurgiya xom ashyosi va yoqilg'isi bilan toliq ta'minlanganligi turlichadir.

Qora metallurgiyaning iqtisodiy-geografik muammosi shundan iboratki, temir rudalari konlari jahonning ma'lum bir hududida, yoqilg'i esa boshqa qismida to'plangan.

Temir rudalar "boy" va "kambag'al" rudalarga bo'linadi. Ruda tarkibida temir ulushining yuqoriligi undan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Ruda tarkibida temirning kamligi agar yoqilg'i, elektr energiyaga yaqin bo'lmasa undan foydalanish imkoniyatini cheklab qo'yadi.

**Rangli metallurgiya.** Rangli metallurgiya sanoati rudani qazib chiqarish, boyitish, eritish hamda qotishmalar ishlab chiqarishni o'zida birlashtiradi. Rangli metallurgiyaning rivojlanishi davlatlarning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, atom texnikasi, aviatsiya, raketasozlikni rivojlantirish, shuningdek, qora metallurgiya va kimyo sanoati uchun juda katta ahamiyatga ega. Rangli metallar qimmatli xususiyatlarga ega. Ularning ba'zilar (qalay, qo'rg'oshin, nikel) korroziyaga chidamli, boshqalari (titan) issiqqa bardoshi yoki elektr tokini yaxshi o'tkazadi (alyuminiy, mis, kumush). Rangli metallar bir qancha guruhlariga bo'linadi

#### Rangli metallarning guruhlari

7-jadval

| Asosiy guruhlar                     |                          | Boshqa guruhlar         |                        |                |
|-------------------------------------|--------------------------|-------------------------|------------------------|----------------|
| og'ir metallar                      | yengil metallar          | qimmatbaho metallar     | qiyin eruvchi metallar | nodir metallar |
| mis, qalay, qo'rg'oshin, nikel, rux | alyuminiy, magniy, titan | olting, kumush, platina | volfren, molibden      | uran, germaniy |

So'nggi yillarda jahon yengil (ayniqsa, alyuminiy va titan) va nodir metallarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

**Alyumin sanoati.** Alyuminiy ishlab chiqarish sanoatining eng yosh tarmoqlaridan biridir. Alyuminiy birinchi marotaba XIX asrda Fransiyada boksitdan olingan. Rivojlangan davlatlarda alyuminiy olishda, asosan, boksitdan foydalaniladi. Alyuminiy yer po'stida eng ko'p tarqalgan metallardir, Yer پوستining 7,45% ini tashkil qiladi. Yengil, elektrni yaxshi o'tkazadigan metallardir. Alyuminiy "qanoit" metall ham deyiladi.

Alyuminiydan elektr-texnika, avtomobil, aviatsiya sanoatida foydalaniladi. Alyuminiy ishlab chiqarish 2 bosqichda amalga oshiriladi. Avval boksitdan alyuminiy oksidi olinadi va bu alyuminiy olish uchun yarim

mayyor mahsulot hisoblanadi. 1 tonna alyuminiy oksidi olish uchun 2,5 tonna boksit yoki 2-3,5 tonna ohaktoshdan foydalaniladi. Alyumin oksidi olish uchun katta miqdorda issiqlik talab qilinadi. Shuning uchun alyuminiy ishlab chiqarish korxonalari elektr energiya stansiyalariga yaqin joyga joylashtiriladi. 1 tonna alyuminiy uchun 16-20 ming kVtsoat elektr energiya sarflanadi. Masalan, Shveysariya, Norvegiya, Kanada davlatlarida sanoat ahamiyatiga ega alyumin rudasi yo'q, ammo arzon gidroelektr energiya hisobiga chetdan keltirilgan boksitlar bilan alyuminiy ishlab chiqaradi.

Alyuminiy rudasi ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi davlatlar: Avstraliya (77 ming tonna), Xitoy (47 ming tonna), Braziliya (34 ming tonna), Indoneziya (30 ming tonna) va boshqalar.

Boksitlarni, asosan, Yevropa davlatlari, Amerika, Yaponiya sotib oladi. Birlamchi alyuminiy ishlab chiqarish bo'yicha Xitoy yetakchilik qilib, jahondagi ulushi 45,5% ga teng. Undan keyingi o'rinlarda Rossiya (11,2%), Kanada (6,1%), AQSH (4,1%) turadi.

Titan g'oyatda pishiq, kislotalar ta'siriga juda chidamli, yuqori temperaturada eriydi, magnitlanishga qarshi xususiyatlarga ega. Shuning uchun reaktiv dvigatellar, yadro reaktorlari yasashda, kemasozlik va harbiy texnika ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Titan ham alyuminiy bilan bir qatorda yer po'stida keng tarqalgan metallardan biridir, lekin u to'plam-to'plam holida kandan-kam uchraydi. Titan va magniy ishlab chiqarish ko'p energiya talab qiladi va birga joylashtiriladi.

Yengil metallarni erituvchi korxonalarni arzon energiya manbalari yuqorida qurish ularni joylashtirishdagi eng muhim tamoyildir.

Og'ir metallar yengil metall (va temir) rudalaridan o'z tarkibida metallning kam bo'lishi bilan farq qiladi.

#### Mis ishlab chiqarish sanoati

1 tonna mis olish uchun 100 tonna ruda, 1 tonna qalay olish uchun esa 300 tonnadan ortiq ruda kerak bo'ladi. Juda ko'p miqdordagi keraksiz metallarni ishlamaslik uchun rudani oldindan boyitish zarurdir. Og'ir rangli metallarning yana bir xususiyati ularning kompleks ekanligidir. Mis, qalay, rux-qo'rg'oshin rudalarida o'nlab boshqa metallar, olingugurt bo'ladi. Shu sababi rangli metallurgiyada xom ashyoga kompleks ishlov beruvchi kombinatlar quriladi.

Energiyani ko'p talab etmasligi va boyitilgan rudada misning kam (10% dan 35% gacha) bo'lishi, mis va nikel eritish zavodlarini xom ashyoga yaqin joylarda qurishni taqozo qiladi.

Mis – eng kuchli elektr o'tkazuvchanligi bilan boshqa metallardan ajralib turadi. Misdan foydalanish 5 ming yildan oldin boshlangan. Insoniyat tarixida mis xo'jalikda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Eramizgacha bo'lgan davrda kichik-kichik jihozlar misdan tayyorlangan.

Mis qazib chiqarish rivojlangan davlatlar keng tarqiqiy eigan. X) asr boshlarida 500 ming tonna mis qazib olingan. Mis rudalarida mis atigi 1-3% ga to'g'ri keladi. Masalan, Yaponiyadagi mis rudasida 1,5% Kongoda yuqoriroq – 6,4% ga to'g'ri keladi.

Mis qazib olish bo'yicha yetakchi davlatlar Chii (31,9%), Xito (9,6%), Peru (7,2%), AQSH (7%) va boshqalar. Misdan foydalanish bo'yicha quyidagi davlatlarning jahondagi ulishi yuqori: Xito (42,4%), AQSH (11,2%), GFR (7,8%), Yaponiya (6,8%), Koreya (4,3%).

Qo'rg'oshin, rux va qalayning boyitilgan rudalari tarkibida metall ko'p bo'ladi. Shu sababli ko'p energiya talab qilinadigan rux ishlab chiqarish (qo'rg'oshin ishlab chiqarishdan farq qilib), ruda qazib chiqarish hududlaridagina joylashtirilmagan, yoqilg'i bazalari yaqinida ham joylashtiriladi. Qalay ishlab chiqarish iste'molchilarni e'tiborga olinib joylashtiriladi.

Iste'molchi rayonlarda rangli proka va xilma-xil qotishmalar ishlab chiqarish, iktitlamchi xom ashyo (rangli metall parchalar)ni qayta ishlash zavodlari bunyod etiladi.

Og'ir metallar turli maqsadlarda ishlatiladi. Misdan sof holida ham qalay bilan bronza, nikel bilan mexlor, alyuminiy bilan dyuraluminiy, rux bilan latun qotishma holida ham elektrotexnika va mashinasozlikda keng foydalaniladi. Qo'rg'oshin akkumulyatorlar, elektr kabe'llari ishlab chiqarishda va atom sanoatida ishlatiladi. Nikelning 80% dan ortig'i qon metallurgiyada ishlatiladi. Temir buyumlar zanglamasligi uchun rux bilan sirlanadi. Qalaydan oq tunuka va podshipniklar yasashda foydalaniladi.

Xalqaro valyuta metalli bo'lgan oltinning roli juda katta. Oltin konlari jahonning ko'pgina mintaqalarida bor. Kimyo sanoatida ishlatiladigan kumush og'ir metallarni tozalash vaqtida olinadi.

Metallurgiya ishlab chiqarishining chiqindilari atrof muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bu chiqindilarni to'liq ishlav berib foydali mahsulotlarga (masalan, shlakni quritish materialiga) aylantirish zararsizlantirish, atmosferaga va suv havzalariga chiqadigan chiqindilarni tozalash zarur.

**Mashinasozlik sanoati.** Mashinasozlik jahon sanoatining asosiy tarmog'i hisoblanadi. Mashina zamonaviy iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi va inson mehnatini yengillashtiruvchi omil. Texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlardan biri to'liq

mekanizatsiyalash, avtomatlashtirish va elektrlashtirishdan iboratdir. Bu maqsadni hal qilish uchun rivojlangan mashinasozlikni shakllantirish zarur. Mashinasozlikning rivojlanishida ishlab chiqarishni avtomatlashtirish asosiy ahamiyatga ega.

Mashinasozlikni joylashtirish ilmiy texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. XIX asrda parovoz va vagon ishlab chiqarish zavodlari ko'mir qazib chiqarish konlarini – asosiy energiya ishlab chiqarish manbasining yoniqa joylashtirilgan. XX asrlarda mashinasozlik tarmoqlarini joylashtirishda yoqilg'i havzalari asosiy ahamiyatga ega bo'lmay qoldi. Bunga sabab elektr energiyani masofaga uzatish imkoniyati tug'ildi. Tarmoq korxonalari iste'molchilarga yaqin joylashtirila boshladi. Mashinasozlikning ko'p metall talab qiladigan tarmoqlari xom ashyoga yaqin joylashtirila boshladi.

Mashinasozlikning tarmoqlari mingdan ortiq bo'lib, ularning geografik joylashishiga ta'sir etuvchi omillar ham turlichadir. Ba'zi mashinasozlik korxonalari metallni va ishchi kuchini ko'p talab qilsa, ba'zi tarmoqlar uchun malakali kadrlar va sifatli metall zarur bo'ladi. Ayrim mashinasozlik korxonalari bevosita iste'mol rayonlarida joylashtirilsa, ularlari yirik innovatsiya salohiyatiga ega bo'lgan markazlarda joylashtiriladi.

Tarkibiy jihatdan mashinasozlik turli-tumanligi bilan boshqa sanoat tarmoqlaridan farq qiladi. Mashinasozlik transport, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, elektrotexnika, stanoksozlik, asbobsozlik va priborsozlik tarmoqlaridan tashkil topadi. Ular ham, o'z navbatida, bir qancha tarmoqlarga bo'linadi.

Jahonda yengil avtomobil ishlab chiqarish tez rivojlanmoqda. Uning hududiy xususiyati ham o'ziga xos. Avtomobil ishlab chiqarishda yetakchi davlat Xitoy bo'lib, jahondagi ulushi 27,6% ga teng. Jahon avtomobil sanoatida Yaponiya, Germaniya, AQSH, Koreya Respublikasi o'ziga xos o'ringa ega. Yuk tashuvchi avtomobillar ishlab chiqarish bo'yicha ixtisoslashtirilgan davlatlar Xitoy, Yaponiya, AQSH, Hindiston va boshqalardir. Xitoy yuk avtomobillari ishlab chiqarishda ham yetakchi bo'lib, jahondagi ulushi 49,7% ga teng.

Yengil va og'ir yuk tashuvchi avtomobillar ishlab chiqarilish bo'yicha yetakchi davlatlar (%): Xitoy, Yaponiya hisoblanadi.

8-jadval

| № | Davlatlar           | Yengil avtomobil | № | Davlatlar | Og'ir yuk tashuvchi avtomobillar |
|---|---------------------|------------------|---|-----------|----------------------------------|
| 1 | Xitoy               | 27,6             | 1 | Xitoy     | 49,7                             |
| 2 | Yaponiya            | 12,5             | 2 | Yaponiya  | 15,3                             |
| 3 | GFR                 | 8,3              | 3 | AQSH      | 6,7                              |
| 4 | AQSH                | 6,8              | 4 | Hindiston | 4,8                              |
| 5 | Koreya Respublikasi | 6,3              | 5 | Meksika   | 3,7                              |

Manba: [www.oica.net](http://www.oica.net).

**Kimyo sanoati.** Hozirgi davrda jahon sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri kimyo sanoati hisoblanadi. XVIII-XIX asrlarda kimyo sanoati kislota, soda, ammiak, mineral o'g'itlarning ayrim turini ishlab chiqargan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab plastmassa, kimyoviy tola, tabiiy kauchukdan rezina texnika mahsulotlari ishlab chiqarila boshlandi.

Kimyo sanoatining asosiy rivojlanish davri XX asrga to'g'ri keldi. XX asrning boshlarida jahon kimyo sanoatining asosini kimyo mahsulotlari, asr o'talarida esa uni organik sintez kimyosi (polimer materiallar ishlab chiqarish bilan), asr oxirida – farmatsevtika, maishiy, fotokimyo, biokimyo rivojlandi.

Kimyo sanoati elektroenergetika va mashinasozlik bilan birga xo'jalikdagi fan-texnika taraqqiyotini belgileydi. Uning mahsulotlarini mashinasozlik (plastmassa, oyna), to'qimachilik sanoati (tola, bo'yog'lar), qishloq xo'jaligi (o'g'itlar, zaharli ximikatlari), transport (motor yoqilg'isi, surtish moyi, sintetik yoqilg'i), qurilish (yopishqoq plyonka, oyna, plastik) oladi.

Kimyo sanoati boshqa tarmoqlarning chiqindilarini qayta ishlab, xo'jalikni xom ashyo va materiallar bilan ta'minlar ekan, o'zi ham energiya, jihozlar, transportga muhtojdir. Bu sanoat ham, energetika va mashinasozlik kabi, xo'jalikning deyarli barcha tarmoqlari bilan bog'langan bo'lib, ularning rivojlanishi va joylashishiga ta'sir ko'rsatadi. Kimyo sanoati bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, bu tarmoq ko'p sifatlarga ko'ra tabiiy mahsulotlardan ustun turuvchi yangi materiallar yaratadi. Bu materiallarning qo'llanishi kishilar mehnatini va qishloq xo'jaligi xom ashyosini tejaydi. Masalan, kapron ishlab chiqarish uchun tabiiy ipak tayyorlashga qaraganda 20 baravar kam mehnat sarf qilinadi. Ikkinchidan, kimyo sanoati ishlab chiqarishni kombinatsiylashtirishda katta imkoniyatga ega. Chunonchi, ko'mir, neft, gaz, slanes, torfdan bir-

vaqtning o'zida ham energiya, ham qimmatli kimyo mahsulotlari (benzin, javafin) olish uchun foydalanish energetika-kimyo kombinatlari qurishga olib keladi. Kimyo sanoatini boshqa sanoat tarmoqlari bilan kombinatsiylashtirish natijasida maxsus ishlab chiqarishlar – koks-kimyo, neft-kimyo, o'rmon-kimyo, slanes-kimyo ishlab chiqarishlari vujudga keladi. Uchinchidan, kimyo sanoati juda keng xom ashyo bazasiga ega. U turli xil foydali qazilmalar, yog'och, suv, havodan va ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanadi. Lekin bu sanoat uchun neftni qayta ishlash, ko'mirni koksash chiqindilari, ya'ni maxsus tayyorlangan xom ashyo asosiy xom ashyo bo'lib qolmoqda.

Boshqa sanoat tarmoqlari bilan kombinatsiylashtirish va turli xil xom ashyolardan foydalanish imkoniyatining juda katta ekanligi kimyo sanoati korxonalarini barcha joyda qurishga imkon beradi. Biroq kimyo ishlab chiqarishi energiya va suvni ko'p ishlatishi hamda bundan ham muhimi, atrof muhitga sanitariya va gigiyena jihatidan salbiy ta'sir ko'rsatishi natijasidan ularni hamma joyda ham qurish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Kimyo sanoati bir qancha tarmoqlardan iborat. Bular: 1) tor kimyo (mineral xom ashyoni qazib chiqarish); 2) asosiy kimyo (tuzlar, kislotalar, mineral o'g'itlar olish); 3) organik sintez kimyosi (uglevodorod xom ashyosi, yarim fabrikatlar ishlab chiqarish); 4) polimerlar kimyosi (plastmassalar, kauchuk, turli xil tolalar tayyorlash); 5) polimer materiallarga ishlov berish (shinalar, polietilen plyonkalar tayyorlash). Bu tarmoqlarni joylashtirish tamoyillari bir xil emas.

Asosiy kimyoning eng muhim mahsulotlari mineral o'g'itlar va turli xil kislotalardir. Uni tashib yurish qiyin, uni tashish uchun kislotaga ehtiyotli materiallardan yasalgan maxsus sistemalar kerak bo'ladi. Xom ashyoni (oltingugurt, oltingugurt kolchedani, gipsni) tashib yurish osonroqdir.

**O'rmon sanoati** – jahon sanoatining eng keksa tarmoqlaridan biri. O'rmon taqatgina sanoat xom ashyosi emas. U tuproqni suv va shamol eroziyasidan himoya qiladi, yerdagi namni saqlaydi, daryolarning toshib qolishiga yo'l qo'ymaydi, dalalarni garmseining halokatli ta'siridan saqlaydi.

O'rmon sanoatini joylashtirish tamoyillarini tushunish uchun tarmoqning xom ashyo bazasini ham bilish kerak. O'rmonlar xo'jalikda turli xil ahamiyatga ega. Sanitariya o'rmonlari (shaharlar atrofidan), tuproqni, dalalarni, suvni muhofaza qiluvchi o'rmonlar (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar bo'yida), qo'riqxonalar o'rmonlari bo'ladi.

Yog'ochdan odamlar yashash uchun joy, uy jihozlari, transport vositasi tayyorlaganlar. Texnika va texnologiyaning rivojlanishi tufayli yog'och o'z o'rnini qisman konstruktiv materiallarga – metall, plastmassa-ga bo'shatib berdi. Shuning uchun undan foydalanish ko'lamini toraytib boshladi.

Bugungi kunda daraxtdan qurilish materiallari, mebel, qog'oz, karton, ayrim kimyoviy moddalar va uy xo'jaligi uchun zarur bo'lgan buyumlar ishlab chiqarilmogda.

XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy texnika taraqqiyoti ta'sirida o'rmon sanoati sezilarli darajada o'zgardi. Mahsulotning sifatini yaxshilash, narxi arzonlashdi. Hozirgi kunda yog'ochdan avvalgi nisbatan ko'proq mahsulot ishlab chiqariladigan bo'ldi. Chiqindi miqdori keskin kamaydi. Tarmoqning geografyasi ham o'zgardi. Ilgari yog'och tayyorlash va qayta ishlash rivojlangan davlatlarda yoki shimoliy o'rmon kengliklarida rivojlangan bo'lsa, XX asrning oxirlariga kelib rivojlanayotgan davlatlarda yog'ochning yarmi tayyorlana boshladi.

Tarmoqning xom ashyosi ham o'zgardi: rivojlangan davlatlar, asosan, igina bargli daraxtlardan foydalansa, rivojlanayotgan davlatlarda keng bargli daraxtlardan foydalana boshladi.

Hozir dunyoda 3,3 mlrd. m<sup>3</sup> yog'och tayyorlanmogda. Buning ikkidan bir qismi yoqilg'i sifatida ishlatilmogda. Qolgan esa qayta ishlashga berilmogda. Yog'ochni to'liq qayta ishlash turti davlatlarda bit xil emas. AQSH, Kanada, Yevropa davlatlari va Yaponiyada yog'ochni qayta ishlash deyarli 100% ga yetdi. Ammo rivojlanayotgan davlatlarda bu ko'rsatkich 20-30% atrofida xolos. Chunki tayyorlangan daraxtning bir qismi o'tinga, qolgan ikkinchi qismi rivojlangan davlatlarga to'liq qayta ishlash uchun eksport qilinadi. Masalan, Yaponiya kompaniyalari Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida yog'och tayyorlaydi. Ular, odatda, daraxtni ildizi bilan sug'itib oladi. Butun daraxt ildizi, shoxlari, bargi ham qayta ishlashga ketadi. Ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish uchun yog'och tayyorlashning asosiy qismi tez tiklanadigan hududlarda amalga oshiriladi. Yog'och rivojlangan davlatlarda – AQSHning shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbida, Kanadaning shimoli-g'arbida, shuningdek, butun Shimoliy Yevropada tayyorlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yog'och nam, doimiy yashil ekvatorial o'rmonlarda (Indoneziya, Malayziya, Kongo Demokratik Respublikasi, Kamerun, Nigeriya, Braziliya, Kolumbiya, Venesuela, Peru, Boliviya) tayyorlanadi. Yog'och materiallari tayyorlash hajmi bo'yicha yetakchi o'rinni rivojlangan davlatlar (AQSH, Kanada, Shveysiya, Finlyandiya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya) hamda Rossiya egallab turibdi. Bugungi kunga kelib ayrim rivojlanayotgan

davlatlarda ham yog'och materiallari tayyorlash hajmi (Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Braziliya, Chili) ortdi.

Daraxtni qayta ishlash sanoati Yevropa mamlakatlarining ayrimlarida ma'lum bir mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Eker ishlab chiqarish bo'yicha jahonda Avstriya va Portugaliya yetakchi o'rinni egallaydi. Mebelning asosiy qismini rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqaradi. Tropik daraxtlardan tayyorlangan mebel shponning beshdan to'rt qismini jahon bozoriga Braziliya yetkazib beradi. Mebel ishlab chiqarishdagi qadimgi an'analar Italiya saqlanib qolgan.

O'rmon sanoatining asosiy mahsulotlari sellyuloza, qog'oz, karton hisoblanadi. Qog'oz ishlab chiqarish hajmi bo'yicha jahonda yetakchi o'rinni rivojlangan davlatlar (AQSH, Yaponiya, Kanada, Germaniya) egallaydi. Ayrim rivojlanayotgan davlatlarda ham qog'oz ishlab chiqarish hajmi ortib bormogda (Xitoy, Braziliya, Hindiston, Meksika). Xitoy qog'ozning kattagina qismini sholi somonidan ishlab chiqaradi. Aholi jon boshiga qog'oz ishlab chiqaruvchi yetakchi davlatlar Shimoliy Yevropa, Kanada, Avstriyadir. Kanada gazeta qog'ozini ishlab chiqarishga, Finlyandiya, Shveysiya, Norvegiya – idora qog'ozini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

O'rmon kimyosining asosiy mahsuloti yog'och ko'mir, spirt, alkollar, ozuqa xamirturishi ishlab chiqarishdir. Tropik yog'och tayyorlashning jadallashishi smola yig'ish va bir necha tur yog' ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishiga asos soldi.

Sero'rmon hududlar ko'p yog'och ishlatadigan asosiy joylardan hisoblanib kilometr uzoqda joylashgan. Binobarin, o'rmon sanoatini shunday joylashtirish kerakki, bunda ishlov berilmagan yogochlarni uzoq masofalarga kamroq tashishga, o'rmonchilik chiqindilaridan to'liq foydalanishga imkon bersin. Bu masalani yechishga o'rmon sanoatini joylashtirishning eng muhim tamoyili – o'rmon sanoati majmualarini dengiz, daryo va temir yo'l transporti bilan eng yaxshi ta'minlangan joylarga qurish omili yordam beradi. Bunday tarmoqlarni katta daryolarning quyilish joylarida, daryolar bilan temir yo'llar kesishgan joylarda qurish, ayniqsa, foydalidir.

Deyarli barcha o'rmonchilik ishlab chiqarishlarida asosiy xarajat (75% gacha) yogoch tayyorlashga to'g'ri keladi. Shu sababli o'rmon sanoatini joylashtirishning yana bir muhim tamoyillari korxonalarini yog'och tayyorlash hududlariga, ya'ni xom ashyoga yaqinlashtirishdir.

O'rmon sanoatining ayrim korxonalari geografiyasiga iste'molchilarning yaqinligi, shuningdek, suv va energiya bilan ta'minlanish sharoiti ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, mebelni tashib yurish uning qismlarini tashishga nisbatan qimmatroq turadi. Shu sababli mebel turti xil sanoat tarmoqlari

bo'lgan va aholi zich joylashgan hududlarda ishlab chiqariladi. Sellyuloza ishlab chiqarish ko'p miqdorda suv talab qiladi va qog'oz olish uchun ko'p elektr energiya sarf bo'ladi. O'rmon resurslarini ishlatish bilan birga, o'rmonlar ham tiklanib boriladi.

#### Nazorat savollari

1. Kimyo sanoati boshqa tarmoqlardan qanday xususiyati bilan farq qiladi?
2. Kimyo sanoatining tarmoqlararo aloqalari qanday?
3. Kimyo sanoati ayrim tarmoqlarini joylashtirish tamoyillarini tushuntirib bering
4. Mashinasozlik sanoatining asosiy tarmoqlari qaysi?
5. Bugungi kunda tez rivojlanayotgan mashinasozlik tarmoqlari qaysi?
6. Mashinasozlikning qanday tarmoqlari malakali kadrlar ko'p bo'lgan joylarda joylashtiriladi
7. Jahonda yengil sanoatning qaysi tarmog'i yaxshi rivojlangan?
8. Yengil sanoatning asosiy xom ashyosi nima?
9. Yengil sanoat tarmoqlarini joylashtirishga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
10. O'rmon sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishda yetakchi davlatlar qaysilar?

#### Jahon qishloq xo'jaligi

Qishloq xo'jaligi – inson xo'jalik faoliyatining eng qadimgi shakllaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyodagi aholining yarmidan ko'pi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadi.

Qishloq xo'jaligi – majmuai tarmoqlar sirasiga kiradi. Ushbu tarmoq chorva mollarni ko'paytirish, o'simliklarni o'stirish bilan shug'ullanadi. U aholini oziq-ovqat va sanoatni xom ashyosi bilan ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligida yer mehnat predmeti va ayni zamonada mehnat vositasi bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli yerdan to'g'ri foydalanish, uning hosildorligini saqlash juda muhim. Qishloq xo'jaligi sanoatdan farq qilib, relyefi, iqlimi va tuproqlari har xil bo'lgan keng maydonlarda olib boriladi. Qishloq xo'jaligida ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlari mavsumiy xarakterga ega, chunki ular o'simliklarning o'sishi va hayvonlarning rivojlanishidagi tabiiy sharoitlar bilan bog'langan. Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligida mehnat jarayoniga va uning natijasiga sanoatdagi qaraganda ancha ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy sharoitlardan qat'i nazar, qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi sarf qilingan mehnatning miqdori va

iflatiga, mashina va o'g'itlardan foydalanish darajasiga qarab belgilanadi.

Agar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollari sonini oshirish hisobiga ko'paysa, bunday qishloq xo'jaligi **ekstensiv xo'jalik** deyiladi. Buning aksicha, qishloq xo'jaligi mahsulotining hajmi maydon birligida agrotexnika vositalaridan ko'proq foydalanish yoki chorva mollarning ko'proq mahsuldor zotlarini yaratish hisobiga olish, bunday qishloq xo'jaligi **intensiv xo'jalik** deb ataladi.

Hozirgi zamon qishloq xo'jaligi texnika bilan yaxshi ta'minlangan. Dehqonchilik va chorvachilikdagi sermehnat ishlarni mashinalar bajarmoqda. Kimyoviy o'g'itlardan, zararkundalarga qarshi zaharli ximikatlardan, o'simlik va chorva mollari kasalliklariga qarshi kurash vositalaridan keng miqyosda foydalanilmoqda.

Mexanizatsiya, elektrlashtirish va kinyolashtirish qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish va intensivlashtirishning asosiy yo'lidir.

Yuqori hosilli qishloq xo'jaligini vujudga keltirish uchun melioratsiya qilish, ya'ni yerlarning holatini yaxshilash ishlarni (sug'orish, yerlar yaxshini quritish, tuproqqa o'lak solish, daraxt o'tqazish va shu kabi ishlarni) olib borish zarur.

Umuman olganda, jahonning ko'pgina hududlarida tabiiy sharoit dehqonchilik va chorvachilikning turli tarmoqlarini rivojlantirishga imkon beradi. Jahonning yetakchi davlatlari seleksionlari va zootexniklari o'simlik va chorva mollarning yangi turlarini yaratmoqdalar. Bu ham qishloq xo'jaligini yuksaltirishning muhim shartidir. Buning natijasida dehqonchilikning chegarasi shimolga surildi, tog'larda esa u yuqoriroq ko'tarildi.

Dehqonchilik quyidagi tarmoqlarga: g'allaçilik, texnika ekinlari, yem-xashak ekinlari, sabzavot va poliz ekinlari, kartoshka yetishtirishga bo'linadi. Dehqonchilikni hududiy joylashtirishda agroqilim sharoiti hisobga olinadi.

Qishloq xo'jaligi juda konservativ tarmoq hisoblanadi. Hattoki, buning asrimizda ham qishloq xo'jaligi korxonalarining rang-barang shakllarini ko'rish mumkin. Ularning bir qismi o'rta asrlardan buyon muqamlanib qolgan.

Bugun biz zamonaviy agrobiznesning tarkibiy qismlari bo'lgan mulk tovar xo'jaligi (alohida dehqon xo'jaliklari va latifundiyalar), yuqori tovar xo'jaliklari (plantatsiyalar, fermer xo'jaliklari)ni ko'rishimiz mumkin. Ilmiy texnika taraqqiyoti davrida agrobiznes shakllari ham mukomillashib bormoqda. Korxonalar ommaviy ravishda mexanizatsiya-lashtirib va avtomatlashtirib bormoqda.

Ishtab chiqarishning bir qismi (mahsulotga dastlabki ishlav berish) qishloq xo'jaligidan ajralib, chiqib yengil va oziq-ovqat sanoatining muhim qismiga aylandi. Tarmoq tarkibiga ko'ra mamlakatlar o'rtasida jiddiy farqlar bor. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganligi qishloq xo'jaligining tarkibida chorvachilikning yuqori darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, mehnatning yuqori darajada intensivlashganligi va mehnat resurslarining kam bandligi bilan xarakterlanadi.

Dehqonchilik – qishloq xo'jaligining bosh tarmog'i. Dunyoda bugungi kunda bir yarim mingdan ziyod madaniy o'simliklar yetishtiriladi. Dehqonchilik qishloq xo'jaligining majmualari tarmog'i hisoblanadi. Dehqonchilikning asosini doni ekinlar yetishtirish tashkil etadi. Insoniyat 3 turdagi "nomi" biladi. Bular – bug'doy, sholi va makkajo'xori hisoblanadi. Ular ekitilgan hudud 720 mln. gektardan ortiq yerni tashkil etadi.

9-jadval

| Dunyoda yirik bug'doy ishlab chiqaruvchi mamlakatlar<br>(ming tonna)* |         |         |         |         |
|-----------------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|
| Mamlakatlar                                                           | 2013-y. | 2014-y. | 2015-y. | 2016-y. |
| Argentina                                                             | 9,300   | 10,500  | 13,930  | 11,300  |
| Avstraliya                                                            | 22,856  | 25,303  | 23,743  | 24,168  |
| Braziliya                                                             | 4,380   | 5,300   | 6,000   | 5,540   |
| Kanada                                                                | 27,205  | 37,530  | 29,420  | 27,594  |
| Xitoy                                                                 | 121,023 | 121,930 | 126,208 | 130,190 |
| Misir                                                                 | 8,500   | 8,250   | 8,300   | 8,100   |
| Yevropa Ittifoqi                                                      | 133,949 | 144,583 | 156,912 | 160,000 |
| Hindiston                                                             | 94,882  | 93,506  | 95,850  | 86,530  |
| Eron                                                                  | 13,800  | 14,500  | 13,000  | 15,000  |
| Qozog'iston                                                           | 9,841   | 13,941  | 12,996  | 13,748  |
| Pokiston                                                              | 23,473  | 24,211  | 25,979  | 25,100  |
| Rossiya                                                               | 37,720  | 52,091  | 59,080  | 61,044  |
| Turkiya                                                               | 16,000  | 18,750  | 15,250  | 19,500  |
| Ukraina                                                               | 15,761  | 22,278  | 24,750  | 27,274  |
| O'zbekiston                                                           | 6,700   | 6,800   | 7,150   | 7,200   |
| Boshqalar                                                             | 51,923  | 57,427  | 54,354  | 56,824  |
| Amerika Qo'shma Shtatlari                                             | 61,298  | 58,105  | 55,147  | 56,117  |
| Jahon jami                                                            | 658,611 | 715,005 | 728,069 | 735,229 |

\*Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi departamenti

Bug'doy yer sharining mo'tadil va subtropik kengliklarida yetishtiriladi. Asosiy bug'doy ishlab chiqaruvchilar yer sharining bug'doy "belbog'i"ni tashkil etadi.

Makkajo'xori (kurrai zamining eng qadimiy oziq-ovqat va ozuqa ekin) ekitilgan yerlar AQSH, Braziliya, Meksika, Argentina, Xitoy, Hindiston va Avstraliyada keng tarqalgan.

10-jadval

| Dunyoda yirik makkajo'xori ishlab chiqaruvchi mamlakatlar<br>(ming tonna)* |         |         |           |         |
|----------------------------------------------------------------------------|---------|---------|-----------|---------|
| Mamlakatlar                                                                | 2013-y. | 2014-y. | 2015-y.   | 2016-y. |
| Argentina                                                                  | 27,000  | 26,000  | 29,750    | 29,000  |
| Braziliya                                                                  | 81,500  | 80,000  | 85,000    | 67,000  |
| Kanada                                                                     | 13,060  | 14,194  | 11,487    | 13,559  |
| Xitoy                                                                      | 205,614 | 218,489 | 215,646   | 224,632 |
| Efiopiya                                                                   | 6,158   | 6,492   | 7,235     | 5,050   |
| Yevropa Ittifoqi                                                           | 59,142  | 64,931  | 75,734    | 58,410  |
| Hindiston                                                                  | 22,258  | 24,259  | 24,170    | 22,570  |
| Indoneziya                                                                 | 8,500   | 9,100   | 9,000     | 10,500  |
| Meksika                                                                    | 21,591  | 22,880  | 25,480    | 25,971  |
| Nigeriya                                                                   | 7,630   | 7,700   | 7,515     | 7,000   |
| Filippin                                                                   | 7,261   | 7,532   | 7,671     | 6,970   |
| Rossiya                                                                    | 8,213   | 11,635  | 11,325    | 13,168  |
| Serbiya                                                                    | 3,750   | 5,900   | 7,700     | 6,000   |
| Janubiy Afrika                                                             | 12,365  | 14,925  | 10,629    | 8,214   |
| Ukraina                                                                    | 20,922  | 30,900  | 28,450    | 23,333  |
| Boshqalar                                                                  | 91,610  | 94,289  | 98,151    | 96,438  |
| Amerika Qo'shma Shtatlari                                                  | 273,192 | 351,272 | 361,091   | 345,506 |
| Jahonda                                                                    | 869,766 | 990,498 | 1,016,034 | 963,321 |

\*Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi departamenti (United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service)  
<https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

Sholi – ekvatorial tropik va subtropik kenliklarning asosiy oziq-ovqat ekin. U Braziliya, Xitoy, Hindiston, Indoneziya va Yaponiyada yetishtiriladi. Sholi ekitilgan maydonlar Markaziy Osiyoda, Janubiy Yevropa va Shimoliy Amerikada uchraydi.

11-jadval

| Dunyoda yirik gurruch ishlab chiqaruvchi mamlakatlar (ming tonna)* |         |         |         |         |
|--------------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|
| Mamlakatlar                                                        | 2013-y. | 2014-y. | 2015-y. | 2016-y. |
| Bangladesh                                                         | 33,820  | 34,390  | 34,500  | 34,500  |
| Braziliya                                                          | 8,037   | 8,300   | 8,465   | 7,210   |
| Birma                                                              | 11,715  | 11,957  | 12,600  | 12,160  |
| Kambodja                                                           | 4,670   | 4,725   | 4,700   | 4,705   |
| Xitoy                                                              | 143,000 | 142,530 | 144,560 | 145,770 |
| Misir                                                              | 4,675   | 4,750   | 4,530   | 4,000   |
| Hindiston                                                          | 105,241 | 106,646 | 105,482 | 104,408 |
| Indoneziya                                                         | 36,550  | 36,300  | 35,560  | 36,200  |
| Yaponiya                                                           | 7,907   | 7,931   | 7,849   | 7,670   |
| Janubiy Koreya                                                     | 4,006   | 4,230   | 4,241   | 4,327   |
| Nepal                                                              | 3,003   | 3,361   | 3,100   | 3,100   |
| Pokiston                                                           | 5,536   | 6,798   | 6,900   | 6,800   |
| Filippin                                                           | 11,428  | 11,858  | 11,915  | 11,000  |
| Tailand                                                            | 20,200  | 20,460  | 18,750  | 15,800  |
| Vyetnam                                                            | 27,537  | 28,161  | 28,166  | 27,584  |
| Boshqalar                                                          | 38,857  | 39,821  | 40,129  | 40,882  |
| Amerika Qo'shma Shtatlari                                          | 6,348   | 6,117   | 7,106   | 6,133   |
| Jahonda                                                            | 472,530 | 478,335 | 478,553 | 472,249 |

\*Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi departamenti  
(United States Department of Agriculture Foreign Agricultural Service)

<https://www.fas.usda.gov/data/grain-world-markets-and-trade>

Dukkakli ekinlar (loviya, soya, no'xot, yasmiq) ham muhim oziq-ovqat ekinlaridan hisoblanadi. Texnika ekinlari esa sanoatning turli tarmoqlarida xom ashyo sifatida ishlatiladi. Ular to'liqi, moyli, tarkibida shakar mavjud, kauchukli, kraxmalni va quvvat beruvchi turlarga bo'linadi. Paxta va jut (totali) AQSH, Xitoy, Pokiston, Hindiston va O'zbekistonda yetishtiriladi. Zig'ir Yevropaning noqoratuprog mamlakatlari va Xitoyda yaxshi hosil beradi.

12-jadval

| Dunyoda yirik paxta ishlab chiqaruvchi mamlakatlar (ming tonna)* |         |         |         |         |
|------------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|
| Mamlakatlar                                                      | 2013-y. | 2014-y. | 2015-y. | 2016-y. |
| Hindiston                                                        | 6,205   | 6,750   | 6,423   | 5,748   |
| Xitoy                                                            | 7,620   | 7,131   | 6,532   | 4,790   |
| Amerika Qo'shma Shtatlari                                        | 3,770   | 2,811   | 3,553   | 2,806   |
| Pokiston                                                         | 2,025   | 2,068   | 2,308   | 1,524   |
| Braziliya                                                        | 1,306   | 1,742   | 1,524   | 1,285   |
| Avstraliya                                                       | 1,002   | 893     | 501     | 621     |
| O'zbekiston                                                      | 1,002   | 893     | 849     | 827     |

\*Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi departamenti

Quyidagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, Xitoy eng ko'p paxta iste'mol qiluvchi davlatdir. Yuqoridagi jadvalga solishtirilgan bo'lsak, bu davlat o'zi yetishtirgan paxtadan ham ko'prog paxta ishlatadi. Bugungi kunda Bangladesh ham ko'p miqdorda paxta importi bilan shug'ullanmoqda.

13-jadval

| Dunyoda yirik paxta iste'mol qiluvchi mamlakatlar (ming tonna)* |         |         |         |         |
|-----------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|---------|
| Mamlakatlar                                                     | 2013-y. | 2014-y. | 2015-y. | 2016-y. |
| Xitoy                                                           | 7,838   | 7,512   | 7,403   | 7,620   |
| Hindiston                                                       | 4,736   | 5,062   | 5,334   | 5,280   |
| Pokiston                                                        | 2,341   | 2,264   | 2,308   | 2,243   |
| Bangladesh                                                      | 1,023   | 1,154   | 1,263   | 1,328   |
| Vyetnam                                                         | 490     | 697     | 893     | 958     |
| Amerika Qo'shma Shtatlari                                       | 762     | 773     | 778     | 751     |

\*Manba: Amerika Qo'shma Shtatlari Qishloq xo'jaligi departamenti

Moyli ekinlardan soya ekin maydoni eng ko'p targalgan davlat AQSH, Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlaridir. Kungaboqar Sharqiy Yevropa, AQSH, Xitoy, Argentina o'stiriladi. Zaytun ko'p yetishtiriladigan hudud O'rta Yer dengizi hisoblanadi. Kauchukli o'simliklar Janubi-Sharqiy Osiyoda yetishtiriladi.

Shakar, asosan, shakarqamish (AQSH, Hindiston, Braziliya, Avstraliya, Kuba) va qand lavlagidan (Yevropa, AQSH, Xitoy) olinadi. Tropic mevalar eksport uchun O'rta Yer dengizi davlatlarida yetishtiriladi.

Jahoning chorvachilik majmuasi ham bir nechta tarmoqlardan tashkil topgan. Chorvachilik jahonning deyarli barcha hududlarida shakllangan. Ammo u turli davlatlarda mexanizatsiya va avtomatizatsiyaga

bo'g'liq holda turli darajada rivojlangan. Rivojlangan davlatlar hissasiga jahonda yetishtiriladigan go'sht va sutning yarmi to'g'ri keladi.

Chorvachilik: qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik va parrandachilikka bo'linadi. Yirik shoxli qoramol boqish Braziliya, Argentina, AQSH, Xitoyda yaxshi rivojlangan. Qoramolchilik jahon bozoriga hamma sut va jami go'shtning to'rtidan uch qismini beradi.

Cho'chqachilik qoramolchilik va qo'ychilikka nisbatan sarf qilingan xarajatlarni tez qoplash imkoniyatini yaratadi. Bu tarmoqning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati shundan iboratki, konsentratsiyalangan va to'yimli ozuqa berish orqali cho'chqachilik tarmog'ini intensiv rivojlantirish imkoniyati ortadi. Ozuqa sifatining xususiyatlari cho'chqachilikni don, makkajo'xori, arpa va qand lavlagini qayta ishlanadigan hududlar yonida joylashtirishni talab etadi. Cho'chqachilik aholi zich joylashgan hududlarda joylashgan.

Cho'chqachilik jahonda yetishtiriladigan go'shtning 40% ini ishlab chiqaradi, yog' (salo) va terini yetkazib beradi. Cho'chqachilikda yetakchi davlatlar: Xitoy, AQSH va Rossiya'dir.

Qo'ychilik go'sht va jun ishlab chiqarish bo'yicha qishloq xo'jaligida alohida ahamiyatga ega. Qo'ychilik qurg'ochi va tog'li hududlarda yaxshi rivojlangan tarmoqdır. Bu tarmoq Avstraliya, Xitoy, Yangi Zelandiya va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan.

Parrandachilik jahonda yetishtiriladigan go'shtning 20% ini va shu bilan birga tuxum, parpat yetkazib beradi. Parrandachilik, asosan, shahar atrofiga yaxshi rivojlangan bo'lib, bu tarmoqni mexanizatsiyalash natijasida chorvachilikning eng intensiv tarmog'iga aylandi. Tovuq tuxumini yetkazib berish bo'yicha AQSH, Xitoy, Rossiya, tovuqlar boshi soni bo'yicha esa Xitoy, AQSH, Indoneziya, Braziliya yetakchilik qiladi. Jahonning barcha davlatlarida boqiladigan tovuqlar soni 2014-yilda 6 mlrd.dan oshdi.

Yuqoridagilardan tashqari, chorvachilik tarkibiga asalarichilik, bu'g'uchilik, yilqichilik, tuyachilik, baliqchilik va darrandachilik ham kiradi.

Yilqichilik jahon mamlakatlarining ko'pgina hududlarida tarqalgan bo'lib, bu chorva turi ikki xil maqsadda: go'sht va sport uchun boqiladi. 2014-yil ma'lumotlariga ko'ra jahondagi yilqlarning bosh sonidagi katta ulush eng yirik davlatlar – AQSH (17,7%), Meksika (10,9%), Xitoy (10,9%), Braziliya (9,3%) hissasiga to'g'ri keladi.

Jahon mamlakatlarida echki boqish o'ziga xos tabiiy iqlim sharoitini talab qiladi. Echki boqishda Xitoy, Hindiston, Pokiston, Nigeriya, Bangladesh davlatlari yetakchilik qilib, o'z navbatida, bu davlatlar jun

gazlamalar ishlab chiqarishda ham jahonda oldingi o'rinda turadi. 2014-yilda jahondagi echkilar soni 200 milliondan ortiq edi.

Chorvachilikning ixtisoslashuviga iqlim resurslariga ta'sir qilishiga qolmay, urf-odat, diniy e'tiqod ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

### Nazorat savollari

1. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi sanoatdan nima bilan farq qiladi?
2. Qanday xo'jalik intensiv xo'jalik va qanday xo'jalik ekstensiv xo'jalik deb ataladi?
3. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy yo'llarini aytib bering.
4. Jahondagi qishloq xo'jaligi yerlari dehqonchilik va chorvachilik o'rtasida qanday taqsimlanadi?

### Jahon transporti

Transport tizimining yuqori darajada rivojlanishi ishlab chiqarish taraqqiyotiga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Iqtisodiyotni transportiz rivojlantirish mumkin emas. Transport sanoat bilan qishloq xo'jaligi o'rtasidagi ishlab chiqarish aloqalarini, jahonning turli hududlari o'rtasidagi mahsulot almashishini, uning tashqi savdosini ta'minlaydi. Yangi teritoriyalarni o'zlashtirishdan oldin ularga transport yo'llari o'tkaziladi. Hozirgi zamon shaharlari rivojini ham transportiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Transportning mudofaa ahamiyati ham juda katta.

Transport iqtisodiyotga xizmat qilish bilan birga, ko'p miqdorda elektr energiya, yoqilg'i, metall, yog'och talab etadi.

Transport majmua qurug'lik (temir yo'l, avtomobil transporti), suv (dengiz va daryo), havo, elektron (elektr uzatish liniyalari) quvvur transportlariga bo'linadi.

Transportning ishi haqida uning yuk oborotiga qarab fikr yuritish mumkin. Yuk oboroti to'na/kilometr hisobida o'lchanadi. Yuk oboroti ma'lum vaqtda ma'lum masofaga tashilgan yuk miqdoridir.

Suv transporti. Suv transporti temir yo'l transportidan farq qilib, asosan, jihozlarni uchun uncha ko'p xarajat talab qilmaydigan tabiiy suv yo'llaridan foydalanadi.

Suv transportida katta hajmli yuklarni tashish tannarxi pastroq bo'ladi, lekin harakat tezligi kam, yuk tashishi mavsumiy, suv yo'lining yo'nalishi hamma vaqt ham zaruriy yo'nalishlarga to'g'ri kelmaydi. Texnikaning taraqqiy etishi bilan suv yo'llarining bunday salbiy tomonlari kamayib bormoqda. Hozirgi zamon kemalarining tezligi yuk tashuvchi

poyezdlarning o'rtacha tezligiga teng keladi. Muzyurar flot muzlaydigan suv havzalari navigatsiya davrini uzaytirmoqda, suv yo'llarining o'zi esa kerakli yo'nalishlardagi kanallar orqali birlashtirilmoqda. Dengizga chiquvchi daryo tizimlarida yoki bir dengiz havzasidan ikkinchi dengiz havzasiga daryolar orqali, ya'ni dengiz-daryo-dengiz tizimi orqali yuk tashish ko'payib bormoqda. Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo'linadi.

**Dengiz transporti.** Dengiz transportining imkoniyati nihoyatda cheksizdir. Dengizda yuk tashish ikki turga: chet mamlakatlarga yuk tashish va kabotaj (mamlakat portlari orasida) ~~yuk~~ tashishga bo'linadi. Kabotaj katta va kichik kabotajga bo'linadi. Chet mamlakatlarning qirg'oqlari bo'ylab, lekin o'z mamlakatining turti dengizlaridagi portlari o'rtasida suzish katta kabotaj, o'z mamlakati qirg'oqlari bo'ylab bir dengizda yoki yonma-yon bir necha dengizda suzish kichik kabotaj deyiladi. Dengiz transportining tashqi savdodagi ahamiyati juda katta. Savdo flotlari o'z kemalarida boshqa mamlakatlar sotib olgan yuklarni ham tashib beradi va buning evaziga ulardan kira haqi – ~~frax~~ oladi.

Dengiz portlari to'liqlardan to'silgan sohillarda: tabiiy ko'rfaiz va qo'liqlarda, daryolarning quyilish joyida, dengizdan to'g'onlar bilan to'silgan sun'iy ko'rfaizlarda, ba'zan esa dengizga kanal orqali tutashirilgan ko'llarda quriladi. Port – transport uzeldir. Jahonda yuk aylanmasi bo'yicha eng yirik portlar: Nimb (Xitoy), Shanxay (Xitoy), Singapur (Singapur), Tyanszin (Xitoy), Rotterdam (Gollandiya) hisoblanadi.

Jahon floti har xil yuklarni tashiydigan universal kemalar va maxsus kemalar: yog'och-taxta tashuvchi, konteyner tashuvchi kemalar, muzlatgichlar (muzlatgich qurilmalari o'rnatilgan kemalar), neft tashuvchi kemalar (tankerlar)dan iborat.

Dengizda yuk tashishning ko'payishi faqat flot tonajining oshishiga bog'liq bo'lmay, balki portlarning yuk o'tkazish qobiliyatiga ham bog'liqdir. Shu sababli portlarni qayta jihozlashga, chuqur suvli yangi portlar qurishga alohida e'tibor beriladi.

#### Nazorat savollari

1. Jahon xo'jaligida transportning roli qanday?
2. Transport moddiy ishlab chiqarish sohasining boshqa tarmoqlaridan nimasi bilan farq qiladi?
3. Jahonda yuk va yo'lovchi tashishda transportning qaysi turi yetakchilik qiladi?
4. Temir yo'llarning zichligi jahonning qaysi hududida yuqori?

## II-BOB. REGIONAL QISM

### Katta yettilik mamlakatlari

Katta yettilik (*Group of Seven* – G7) mamlakatlari uzoq yillar davomida ilmiy-fan, texnika va iqtisodiyotning barcha sohalarida eng yuksak cho'qqilariga erishib kelmog'da. Hozirda G7 – AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Germaniya va Yaponiya singari dunyoning yetakchi mamlakatlarini birlashtiradi. O'tgan asrning 70-yillarida jahon neft inqirozidan so'ng ushbu klubni tashkil etish harakatlari boshlab yuborilgan. Guruhning asosiy vazifasi davlatlarining muammolari, maqsad hamda muddaolari yuzasidan turti kelishuv va muzokaralar olib borishdan iborat. Tashkilot umumiy qarorlari majburiy kuchga ega emas; rasmiy xalqaro shartnomalarga asoslanmaydi.

Katta oltilik sifatida 1975-yilning 15-noyabrda o'z faoliyatini boshlagan birlashmaga Fransiya, Rambye saroyida asos solingan. Mazkur siyosiy jamiyat moliyaviy aloqalar, iqtisodiy inqirozga qarshi chora-tadbirlarni xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, xususan, Xalqaro valyuta fond, Xalqaro savdo tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotlari bilan bahamjihatlikda hal etadi.

Dastlabki katta oltilik davlatlari rahbarlari uchrashuvlaridan asosiy maqsad iqtisodiy inqiroz, shuningdek, AQSH, G'arbiy Yevropa davlatlari o'rtasida yuzga kelgan iqtisodiy-moliyaviy vaziyatlar sabab bo'lgan. Shu bois o'tgan asrning 70-yillarida birlashma yig'ilishlari faqatgina moliya vazirlari tomonidan o'tkazib kelingan.

1976-yildan "oltilik", katta "yettilik"ka aylandi – ularning safiga Kanada qabul qilindi. 1997-2014-yillarda guruhning boshqa a'zo davlatlari kabi Rossiya ham "Katta sakkizlik" safida qatnashgan, biroq Qrinning Rossiya Federatsiyasiga qayta qo'shib olinishi mazkur davlatning klubga a'zoliigi to'xtatishiga sabab bo'ldi.


Katta yettilik uchrashuvlari har yili tashkilotga a'zo mamlakatlarda navbatma-navbat o'tkazib boriladi. O'tgan 2016-yilning 26-27-may kunlari Yaponiya guruh rahbarlarining 42-sammitiga mezonlik qildi. Sammit davlatning Mfe prefekturasi Sima shahrida bo'lib o'tdi.

G7 mamlakatlari sanoati yuksak darajada rivojlanib, keyingi, ya'ni "postindustrial" bosqichga qadam qo'ygan; YAIMning 65-70 foizini xizmat ko'rsatish sohalar: turizm, ilmiy-fan, ta'lim, madaniyat va boshqalar tashkil etadi. Sanoatni yangi, yuksak texnologiyaga asoslangan "yuqori qavatlar", xususan, mashinasozlikning ko'plab tarmoqlari saqlab qolingan. Guruh Aholi jon boshiga YAIM 25-30 ming dollarni tashkil etadi.

davlatlari dunyo YAL-M va sanoat ishlab chiqarishining 55 foizi, qishloq xo'jaligi mahsulotining salkam 30 foizini beradi. Dunyodagi 500 ta eng yirik TMKlar (transmilliy korporatsiyalar)dan 350 tasi katta yetitlik davlatlariga tegishli.

### Amerika Qo'shma Shtatlari Iqtisodiy geografik o'rni, mamlakatning umumiy tavsifi

Amerika Qo'shma Shtatlari maydoni jihatdan Rossiya, Kanada va Xitoydan keyingi to'rtinchi o'rinni egallaydi. Uning maydoni 9,4 mln. km<sup>2</sup>. Ma'muriy hududiy jihatdan 50 ta shtat (Alyaska, Aleut va Gavayi orollari bilan) va Kolumbiya okrugi (Vashington shahri) tashkil topgan (1-rasm). AQSH iqtisodiy geografik o'rining xususiyati quruqlikda ikki mamlakat shimolda Kanada, janubi-g'arbda Meksika hamda dunyo okeanlari bilan tutashligi, shuningdek, materik markazida, orol va yarimorollarda joylashganligida o'z aksini topadi. Bunday geografik o'rni mamlakat iqlimining shakllanishi, ijtimoiy-iqtisodiy va geosiyosiy rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mamlakat transport geografik o'rining qulayligi jahon sivilizatsiyasining barcha bosqichlarida savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanishiga imkon yaratgan.



1-rasm. Amerika Qo'shma Shtatlarining ma'muriy-hududiy tuzilishi

Hududning asosiy quruqlik qismi (48 ta shtati) 25° va 48° shimoliy kengliklar bo'ylab o'tadi. AQSH g'arbdan sharqqa 4,5 ming kilometr ga cho'zilgan, shimoldan janubgacha bo'lgan masofa esa salkam 3 ming km. Eksklav shtat Alyaska materikning shimoli-g'arbiy qismini egallaydi. Maydonining 16 foizini tashkil etgan bu hudud Kanadaning shimoli-g'arbiy tomoni bilan chegaradosh.

Gavayi orollari (16,7 ming km<sup>2</sup>) 1959-yilga kelib alohida shtat maqomini oldi. U Tinch okeanida, qirg'oqdan 3200 km uzoqlikda 24 ta oroldan iborat arxipelagda joylashgan.

AQSHning qo'shni Kanada davlati bilan asosiy chegaralari "shaftof", ya'ni daryo va ko'llar orqali o'tadi, AQSH – Kanada siyosiy chegaralarining umumiy uzunligi 6416 km.ni qamrab oladi.

AQSH davlati ma'muriy-hududiy tuzilishiga ko'ra – federativ respublika. Uning konstitutsiyasi 1787-yilda qabul qilingan. Shuningdek, har bir shtatning konstitutsiyasi, qonun chiqaruvchi va ijrochi hokimiyat organlari, gubernatori hamda ramziy belgisi mavjud. Davlat boshlig'i – prezident. Qonun chiqaruvchi organi ikki palatadan iborat – Kongress.

**Tabiiy sharoit va resurslari.** Amerika Qo'shma Shtatlari turfa xil tabiiy sharoit va resurslarga ega. Uning 1/3 qismi tog'li hududlardir. Eng baland tog' tizmasi sharqiy Rokki va g'arbiy Kaliforniyadagi Silva Nevada va Koskada tizmalardir.<sup>15</sup>

### Tabiiy resurslari

AQSH boy tabiiy resurs zaxiralarga ega. Mamlakatda toshko'mirning iqtisodiy zaxirasi (Appalach, Markaziy va g'arbiy havzalar); asosiy neft va tabiiy gaz Meksika qo'ltig'i shelflari (Texas, Luiziana)da, Kaliforniya va Alyaskada; ko'mir – Ko'ibo'yi mintaqasi (Minnesota va Michigan); mis, molibden, uran, polimetall rudalar, oltin mamlakatning tog'li g'arbiy shtatlarida; olingugurt – Luiziana, fosforit – Floridada, kaliy tuzlarining yirik konlari – Nyu-Meksikada topilgan. AQSHda hozirda alyuminiy, qalay, olmos, xrom, marganes, nikel rudalari kamyob hisoblanadi.

O'rmon resurslari Alyaska, shimoli-g'arbiy shtat Vashingtonda, shimoli-sharq – Ko'ibo'yi mintaqasida, suv resurslari (Mississippi, Misuri, Kolumbiya, Buyuk ko'llarda), gidroenergetika shimoli-g'arbiy mintaga – Vashington va Appalachi-Tennesida, agroiklimiy, tuproq va rekreatsiya resurslari Kaliforniya va Floridada mujassamlangan. Bundan tashqari mamlakatda noan'anaviy geotermal, shamol va quyosh energiyalaridan

<sup>15</sup> Bradshaw M. World regional geography. 2000. 432 b

ham sanʼmali foydalaniladi. Suv qalqish elektr stansiyalari dastlab Kanada bilan hamkorlikda (Fandi qoʻltigʻida) shimoliy Atlantika qirgʻoqlarida qurilgan.

**Aholisi.** AQSH aholi soniga koʻra (323,9 million kishi. 2016-y.) Xitoy va Hindistondan keyingi oʻrinni egallaydi.

AQSH "immigrantlar mamlakati" sanaladi. Huddud aholisi uzoq yillar mobaynida immigrantlar hisobiga ortib borgan. Xususan, 1950-yillar oʻrtalariga qadar koʻchib keluvchilar orasida yevropaliklar (inglizlar, shotlandlar, irlandlar) koʻpchilikni tashkil etgan boʻlsa, keyingi yillarda immigratsiyada ishtirok etuvchi mamlakatlar safi kengaymoqda. Soʻnngi paytlarda Lotin Amerikasi (Puerto-Riko, Meksika, Kuba) va osiyolik (Xitoy, Yaponiya, Koreya) muhojirlarining salmogʻi koʻpaymoqda. XVIII asr boshlarida Texas, Luiziana, Nyu-Meksika, Missisipi kabi janubiy shahar plantatsiya xoʻjaliklari uchun 10 mingdan ortiq negr qullar keltirilgan boʻlsa, 1860-yillarda ularning soni 4,5 million (jami aholining 15-25 foizi)ni tashkil etdi. 1900-1914-yillar davomida AQSHga 13,5 mln. immigrant kirib kelgan.

Mamlakatda tugʻilish koʻeffitsiyenti har ming kishiga 12, oʻlim 8 promillemi tashkil etadi. Bolalar oʻlimi koʻeffitsiyenti 6 promillega teng. Aholi tarkibida 0-14 yoshdagilar – 32,65 yoshdan kattalar – 15 foiz. Oʻrtacha kutlayotgan umr uzatqiligi – erkaklarda – 76, ayollarda – 81 yoshni tashkil etadi. Ammo bugungi kunga kelib mamlakat aholisi bilan bogʻliq bir nechta ijtimoiy muammolar yuzaga kelgan. Bularga aholining "qarib" borishi va jinsiy tarkibidagi nomutanosibliklarni keltirish mumkin.

Zamonaviy AQSHda yuzdan ortiq etnik guruhlar istiqomat qiladi. AQSH xalqlari hozirda uchta asosiy guruhga ajratiladi: 1) AQSH amerikaliklari (Yevropa-kanadaliklar, afroamerikaliklar, lotin amerikaliklar va Osiyo-Tinch okeani amerikaliklari avlodlari); 2) aborigenlar (hindular, eskimolar, aleutlar, gavyiliklar); 3) immigrantlar va oraliq guruhlar (mamlakatga yaqinda kirib kelgan AQSH fuqarolari).

Umuman olganda, mamlakatda yevropa amerikaliklari – 75 foiz, afroamerikaliklar – 13 foizga yaqin, lotin amerikaliklari – 8 foiz, osiyoliklar – 4 foiz, tub joy xalqlari jami aholining 1 foizdan kamrogʻini tashkil etadi.

AQSHda aholining oʻrtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> maydonga 30 kishi toʻgʻri keladi. Biroq, aholi joylashuvi hududlar boʻylab nihoyatda notekis. Eng zich shimoli-sharqiy rayonda mamlakat aholisining qariyb yarmidan koʻprogʻi yashashini hisobga olsak, amalda aholi yashaydigan hududlarda bu koʻrsatkich 100 kishidan ortib ketadi. Togʻli joylarda zichlik koʻrsatkichi 2-11 kishiga teng boʻlsa, Alyaskada 1 kishiga 5 km<sup>2</sup> toʻgʻri

keladi. AQSHning aholi zich yashaydigan shtatlari Kaliforniya, Nyu-York, Texas, Florida va b.

Qoʻshma Shtatlar yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakat sanaladi (81 foiz aholi, 2016-y.). Hudduda 1 mingga yaqin shaharlar mavjud. Eng yirik shaharlari: Nyu-York, Los-Anjeles, Chikago, Mayami, Xyuston, Filadelfiya, Detroyt, Dallas, San-Diego va h.k. Hozirda sanoat ishlab chiqarishining shahar atrofiga koʻchayotgani bois mintaqada suburbanizatsiya jarayonlari davom etmoqda. Hatto oʻtgan asrning 80-yillarida 70 mln. amerikalik shahar atrofidagi shaxsiy uylarga koʻchib oʻtgan.

Soʻnngi paytlarda mamlakatda aholining ichki migratsiya jarayonlari kuchayib bormoqda. Qizigʻi shundaki, hududning shimoliy shtatlari aholisining katta qismi janubiy, janubi-sharqiy va janubi-gʻarbiy quyoshli mintaqalar – Kaliforniya, Florida, Texas, Nevada, Arizona, Koloradoga koʻchib oʻtmoqda. Bu mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi hududiy nomutanosibliklarni yumshatish maqsadida olib borilayotgan mintaqaviy siyosat bilan ham bevosita aloqador. Ayni holat hudud shimolida joylashgan anʼanaviy eski sanoat rayonlari janub va gʻarbiy shtatlarga siljishida yaqqol namoyon boʻlmoqda.<sup>16</sup>

AQSHda yirik urbanizatsiya rayonlari – megalopolislar keng tarqalgan. Ulardan yiriklari Atlantika qirgʻoqlari boʻylab Bostondan Vashingtongacha – "Bosvash", Buyuk koʻllar rayonida Miluokidan Pitsburggacha "Chipits", Kaliforniyada San-Fransiskodan San-Diegogacha "San-San" urbanistik areallarini ajratish mumkin.

Soʻnngi yillarda mamlakatning gʻarb va janubiy hududlari, xususan, Kaliforniya, Arizona, Texas, Florida shtatlarida shahar aglomeratsiyalari shiddat bilan rivojlanib bormoqda.

Qishloq joylarda rubanizatsiya, yaʼni shahar turmush tarzi keng tarqalmogʻda.

### Xoʻjaligi

Amerika Qoʻshma Shtatlari jahondagi eng yirik iqtisodiy, imniy-texnika va harbiy salohiyatga ega mamlakatlardan biri. Bu yerda dunyoning barcha mintaqalari immigrantlar avlodlari toʻplangan. Ammo mamlakat Yevropaning siyosiy, madaniy va tarixiy anʼanalari asosida rivojlangan.

AQSH – dunyoning yirik sanoat va qishloq xoʻjalik mahsulotlari ishlab chiqaruvchi mamlakati. XIX asrning oxirida sanoat mahsulotlari

<sup>16</sup> Американо-К. Икономияни реформируем... - Т.: ТИИУ, 2003. - 148 б.

hajmi bo'yicha Buyuk Britaniyadan o'tib, dunyoda birinchi o'rinni egallab oldi. Mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmi 14,72 trln. dollarni tashkil etadi. Elektroenergiya, neft, gaz, ko'mir qazib olish, qora va rangli metallar eritish, avtomobil, samolyot va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda jahonning birinchi uchlik davlatlari tarkibiga kiradi.

Aviakosmik-raketa, atom, elektronika (super EHMlar), elektrotexnika, biotexnologiya, neft kimyosi, avtomobilsozlik sanoati mahsulotlari mamlakatning jahon xo'jaligidagi mavqeiini belgilaydi. Bu tarmoqlar nafaqat AQSHning iqtisodiy qudratini, balki uning harbiy va siyosiy salohiyatini ham ko'rsatib turadi.

Qo'shma Shtatlar sanoatining yuksakligi, ishlab chiqarish va hududiy konsentratsiyasi bilan ajralib turadi. Asr boshida mamlakat iqtisodiyoti rivojlanish jihatidan yangi texnologik bosqichga o'tdi. Bu bosqichda mikroprotsessorlar, mikroelektronika sohasining yangi avlodi *High-Tech* (inglizcha "high technology" – yuqori texnologiya) texnika hamda texnologiyalarini joriy etish orqali tabaqalashgan va mayda seriyali mahsulot ishlab chiqarishni boshladi.

AQSHda sanoat korxonalari notekis joylashgan. Sanoatning eng rivojlangan regionlari Markaziy shimol (ayniqsa, Illinoys, Ogayo, Michigan), o'rta Atlantika (Nyuyork, Pensilvaniya, Nyu-Djersi), Tinch okeani sohil bo'yi (Kaliforniya) va janubiy Atlantika regionini o'z ichiga oladi. Har bir rayon ma'lum bir turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Xususan, Janubiy Atlantika to'qimachilik, kimyo va tamaki mahsulotlariga ixtisoslashgan holda, umumiy ishlab chiqarishning 10 foizini qamrab oladi. G'arbiy-Janubiy-Markaziy, Sharqiy-Janubiy-Markaziy va G'arbiy-Shimoliy-Markaziy regionlar, Nyu-Ingland va tog'li shtatlar ham mazkur ishlab chiqarish zanjirida faol ishtirok etadi.

Amerikadagi yirik transmilliy korporatsiyalar tarkibiga "General Motors", "Eksxon Mobil", "Ford motor", "Maykrosoft", "Jeneral Elektrik", "Playzer", "IBM" va boshqalarni kiritish mumkin.

**Qishloq xo'jaligi.** Qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning atigi 1 foiziga mos kelsa-da mamlakatda muhim makroiqtisodiy tarmoqlardan hisoblanadi. 1980-2010-yillarda yalpi ichki mahsulotning tarmoq tarkibida qishloq xo'jaligining ulushi 3% dan 1% gacha pasaydi. Shunday bo'lsa-da, mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi va eksport qiluvchilar orasida hamon birinchi o'ringni saqlab qolmoqda. Qishloq xo'jaligida bandlar ulushi iqtisodiy faol aholining atigi 1% ni tashkil etadi.

Mamlakat qishloq xo'jaligida chorvachilikning ulushi birmuncha yuqori (32 foiz). Dehqonchilikda donli ekinlardan bug'doy, makkajo'xori, paxta, soya ko'p ekiladi. Mintaga qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini shartli

ravishda bir nechta rayonlarga ajratish mumkin: bug'doy, makkajo'xori, paxta, sholi va shakarqamish mintaqalari, meva va sabzavotchilik, sut chorvachiligi, yaylov go'sht chorvachiligi, bug'uchilik va. h.k.

"Bug'doy mintaqasi" g'arbning (Buyuk tekisliklar – Ayova) dastl rayonida, Illinoys va Indiana makkajo'xori mintaqasi; Aydxoda kartoshka eng ko'p yetishtiriladi. Mamlakat makkajo'xori yalpi hosili bo'yicha jahonda birinchi, bug'doy bo'yicha Xitoy va Hindistonga yon bosadi.

Bir paytlar "paxtachilik mintaqasi" hisoblangan janubiy shtatlar va Missisippi daryosi havzasida hozirda yangi dehqonchilik-chorvachilik rayonlari tashkil etilgan. Bu yerda paxtachilik bilan bir qatorda, donchilik va chorvachilik xo'jaliklari, sabzavotchilik va bog'dorchilik rivojlanmoqda. Subtropik mintaqalari sitrus mevalar yetkazib beradi.

AQSH jahon bozorida bug'doy va makkajo'xorining asosiy eksportchisi sanaladi; uning kuchli raqiblari sifatida Kanada, Argentina, Avstraliya va Fransiyani qayd etish mumkin.

Chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan – go'sht va sut chorvachiligi, cho'chqachilik va parrandachilik rivojlangan. Chorvachilik fermalari alohida ixtisoslashgan korxonalarga ega.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda mintaqalararo aloqalar yo'lga qo'yilgan. Masalan yem-xashak o'rta g'arbdan janubi-sharqdagi parrandachilik va janubdagi chorvachilik fermalariga yetkaziladi. Buyuk tekisliklarda yetishtiriladigan pichan – go'sht, sut fermalari va boshqa rayonlarni ta'minlab turadi. Makkajo'xori-soya mintaqasi chorvachilik-dehqonchilikka ixtisoslashgan holda g'arbning yaylov qoramolchilik rayoni bilan aloqalarni saqlab qolgan.

AQSHning barcha hududlarida (Alyaskadan tashqari) transport infratuzilmasi taraqqiy etgan. AQSH transport to'ri jahon transport tizimining 1/5 qismiga mos keladi. Transport turlarining rivojlanganlik darajasi bo'yicha dunyoning istalgan mamlakatidan ustun turadi. AQSH transport turlarining rivojlanishida maydonning kattaligi, aholi joylashuvining tarixiy xususiyatlari, hududlarning o'zlashtirilish darajasi, suburbanizatsiya jarayonlari, sanoat va qishloq xo'jaligining joylashuv xususiyatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirda yuk tashish hajmi bo'yicha temir yo'l, avtomobil, suv, quvur transportlarining ahamiyati deyari bir xil darajada. Shu bilan birga avtomobil, quvur va havo transportlarining ulushi ortib bormoqda.

Temir yo'l tizimi transkontinental magistralar asosida tashkil etilgan bo'lib, Atlantika okeanidan to' Tinch okeani g'irg'og'lariga qadar cho'zilgan. Transport tarmoqlari hududning geoiqtisodiy yaxlitligini ta'minlaydi, uning konfiguratsiyasi bo'yab kenglik va uzunlik yo'nalishlarini qamrab

oladi. Shimoli-sharqiy transport "koridor" uzunligi – 735 km, ga teng Boston – Nyu-York – Vashington va Chikago – Yangi-Orlean, Chikago – Atlanta mamlakatining asosiy transport karkaslari hisoblanadi. 1870-1880-yillarda transkontinental temir yo'llari o'tkazilishi natijasida aholi manziligohlari soni ancha ko'paydi<sup>17</sup>.

Meridional yo'nalishdagi Mississippi suv yo'li (Amerika-Volgasi) 31 shiati birlashtiradi va Appalachidan to baland qoyali tog'larga cha davom etadi.

AQSHdagi eng yirik transport tuguni – Chikago. Nyu-York, Atlanta, Detroyt shaharlari ham muhim transport ahamiyatiga ega. Chikagoda o'nlab temir va avtomobil yo'llari o'zaro tutashadi va yuklar bir yo'ldan ikkinchisiga olib o'tiladi. Mamlakada keyingi yillarda konteynerlashirish salmog'i o'rtib bormoqda. AQSH port sanoat majmualarining eng yiriklari Atlantika bo'yining shimoliy qismi va Meksika qo'tig'ida joylashgan.

AQSH avtomobil transportining tez sur'atlarda rivojlanishiga urbanizatsiya darajasi va qishloq aholi manzilgohlarining joylashuvi sharoit yaratadi. Jami transportda tashiladigan yo'lovchilarning mazkur transportdagi ulushi 90, yuk tashishda 20 foizga teng. Hozirda mamlakat avtomobil-lashirish darajasi har ming kishiga o'rta 700 ta, shaharlarda 1000 kishiga 1000 ta to'g'ri kelgan. Hatto o'tgan asrning 90-yillarida AQSHda 200 mln. dan ortiq avtotransport vositalari ro'yatdan o'tgan. Bu esa, o'z navbatida, yirik shaharlarda harakatlanish tezligining pasayishi, atrof muhiting zararli gazlar va "shovqin" ta'sirida ifloslanishiga sabab bo'lmog'da.

AQSHning yirik tashuvchi yirik aeroportlari: Memfis, Ankorij, Los-Anjeles, Mayami, Nyu-York, Luisvill, Chikago; yo'lovchi tashishda: Atlanta, Chikago, Los-Anjeles, Dallas (Fort-Lert), Denver, Las-Vegas, Finiks, Nyu-York.

Qo'shma Shtatlarda nomoddiy va xizmat ko'rsatish sohasi yuqori darajada taraqqiy etgan; YAIMdagi ulushi mos ravishda 78 foizga teng. Mamlakatda ilmiy-texnika yo'nalishi tarmoqlarida bandlar ulushi 3 mln. dan oshib ketdi. Ilmiy-texnika tajriba konstruktorlik ishlari (ITTK)ga sarflandigan moliyaviy mablag'lar bo'yicha G'arbiy Yevropa va Yaponiyani ortda qoldirdi (YAIMning salkam 3 foizi). AQSH Silikon vodiysi (Silikon Velli) mamlakat elektronika sanoatining yarmini ta'minlaydi.

## AQSH iqtisodiy rayonlari

XX asr o'ralariga kelib AQSH ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra u bir-biridan farq qiluvchi 4 iqtisodiy rayonga ajratildi. Bunda janub va g'arb chegaralari o'zgarishsiz qoldi; shimol ikki qismga: shimoli-sharq, o'rtta-g'arbga ajratildi.

Maydoniga ko'ra eng kichik Shimoli-Sharq iqtisodiy rayoni o'z tarkibiga Pensilvaniya, Delaver, Nyu-Jersi, Konnektikut, Nyu-York, Vermont, Nyu-Gempshir, Massachusets, Rod-Aylend shtatlarini oladi. Shimoli-sharqiy iqtisodiy rayon amerikaliklar uchun qudratli sanoat markazlari, gigant shaharlar, immigranlar mintaqasi sanaladi. Bu yerda AQSHning iqtisodiy poytaxti – Nyu-York va siyosiy poytaxti – Vashington, yirik Atlantikabo'yi (Bos-Vash) megalopolisi qirg'oq bo'ylab cho'zilgan.

O'rtta-g'arb mintaqasi hududi tobora g'arb tomonga surilib bormoqda. Ko'i bo'yi megapolisi – Michigan, Viskonsin, Indiana, Ogayo, Illinoy, Ayova, Minnesota, Missuri va boshqa shtatlarni qamrab oladi. Yoqilg'i xom ashyoning katta zaxiralari va rayonning qulay iqtisodiy geografik o'rni asosida Chikago, Detroyt, Klivlend kabi yirik sanoat markazlari shakllangan.

Mazkur hudud mamlakatning asosiy yoqilg'i va xom ashyo bazasi. Uning qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvini makkajo'xori va g'allaa mintaqalari, soya yetishtirish, sut chorvachiligi, yirik shoxli qoramolchilik, cho'chqachilik belgilab beradi.

Janub-afroamerikaliklar eng ko'p to'plangan, etnik tarkibi murakkab, quldorlikka asoslangan plantatsiya xo'jaligi mintaqasi hisoblanadi. Rayon ixtisoslashuvida qazib olish sanoati va ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi (paxtachilik, sholi va shakarqamish yetishtirish va b.) asosiy rol o'ynaydi. Janub hissasiga gazlama va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishning 9/10 qismi mos keladi.

Keng imkoniyatlar mintaqasi – g'arb AQSHning taraqqiy etgan rayonlaridan sanaladi. Kaliforniya, Vashington, Aydaxo, Arizona, Kolorado shtatlarida kino, harbiy sanoat majmuasi, aviatsiya, kosmos, elektronika sanoati va ITTKlari yuksak darajada rivojlangan.

## Tashqi iqtisodiy aloqalari

AQSH tashqi iqtisodiy aloqalarida yon qo'shnilari – Kanada va Meksika, shuningdek, Yaponiya muhim rol o'ynaydi. Eksportning geografik tarkibida Kanada – 19 foiz, Meksika – 16, Xitoy – 8, Yaponiya –

<sup>17</sup> Bradshaw M. World regional geography. 2000, 433 b

4 foizga teng. Bu to'rt davlat jami eksportining yaqin 50 foizini beradi. Qolgan 20 foiz eksporti Yevropa Ittifoqi davlatlariga to'g'ri keladi. Keyingi yillarda eksportda Xitoyning ulushi ortib bormoqda. Umuman olganda, mamlakat tashqi savdo aylanmasining 60 foizi rivojlangan mamlakatlarga, 39 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi.

AQSH tashqi iqtisodiy aloqalarida savdodan ko'ra chetga kapital chiqarish muhim rol o'ynaydi. Hozirda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kapitalni rivojlangan (kamroq ulushda) va rivojlanayotgan mamlakatlarga sarflaydi. AQSHning iqtisodiy raqobati nafaqat jahon bozorida, balki uning ichki hududlarida ham davom etayotganini alohida ta'kidlash joiz.

### Nazorat savollari

1. AQSH iqtisodiy rayonlari xo'jaligining ixtisoslashuvi va asosiy tufavullari nimada?
2. Shimol sanoat rayonining shakllanishida qanday tarixiy xususiyatlar muhim rol o'ynaydi?
3. AQSH eksporti va importining tovar va geografik tarkibi qanday?
4. AQSH xalqaro mehnat taqsimoti va jahon siyosiy maydonida qanday rol o'ynaydi?

### Kanada

Kanada – Shimoliy Amerikadagi iqtisodiy jihatdan rivojlangan "Katta yetitlik" mamlakatlaridan biri.

Hududi Shimoliy Amerika materigining shimoliy qismi va unga yondosh orollarda joylashgan. Mamlakat qirg'oqlarini – Shimoliy Muz okeani, sharqda Atlantika, g'arbda Tinch okeanlari yuvib turadi. Maydoniga ko'ra Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turuvchi mamlakat Kanada janub va shimoli-g'arbdan Amerika, dengiz chegaralari bo'ylab Rossiya (Shimoliy Muz okeani) va Daniya (Grenlandiya) bilan chegaradosh.

Ma'muriy-hududiy jihatdan Kanada federal hukumatini 10 ta provinsiya (Nyufaundlend, Shaxzoda Eduard oroli, Yangi Shotlandiya, Nyu-Bransvik, Kvebek, Ontario, Manitoba, Saskatchewan, Alberta, Britaniya Kolumbiyasi) va 3 ta hudud: Shimoli-g'arbiy, Nunavut va Yukon birlashtirib turadi.<sup>18</sup>

<sup>18</sup> Bradshuv M. World regional geography. 2000. 446 b

Yevropaliklar Kanadaga kirib kelgunga qadar bu yerda mahalliy aholi hindular va eskimolar istiqomat qilgan. XV asrda yevropalik (ingliz va fransuz) dengizchilari Jon Kabot va Jak Kartelarning hudud qirg'oqlariga yetib kelgan; XV asr boshlari va XVI asrda Kanada hududi uchun kurash boshlanib kelgan. Dastlab 1608-yilda fransuzlar juda katta Yangi Fransiya hududi Por-Ruayal va Kvebekka asos solgan. Kvebek o'sha davrda Yangi Fransiyaning poytaxti sanalgan. XVII asrning 20-yillarida Kanada hududida birinchi Angliya musulmakasi – Yangi Shotlandiya vujudga keldi. 1756-1763-yillarda ingliz-fransuzlar o'rtasidagi yetti yillik urush natijasida Buyuk Britaniya Yangi Fransiyaning egallab oldi. Keyinchalik uning hududi ikkiga Quyi va Yuqori Kanadaga bo'linib kelgan. 1841-yilda ular yagona Kanada koloniyasiga birlashdi.

Kanada – Buyuk Britaniya Hamdo'stligi tarkibidagi davlat. Mamlakat boshlig'i – Buyuk Britaniya qirolichasi. Davlatni qirolicha nomidan general-gubernator boshqaradi. Shuningdek, har bir provinsiyaning leyenant-gubernator idora qiladi. Yuqori qonun chiqaruvchi organi – ikki palatali parlament.

### Tabiiy sharoiti va resurslari

Tabiiy sharoitiga ko'ra Kanada va Rossiya qator o'xshashliklarga ega. Hudud shimolida iqlim noqulayligi bois kam o'zlashtirilgan va unuman aholi yashamaydigan joylar anclagina.

Relyef. Mamlakat xilma-xil relyef shakllariga ega. Hududning o'rta qismi tekislik, g'arbiy chekkasi Kordilyera tog' tizmalari (baland nuqtasi Logan, 6045 m.), janubi-sharqida o'rta balandlikdagi Appalachi tog'lari joylashgan. Kanadaning katta qismi Kanada qalqoni deb ataluvchi qoyali tog'lardan iborat.<sup>19</sup> Gudzon qo'ltig'ining atrofida pasttekisliklar Lavrentiy qirralari, Markaziy va Buyuk tekisliklar joylashgan.

Tabiiy resurslari. Kanada tabiiy resurslarga nihoyatda boy. Unda uran, temir rudasi, rangli va qimmatbaho metallar, nikel, mis, qo'rg'oshin, rux, oltin, kumush, ko'mir, neft va tabiiy gazning yirik konlari mavjud. Lavrentiy yassi tog'larida metall rudalarining yirik zaxiralari va gidroresurslar, ichki tekisliklarda kimyo sanoati xom ashyolari – ko'mir, neft, tabiiy gaz va kaliy tuzlari, Appalachi rayonida rangli va qimmatbaho metallar, xromit, asbest, gidroresurslar, Baffin yerida polimmetall rudalarining katta zaxiralari mavjud. Shimoliy hududlar resurslarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

<sup>19</sup> o'sha berda

Kanada hududining katta qismi (310 mln. ga) o'rmon resurslari bilan qoplangan. O'rmon mintaqasi g'arbdan sharqqa tomon Tinch okeanidan to Atlantika qirg'oqlarigacha kenglik bo'ylab 2100 km. masofaga cho'zilgan. Yog'och zaxirasi bo'yicha, Rossiya va Braziliyadan keyingi o'rinni egallaydi. Shimol mintaqasidagi o'rmonlarning deyarli 1/3 qismi ushbu mamlakatga to'g'ri keladi.

Mamlakat hududining asosiy qismi muzliklar bilan qoplangan. Suv resurslari Buyuk Kanada ko'li - Katta ayiq, Atabaska, Vinnipeg, Makkenzi va Saskatchewan daryolari va b.

Kanada-AQSH chegaralari Buyuk ko'llar - Yuqori, Eri, Ontario, Guron orqali o'tadi. Hududning shimoliy va ichki tekisliklaridan tashqari barcha hududlari gidroresurslar bilan yaxshi ta'minlangan. Transport va energetik ahamiyatiga ko'ra Buyuk ko'llar tizimi va Lavrentiy daryosi muhim.

Aholisi. Mamlakat aholisining zamonaviy tarkibi immigratsiya asosida shakllangan. Immigrantlar oqimida, asosan, Yevropa va dunyoning turli mintaqalari faol ishtirok etgan. Mamlakat tub joy aholisi-hindular va eskimoslar (inuitlar). Kanada - ko'p millatli davlat; unda ikki millat, ingliz-kanadaliklar va fransuz-kanadaliklar hamda 80 dan ortiq xalqlar yashaydi.

Aholisining 30 foizdan ortig'i ingliz-kanadaliklar, 15 foizi fransuz-kanadaliklar, tub joy aholisi - hindular (4%) va eskimos-inuitlar (49 ming)dan iborat. Kanadaliklar hozirda ikki davlat tilida (ingliz 59, fransuz - 22 foiz) so'zlashadi.

Aholi joylashuvida ham o'ziga xos tarixiy xususiyatlar mavjud. Fransuz-kanadaliklar, asosan, Kvebek va Nyu-Bransvikda, qolgan provinsiyalarda ingliz kanadaliklar salmog'i ustunlik qiladi. Hindular alohida rezervatsiya qilingan janubda, eskimoslar shimoli-g'arbiy hududlarda istiqomat qiladi. Milliy etnik muammolar (fransuz-kanadaliklar - Kvebek provinsiyasi, tub joy aholisi va immigratsiya) mamlakat uchun dolzarbligicha qolmoqda.

Kanadada 36,2 mln. aholi yashaydi (2016-y.). Aholining o'sish sur'ati keyingi yillarda ancha pasayib bormoqda. O'rtacha tug'ilish koefitsiyenti - 11, o'lim koefitsiyenti 8 promillega teng. Bolalar o'limi koefitsiyenti - 4,4/1000 ni tashkil etadi. Aholi tarkibida 0-14 yoshdagilar - 40 foiz, 65 yoshdan kattalar - 16 foizga teng. O'rtacha kutilayotgan umr ko'rish yoshi erkaklarda - 79, ayollarda - 84 yosh).

Kanadaliklarning katta qismi katolik (43%) va protestantlik (23%) dinlariga e'tiqod qiladi.

Aholi zichligi geografik o'rni va noqulay iqlim sharoiti sababli ancha

past. Mamlakat aholisining 90 foizdan ortig'i AQSH (chegaradan 160 km. masofagacha) chegarasida mujassamlangan. Shimolda 1 kishiga 100-200 km<sup>2</sup> joy to'g'ri keladi.

Shaharlarda jami aholining deyarli 80 foizi istiqomat qiladi. Yirik shaharlari - Monreal, Toronto, Vankuver, Kvebek va b.

### Xo'jaligi

Iqtisodiy geografik tipologiyaga ko'ra Kanada "ko'chirilgan kapitalizm mamlakati; uning iqtisodiyoti Yevropa va keyinchalik Amerika kapitali hisobiga rivojlandi.

2015-yil mamlakat YAIM 1,5 trln. dollardan oshib ketdi (Dunyoda 14-o'rinda). Sanoat tarmoqlari geografik o'rni, tabiiy-iqlimiy xususiyatlari, hududlarning o'zlashtirilishi, aholi joylashuvi va rivojlangan AQSH bilan qo'shimchiligi kabi omillar ta'sirida shakllangan.

Mamlakatda neft va tabiiy gaz, o'rmon va sellyuloza-qog'oz, rangli metallurgiya, elektrenergetika, avtomobilsozlik yuqori darajada rivojlangan.

Kanada jahon iqtisodiyotida neft, tabiiy gaz, nikel, uran, rux, kumush va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish (donli ekinlar va o'rmon) va eksport qilishda yetakchilik qiladi.

Sanoati. Zamonaviy Kanada dunyoning yirik tog'-kon sanoati mintaqasi hisoblanadi. Hududda og'ir sanoatning barcha tarmoqlari, shuningdek 26 turdagi metallar, 24 turda nonmetall xom ashyo va yoqilg'i resurslarining barchasi qazib olinadi. Tog'-kon sanoati xom ashyosining asosiy qismi jahon bozoriga ya'ni 60 foiz - AQSHga, 25 foizi G'arbiy Yevropa mamlakatlari va 10 foizi Yaponiyaga yo'naltirgan. Mazkur tarmoqning geografik tarqalish xususiyatlari asosan shimol va janub hududlariga mos keladi.

O'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati xalqaro ixtisoslashgan tarmog'i hisoblanadi. O'rmon xo'jaligining asosiy rayonida (Britaniya Kolumbiyasi) issiq va nam iqlim sharoitida yog'ochga ishlov berish tez amalga oshiriladi.

Qishloq xo'jaligi. Kanada qishloq xo'jaligida iqtisodiy faol aholining 2% i band (YAIM 2%). Mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahondagi bosh eksportchisi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi va chorvachilik yuqori darajada mexanizatsiyalashgan va ixtisoslashgan. Mamlakatning bosh qishloq xo'jalik rayonlari dasht provinsiyalari (Saskachevan, Alberta, Manioba) va markaziy rayonlar (Ontario, Kvebek). Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda

g'arbnig ulushi ortib bormoqda. Dasht mintaqasi donchilik, yaylov go'shti chorvachiligi, go'sht-jun qo'ychiligi ixtisoslashgan. Kanada donli ekinlar yalpi hosili bo'yicha jahonda beshinchi o'rinni egallaydi.

Ko'iboy mintaqasi sut, go'sht yetishtirish, shuningdek, cho'chqachilik, parrandachilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan.

Shaxzoda Eduard oroli dunyoda eng ko'p kartoshka va urug'lik kartoshka yetkazib beruvchi mintaqasi sanaladi. Yangi Shotlandiya va Britaniya Kolumbiyasida mevalchilik, Atlantika qirg'oqbo'yi provinsiylarida baliqchilik rivojlangan.

**Transport.** Hududning kattaligi, mintaqalarning ixtisoslashuvi, eksport ulushining yuqoriligi mamlakatda barcha transport turlari rivojlantirishni talab etadi. Kanadaning asosiy qismida, xususan, shimolida magistral yo'llar deyarli mayjud emas; janubi-g'arbda eng zich transport to'ri shakllangan. Yuk tashishda temir yo'l, yo'lovchi tashishda avtomobil transporti yetakchi. Transport to'ri aholi va sanoat yuqori darajada mujassamlangan AQSH chegaralariga parallel holda yo'natirilgan. Temir yo'llar uzunligi bo'yicha (46 ming km.) AQSH, Rossiya, Xitoy, Hindiston dan keyingi o'rinni egallaydi. Hozirda o'zlashtirilayotgan shimol rayonlarida bir nechta meridional yo'nalishtarda Gudzon qo'tig'ining janubiy qirg'oqlaridan Chertchillgacha, Katta Nevolnichego ko'lidan Payn-Poyngacha temir yo'llar tashkil etilmogda. Chertchill porti – Kanadaning Shimoliy muz okeaniga olib chiquvchi yagona port. U orqali janubga bug'doy va nikel olib o'tiladi. Avtomobil yo'llarining uzunligi 1 mln. km. ga yaqin; AQSH, Hindiston, Xitoy, va Braziliyadan keyingi 6-o'rinda.

Quvur transporti mamlakat ichki yuk tashishda 3-o'rinni egallaydi. Neft va gaz quvurlari qazib olinayotgan hududlardan Alberta va Manitobaga, mamlakatning sharqiy, g'arbiy hududlari va AQSHga cho'zilgan.

Havo yo'llarining uzunligi bo'yicha jahonda birinchi o'rinda. Yirik xalqaro aeroporti Monrealda joylashgan.

### Ichki tafovutlari

Kanada iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ko'ra 4 ta yirik iqtisodiy rayon va shimol hududiga ajratiladi: Markaziy, Dasht, Tinch okeani bo'yi (Uzoq g'arb) va Atlantikabo'yi.

Markaziy rayon (*Ontario* va *Kvebek*) mamlakatning janubi-sharqidagi yaxshi o'zlashtirilgan va sanoati rivojlangan mintaqasi. Dasht (Manitoba, Saskatchewan, Alberta) rayoni, mamlakatning yoqilg'i va qishloq xo'jaligi rayoni. Tinch okeani bo'yi iqtisodiy rayonida (Britaniya Kolumbiyasi) rangli metallurgiya va o'rmon sanoati; Atlantikabo'yi

(Nyufaundlend, Shaxzoda Eduard oroli, Yangi Shotlandiya, Nyu-Bransvik) sust rivojlanayotgan (*depressiv*) – eski sanoat rayoni sanaladi.

Shimol (Shimoli-g'arbiy, Nunavut va Yukon) – mamlakat hududining 3/4 qismini band etgan, yangi o'zlashtirilayotgan, gidroenergetika, tog'-kon va rangli metallurgiya sanoati rivojlanayotgan mintaqasi.

### Tashqi iqtisodiy aloqalari

Kanadaning yirik savdo hamkori – AQSH. Bu ikki davlat tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanishda birgalikda mehnat taqsimotini shakllantirmoqda. Eksportining geografik tarkibida AQSHning ulushi 75 foiz, shuningdek, Xitoy, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Koreya Respublikasi, Germaniya davlatlari ham asosiy savdo sheriklari sanaladi. Import geografiyasida: AQSH (50% dan yuqori), Xitoy (10%), Meksika, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va b.

### Nazorat savollari

1. Kanada geografik joylashuvi xususiyatlariga tavsif bering. Aholi va xo'jaligining joylashuviga qanday omillar ta'sir etadi?
2. Tabiiy resurs salohiyati va ekologik muammolarini tavsiflang.
3. Kanadaning qaysi provinsiyalari qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan?
4. Kanada aholisining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik muammolarini yoriting.
5. AQSH bilan qo'shimchilik Kanada sanoat tarmoqlarining joylashuviga qanday ta'sir ko'rsatadi?

### Yevropa davlatlari

#### Umumiy geografik tavsifi

Ma'lumki, Yevropa – dunyoning olti qit'alaridan biri bo'lib, tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy va tarixiy xususiyatlari bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Uning hududi o'z tarkibiga 45 mamlakatni birlashtirib, ularning har biri maydonlarining katta-kichikligi, tabiiy shart-sharoitlari va foydali qazilma boyliklari, aholisi, davlat tuzilishi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan o'zaro farqlanadi. Ushbu mamlakatlarning ko'pchiligi davlat tuzilishiga ko'ra respublikalar bo'lib, monarxiya mamlakatlari soni bo'yicha ham yer yuzida alohida ajralib turadi. Mamlakatlarning 14 tasi

orol, 19 tasi quruqlikning ichki qismida joylashgan, 32 tasi dengiz, okeanlarga chiqish imkoniyatiga ega davlatlar hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Yevropa qit'asi insoniyat tarixida, bugungi jahon xo'jaligi tizimida, qolaversa, xalqaro siyosiy voqeilikda ham alohida ahamiyat kasb etadi. U yer sharining aholisi eng zich joylashgan hududlardan biridir. 2016-yil ma'lumotlariga ko'ra, qit'a aholisi 740 mln. kishini tashkil qilgan holda, Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi davlatlarda bu raqam 506 mln. tashkil etadi.

Yevropa, asosan, o'rta kengliklarda joylashgan bo'lib, uning faqat shimoliy chekka qismi Subarktika va Arktika mintaqalariga, janubiy qismi esa, subtropik mintaqaga kiradi. U Yevrosiyo materigining taxminan shu kengliklarida joylashgan boshqa yirik mintaqalaridan farq qilib, katta qismi materikning g'arbiy okean sohili hududlarida joylashgan.

Yevropani shimol, g'arb, janubda Atlantika va Shimoliy Muz okeanlari dengizlari o'rab turadi. Sharqda Yevropa bilan Osiyo o'rtasidagi chegarani shartli ravishda Uralning sharqiy tog' yonbag'irlari, Emba daryosi, Kaspiy dengizi, Kuma-Manich botig'i orqali o'tkazish mumkin.

Aytilish o'rinishi, Yevropaning qirg'oq chizig'i juda egribugri bo'lib, ichki dengizlar, qo'lliqlar, yarim orollar ko'pligi bilan boshqa qit'alardan ajralib turadi. Qirg'oq chizig'ining umumiy uzunligi taxminan 38000 km. ni tashkil qiladi.

BMT tasnifi bo'yicha, Yevropa hududi quyidagi mintaqalarga ajratilgan:

1. G'arbiy Yevropa; 2. Shimoliy Yevropa; 3. Sharqiy Yevropa; 4. Janubiy Yevropa.

1. G'arbiy Yevropaning umumiy maydoni – 3710,3 ming km<sup>2</sup>, aholisi – 193 mln., zichlik 1 km<sup>2</sup> haydaladigan yerlarga nisbatan – 571 kishi (2016-y.). G'arbiy Yevropa jahondagi iqtisodiy salohiyati jihatidan rivojlangan mintaqalardan biri bo'lib, ushbu hududda Germaniya, Fransiya singari "Katta yettilik" davlatlari, shuningdek, BMT tasnifi bo'yicha, hududda Avstriya, Belgiya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Monako, Gollandiya, Shveysariya singari davlatlar joylashgan. Mintaqaning joylashgan o'rni juda qulay.

Mazkur hududda joylashgan davlatlarni foydali qazilmalarga juda boy deb bo'lmaydi. Mintaqa tarkibida joylashgan Gollandiya Shimoliy dengizdan topilgan neft va tabiiy gaz hazzalari bilan ajralib tursa, Fransiya energetika xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojini uran rudasi hisobiga qoplaydi. Lyuksemburg temir rudasi, shuningdek, qalay, polimetall rudalari bilan, Germaniya ko'mir zaxiralari bilan ajralib turadi.

Mintaqaning Avstriya, Fransiya singari davlatlari suv resurslari bilan yetarlicha ta'minlangan, biroq Lyuksemburg, Belgiya, Germaniya kabi davlatlar bu borada ancha orqada hisoblanadi.

Yevropa davlatlari hissasiga to'g'ri kelvchi 20-25 foiz gidroresurslar uch mamlakat: Shveysariya, Avstriya, Fransiya hissasiga to'g'ri keladi. Mintaqada o'rmon rusurslari qishloq xo'jaligi va sanoatning rivojlanib borishi bilan qisqarib kegan. Faqatgina hududdagi Avstriya, Gollandiya, Shveysariya kabi davlatlarda ular qisman saqlangan.

G'arbiy Yevropa hududi tabiiy-rekreatsiya resurslariga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, Shveysariya, Avstriya hamda Fransiya bu borada yetakchilik qiladi.

2016-yil ma'lumotlariga ko'ra, mintaqa aholisi etnik jihatdan nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Aholining asosiy qismi romangerman tillari oilasiga mansub bo'lib, mazkur hududdagi davlatlarning ko'pchilik qismi bir millatli sanaladi. Mintaqa yer sharining yuqori darajada urbanizatsiyalashgan hududlaridan biri bo'lib, urbanizatsiya ko'rsatkichi 70-80%, ayrim hududlarida undan ham yuqori ekanligi ko'zga tashlanadi.

Sanoat, asosan, Germaniya Federativ Respublikasi hamda Fransiya davlatlari to'plangan. Jahondagi eng yirik sanoat-shahar aglomeratsiyalari Germaniyaning Reyn vodiysida, Parij va Fransiyaning shimoliy qismida yaxshi rivojlangan. Shuningdek, mintaqa joylashgan Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg singari davlatlar nozik texnologiyalar, ayrim murakkab sanoat tarmoqlarining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Mintaqa tarkibiga kiruvchi davlatlar yuksak darajada rivojlangan qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan ham ajralib turadi. Chunonchi, ziroatchilik va chorvachilik ayniqsa, Fransiya, Gollandiya hamda Germaniya Federativ Respublikasida yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ushbu davlatlar yuqori sifatli go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni chetga eksport qilishda ham qit'ada yetakchilik qiladi.

G'arbiy Yevropa davlatlari xo'jaligiga umumiy tavsif berish maqsadida Germaniya Federativ Respublikasi hamda Fransiya uchun qurilgan to'xtalib o'tishni lozim topdik.

### Germaniya

Germaniya rasmiy nomi – Germaniya Federativ Respublikasi. Poytaxti – Berlin. Hududi – 357041 km<sup>2</sup>. Aholisi – 82,6 mln. kishi (2016-y.). Davlat tili – nemis tili. Dini – xristianlik. Pul birligi – yevro. "Germaniya" so'zi qadimgi germanlar tilida "barcha odamlar yeri yoki bizning barcha xalqlar", shuningdek, ger kope, man – inson ma'nolarini anglatadi.

Germaniya Federativ Respublikasi 9 mamlakat bilan: janubda – Avstriya va Shveysariya, g'arbda – Gollandiya, Belgiya, Lyuksemburg va Fransiya, sharqda – Polsha va Chexiya, shimolda – Daniya bilan chegaradosh. Ta'kidlash kerakki, Germaniyaning barcha qo'shinalari yuqori darajada rivojlangan mamlakatlardir.

Chegarasining umumiy uzunligi – 3767 km. ni tashkil etadi. Bundan tashqari, shimolda Germaniya sohillari Shimoliy dengiz va Boltiq dengizi bilan tutashgan. Germaniyaning shimoliy hududlari, asosan, tekisliklardan iborat bo'lib, Markaziy Germaniyada adirlar va daryo, vohalar katta maydonlarni egallaydi. Mamlakat janubida esa Alp tog'lari bo'y cho'zgan bo'lib, o'ziga xos tabiati bilan alohida ajralib turadi. Mamlakat shimolida Boltiq dengizida Germaniya shimoliy va sharqiy qismiga qarashli ayrim orollar va Shimoliy dengizda, Femarn va Ryugen orollari joylashgan. Germaniyaning eng baland nuqtasi – Zyugstipise tog'laridir (2963 m.). Eng yirik daryolari: Reyn, Rur, Mozal, Dunay, Elba. Eng yirik ko'li – Boden ko'lidir. Mamlakat tabiiy qazilma boyliklarga boy.

GFR tabiati nihoyada xilma-xil bo'lib, shimoldan janubga tomon mamlakat 5 ta landshaft zonaga ajratiladi. Bular: Shimoliy Germaniya pasttekisligi; o'rtacha balandlikdagi tog' ostonasi; janubiy-g'arbiy Germaniya burma poydevori o'rta tog'li; Janubiy Germaniya Alpoldi yassitog'ligi; Bavariya Alp tog'lari.

Germaniya toshko'mir, kaliy va osh tuzi konlari, ko'p bo'lmasa-da, temir rudasi zaxiralari ega. Ushbu tabiiy resurslar og'ir sanoatning asosi bo'lmish energetika, kimyo, metallurgiya, mashinasozlik sanoatining rivojlanishiga zamin yaratgan.

Davlat tuzilishiga ko'ra – Federativ Respublika. Germaniya 16 ta federal yerlarning birlashuvidan vujudga kelgan. Bular: Baden-Vyurtemberg, Bavariya, Berlin, Brandenburg, Bremen, Gamburg, Gessen, Meklinburg-Old Pomerani, Shimoliy Reyn-Vestfaliya, Reynland-Pfal, Saar, Saksoniya, Saksoniya-Angalt, Quyi Saksoniya, Shlezvig-Golsheym, Tyuringiya. Markazlashgan mustaqil Germaniya davlati 1871-yil 18-yanvarda tashkil topgan. Qonun chiqaruvchi hokimiyat Bunderstag deb nomlanadi.

Mamlakatning amaldagi Asosiy qonuni (Konstitutsiyasi) 1949-yil 23-mayda qabul qilingan, keyinchalik unga 1954, 1956, 1990, 1993 va 1994-yillarda ayrim o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Davlat boshlig'i – federal prezident. U maxsus chaqiriladigan federal majlis tomonidan 5 yil muddatga saylanadi (faqat bir marta saylanishi mumkin). Federal majlis Bunderstag raisi tomonidan chaqiriladi va u Bunderstag deputatlari hamda landtaglar tomonidan saylangan a'zolaridan iborat bo'ladi. Prezident o'z ish

faoliyatini davom ettira olmasa, yo'qotisa yoki vafot etsa, Bunderstag raisi prezident vakolatlarini bajaradi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat parlament hisoblanadi. U ikki palatadan, ya'ni Bunderstag va Bunderstatdan tuzilgan. Bunderstag mamlakat aholisi tomonidan 4 yil muddatga saylanadi. Bunderstat esa yer hukumatlari orasidan 4 yil muddatga tayinlanadigan vakillardan iborat. Ijroiya hokimiyati esa federal kansler rahbarligidagi federal hukumat qo'lida. Federal kansler Bunderstagda prezidentning taklifiga binoan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Vazirlar federal kanslerning taklifiga ko'ra prezident tomonidan tayinlanadi.

Ma'lumki, qadinda Germaniya hududida turli german qabilalari yashagan. Ular V asrda Rim imperiyasining inqiroziga sabab bo'lgan. Shundan so'ng frank qabilalari sardori tomonidan hozirgi Fransiya va janubiy-g'arbiy Germaniya hududlarida franklar davlatiga asos solindi. Bu davlat buyuk Karl hukmronligi davrida German yerlarini o'z tarkibiga qo'shib oldi. 843-yili franklar imperiyasi parchalandi va uning sharqiy hududlarida German qirolligi tashkil topdi. Lekin ko'p o'tmay qirollik inqirozga uchradi. X asrda sakson sulolasi Mugaddas Rim imperiyasiga asos soldi.

To 1871-yilda Prussiya qiroli Vilgelm I ni Germaniya imperatori deb e'lon qilgunga qadar, Germaniya yerlari turli davrlarda turli davlatlar yoki qirolliklar tomonidan egallab olindi. Germaniya 1914-yil I jahon urushining boshlanishi sababchilaridan biri bo'ldi. Biroq mamlakat urushda mag'lubiyatga uchradi. 1918-yilda imperator Vilgelm II taxtdan ag'darilgach, Germaniya Veymar respublikasi deb e'lon qilindi.

1933-yil Gitler boshchiligidagi fashistlar hokimiyatni qo'lga olishgach, Germaniyaning Polshaga hujumi bilan (1939-yil 1-sentabrda) II jahon urushi boshlanib ketdi. II jahon urushi ham Germaniya mag'lubiyati bilan yakunlandi. 1945-yilda AQSH, Angliya, Fransiya va Sobiq Ittifoq nazorati ostidagi to'rt qismga bo'lindi. 1949-yili uning hududida GDR va GFR davlatlari tashkil topdi. 1990-yil 3-oktyabrda esa bu ikki davlat yagona Germaniyaga birlashdi. Mamlakat poytaxti sifatida 1991-yil 20-iyunda Berlin shahri e'lon qilindi.

2016-yil ma'lumotiga ko'ra, Germaniyada aholining zichligi 1 km<sup>2</sup> maydonga (haydaladigan yerlarga nisbatan) 696 kishi to'g'ri keladi. Germaniya Yevropaning aholisi zich joylashgan mamlakatlari qatoriga kiradi.

Germaniya shaharlari: Abensberg, Ayzenax, Gannover, Leyptsig, Volfburg, Ayzenxuytenshadt, Axen, Baden-Baden, Volfenbyuttel, Vilgelsaxfen, Marburg, Berlin, Gyottingen, Zolingen, Bonn, Bilefeld, Brandenburg, Braunshveyg, Bremen, Dyuysburg, Drezden, Dyusseldorf,

Greysvold, Myunxen, Myunster, Potsdam, Dortmund, Mangeym, Magdeburg, Rostok, Gyuterslo, Gamburg, Gladbek, Lyuneburg, Nyumberg, Zalitter, Visbaden, Vyurtsburg, Remshayd, Krefeld va h.k.

Germaniya – jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri. Ichki yalpi mahsulot va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha AQSH va Yaponiyadan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi. Tashqi savdo aylanmasining hajmi bo'yicha jahonda AQSHdan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Germaniyaning Yevropa va qolaversa, jahon xo'jaligida tutgan o'rini baholashda shu jihat e'tiborga olinadiki, mazkur mamlakatda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining aksariyat qismini sifat jihatidan etalon sifatida qaraladi. Sanoatning rivojlangan sohalar: metallurgiya, kimyo, avtomobilsozlik, kemasozlik va elektrotexnika. Germaniya avtomobilsozlik va kemasozlik bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Qishloq xo'jaligi umumiy milliy mahsulotning 16% ini yetkazib beradi. Chorvachilik ayniqsa, yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligidagi asosiy ekinlar: qand lavlagi, kartoshka va boshqali ekinlar. Germaniya o'z xalqining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining 85-90% ini ichki imkoniyatlar hisobidan qoplaydi.

Germaniya energetikasi o'z ehtiyojlarining yarmidan ko'pini import hisobiga qondiradi. Bunda neft va tabiiy gaz asosiy ahamiyatga ega. Neft tankertlarda hamda neft quvurlari orqali Shimoliy dengizdan, Rossiya, Nigeriya, Liviya, shuningdek, Fors qo'ltig'i mamlakatlaridan keltiriladi. Neftni qayta ishlash markazlari: Gamburg, Kyoln, Karlstue, Shvedt va boshqalardir (Bradschaw M. World regional geography. Boston. 2000).

Germaniyada elektr energiyaning asosiy qismini issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. IESlar aralash yoqilg'i hisobiga ishlaydi. Keyingi davrlarda mahalliy ko'mirga nisbatan Avstraliyadan keltirilayotgan ko'mirning narxi ancha arzoniga tushmoqda va shu bois uning ahamiyati tobora ortib bormoqda. GESlar, asosan, mamlakatning janubida joylashgan.

Mashinasozlik va metallga ishlov berish – Germaniya sanoatining eng muhim va taraqqiy etgan tarmoqlaridan biri. Mamlakat sanoat mahsulotlari va eksportining yarmiga yaqin qismi mashinasozlikka to'g'ri keladi. Mazkur tarmoqlarning asosiy markazlari: Myunxen, Leypsig, Nyumberg, Mangeym, Berlin, Gamburg.

Avtomobil ishlab chiqarish bo'yicha Germaniya dunyoda AQSH, Yaponiya va Xitoydan keyingi to'rtinchi o'rinni egallaydi. "Volkswagen", "Mercedes-Benz", "BMW", "Ford-Werke", "Opel" kabi korporatsiyalar avtomobil ishlab chiqaradi. Avtomobilsozlikning eng yirik markazlari – Volsburg, Shluterart, Kyoln, Ryussekaym, Myunxen shaharlardir.

Germaniyaning rangli metallurgiya sanoati, asosan, chetdan keltirilgan va iklilamchi xom ashyo hisobiga ishlaydi. Alyuminiy eritish bo'yicha Germaniya G'arbiy Yevropada faqat Norvegiyadan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi.

Mamlakatning yirik sanoat kompaniyalari transmilliy korporatsiyalardan iboradirlar ("Daimler-Benz", "Volkswagen", "Siemens", "Hoechst", "Bayer"). Tashqi savdoning umumiy hajmi bo'yicha, Germaniya AQSHdan keyin 2-o'rinda turadi.

Fransiya – Yevropaning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, hududi – 551000 km<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Poytaxti – Parij. Aholisi – 64,6 mln. kishi (2016-y.). Davlat tili – fransuz. Dini – katolik (90%). Pul birligi – yevro. Janubda – Ispaniya (chegara uzunligi – 623 km.) va Andorra (60 km.), janubi-sharqda Monako (4,4 km.), shimoli-sharqda Belgiya (620 km.) va Lyuksenburg (73 km.), sharqda Shveysariya (573 km.) va Italiya (451 km.) davlatlari bilan chegaradosh. Janubda mamlakat O'rta Yer dengizi, g'arbda Biskay ko'rfazi, shimoli-g'arbda La-Mansh va Pa-de-Kale bo'g'ozlari bilan tutashtigan.

Fransiya tarkibiga O'rta Yer dengizdagi Korsika oroli, to'rta dengiz orti departamentlari – Martinika, Gvadelupa, Reyunon, Fransiya Gvianasi, shuningdek, Fransiya Polineziyasi, Yangi Kaledoniya, Sen-Per va Mike'lon, Tinch okeandagi bir qator arxipelaglar kiradi. Chegarasining umumiy uzunligi – 2892,4 km. bo'lib, sohil bo'ylab chegara uzunligi – 3427 km. Uning g'arbi va shimoliy qismini tekisliklardan iborat bo'lib, markaziy va sharqiy qismida o'rta balandlikdagi Markaziy massiv, Vogez, Yura va boshqa tog'lar joylashgan. Janubi-g'arbda Ispaniya bilan tabiiy chegara hosil qilgan Pireney tog'lari yastanib yotadi. Mamlakatning janubi-sharqida Fransiya va G'arbiy Yevropaning eng baland cho'qqisi – Monblan tog'i (4807 m.) joylashgan. Asosiy daryolari – Sena, Rona, Luara, Garonna. Ko'llar Fransiya uchun ko'p emas, eng yirik ko'l – Jeneva ko'li bo'lib, uning aksariyati Shveysariya hududida joylashgan.

Fransiya Respublikasi xilma-xil tabiiy resurslarga ega. Asosiy tabiiy boyliklari: ko'mir, temir rudasi, boksitlar, rux, kaliy tuzi, osh tuzi, uran rudasi va b. Xom ashyo resurslari jihatidan Fransiya Yevropada yetakchi o'rinda turadi. Lotaringiyada, Vogez tog'larida yirik temir rudasi va boksit zaxiralari joylashgan. Shuningdek, mamlakatning janubiy qismida ham boksitning yirik zaxiralari mavjud. Elizasda esa kaliy tuzlari keng tarqalgan. Fransiya Respublikasi hududida toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir qisman mavjud bo'lsa-da, biroq kokslovchi ko'mir juda kam miqdorda uchraydi. Neftning yirik konlari yo'q.

Mamlakatda gidroenergiya resurslarining G'arbiy Yevropadagi Neyedon 2 ta yirik rayoni joylashgan. Alp va Pireneya tog'larida daryolar ichki suv transport ham hisoblanadi. Asosan, Reyn va Sena daryolari. Mamlakat yirik daryolarining katta qismi tekisliklardan o'tadi hamda ulardan kema qanovida, energiya olishda, sug'orishda keng foydalaniladi.

Fransiya Respublikasi hududining 1/4 qismini o'rmonlar egallagan. Tabiiy o'rmonlar, massivlarining eng yirigi Vogeri, Yurash, Shimoliy Alp tog'larida saqlanib qolgan.

Fransiya Respublikasida tabiiy resurslarning xo'jalikdagi ahamiyati katta. Ayniqsa, ular orasida rekreatsion resurslar muhim ahamiyat kasb etadi va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu borada dengiz sohllari va Alp tog'larining ahamiyati katta (Bradschaw M. World regional geography. Boston, 2000).

Davlat tuzumi – Prezident Respublikasi. Mamlakat tarkibiga ko'ra 96 ta departament va 22 ta viloyatga bo'lingan. Shuningdek, Fransiya tarkibiga yana bir necha dengizorti departamentlari va dengizorti hududlari kiradi. Lotaringiya, Elzas, Bretan, Normandiya va boshqa ko'pgina departamentlarning nomlanishi hozir ham tarixiy viloyatlar nomi bilan yuritiladi.

Davlat Konstitutsiyasi ya'ni Asosiy Qonun 1988-yil 28-sentyabrda qabul qilingan. Ovoz berish huquqi 18 yoshdan beriladi. Mamlakat prezident tomonidan boshqariladi (7 yilga saylanadi). Vazirlar Mahkamasi prezident tomonidan bosh vazir maslahati bilan saylanadi. Bosh vazir nomzodi milliy majlis tomonidan qo'yiladi va prezident tomonidan saylanadi.

Fransiya hozirgi kunda yuksak rivojlangan industrial davlat bo'lib, uning tarixiy rivojlanishi o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi.

Fransiya Respublikasining aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> maydonga 353 kishiga to'g'ri keladi. Mamlakatning sharqida elzasliklar bo'lib, ular nemis tilida so'zlashadilar. G'arbda esa bretanlar, italyanlar, portugallar, turklar istiqomat qiladi.

Sanoat rayonlarida aholi birmuncha zich yashaydi. Ayniqsa, Parij, Lion, Marsel va boshqa shaharlarda bu hol seziladi. Ayrim hududlarda Markaziy Massiv va Janubiy Alpnung ba'zi hududlarida esa aholi zichligi ancha past.

Mamlakatda tug'ilish har 1000 kishiga 12 kishi, o'lim 1000 kishiga 9 kishi, onalar o'limi har 100 000 aholiga 8 nafarni tashkil etadi.

Fransiya aholisining 92 foizi xristianlik diniga e'tiqod qiladi.

\* *Ermizning 1 asriga qadar Fransiya hududi Galliya deb atalgan. Hozirgi nomi franklarning ko'l qobiliati nomidan kelib chiqqan.*

Fransiya aholisining juda ko'p qismi Parij aglomeratsiyasida to'plangan. Aholining 80 foizi shaharlarda yashaydi. Fransiyaning yirik shaharlari Parij, Marsel, Lion, Tuluza, Nistisa, Nant, Strazburg, Monpele, Bordo, Lil, Ren, Reyms hisoblanadi. Parij – Yevropaning yirik ma'muriy, ilim-fan, madaniyat va siyosiy shaharlardan biridir. Parij – o'z yodgorliklari, muzeylari bilan butun dunyoga mashhur.

Fransiya – rivojlangan sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlariga ega mamlakatlar qatoriga kiradi. II jahon urushidan so'ng Fransiya sanoati jadal rivojlandi. Og'ir sanoat ham fan-texnika rivojlanishi bilan tezda rivojlandi.

Energetika sanoati ko'proq o'z xom ashyosi bilan ta'minlanadi. 3/4 qism ko'mir shimoliy ko'mir havzasidan, ya'ni Lotaringiyadan olinadi. Tog'-kon sanoati ham Fransiya yaxshi rivojlangan. Lotaringiya, Tavr, Elzasda tog'-kon sanoati boshqa shaharlarga nisbatan yaxshi rivojlangan.

Mashinasozlik sanoatida elektrotexnika, elektron sanoat, stanok-sozlik, qishloq xo'jalik mashinasozligi ishlab chiqarish, kimyo, yengil sanoat texnikasi ishlab chiqaradi. Fransiya G'arbiy Yevropada aviatsiya sanoatida yetakchidir. Kimyo sanoati Lotaringiya, Elzas, Tavr va Marseldan rivojlangan. Lotaringiyada sodali mahsulotlar, tosh tuzlari havzasi, Elzasda kaliyli o'g'itlar, Tavrda sintetik kauchuk, plasmassalar, sintetik tola ishlab chiqarish rivojlangan.

Oziq-ovqat sanoatida vinochilik, shakar, konserva sanoati tarmoqlari, sut, go'sht ishlab chiqarish rivojlangan.

Fransiya Respublikasi qishloq xo'jaligida chorvachilik muhim ahamiyat kasb etadi. Yirik shoxli qoramolchilik tabiiy yaylovlar bor hududlarda, La-Mansh qirg'oqlarida, Markaziy Massiv, Yura-Vogez tog'larida rivojlangan bo'lsa, qo'ychilik Sharqiy Pireney, Berni, Orlean tekisliklarida birmuncha rivojlangan. Ayitish o'rini, Fransiya hayvon yog'i tayyorlash bo'yicha jahonda yetakchi o'rin egallaydi.

Dehqonchilikda asosiy doni ekinlar – bug'doy, arpa, makkajo'xori, sholi ektiladi. Bug'doy – shimoliy hududlarda, Rona atroflarida sholi, kartoshka, shimoliy pasttekisliklarda gand lavlagi yetishtiriladi. Uzunmichlik, meva sabzavot ekinlari yetishtirish katta maydonlarni egalladi. Uzunmichlik bo'yicha dunyoda Italiyadan so'ng 2-o'ringda, vino mahsuloti ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'ringda turadi. Vino Lapdok, Shampnan, Elzas, Burgundi, Bordoda tayyorlanadi.

Fransiya barcha transport turlari rivojlangan.

Fransiya Respublikasi 5 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi:

1. *Parij iqtisodiy rayoni* – Industrial savdo moliya markazi bo'lib, markazi – davlat poytaxti Parij shahri.

2. *Shimoliy iqtisodiy rayon*. To'qimachilik sanoati bo'yicha Fransiya-da 1-o'rinda turadi. To'qimachilik mashinasozligi rivojlangan shaharlar: Lill, Rube, Turkuen. Metallurgiya, kimyo sanoati, mashinasozlik, kemasozlik, neftni qayta ishlash tarmoqlari rivojlangan.

3. *Shimoliy-sharqiy iqtisodiy rayon*. Elzas, Lotaringiya, Strasburg shaharlari kiradi. To'qimachilik sanoati, paxta-qog'oz tarmoqlari rivojlangan. Metallurgiya, boksit, temir rudasi ko'p tarqalgan. O'rmon, kimyo sanoati, mashinasozlik rivojlangan.

4. *Lion iqtisodiy rayoni*. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha 2-o'rinda turadi. Rayonda elektr energetika tarmoqlari rivojlangan.

5. *O'rta yer dengizi bo'y iqtisodiy rayoni*. Marsel – yirik sanoat port shahridir. Bu rayonda Nitsa va Kane, Langedok kurort markazlari katta ahamiyatga ega. Uzunmichlik, donli ekinlar yetishtirish rivojlangan.

2. *Shimoliy Yevropa*. Aholisi – 103 mln., zichlik 1 km<sup>2</sup> – 525 kishi (haydalgan yerlarga nisbatan), shahar aholisi 81% (2016-y.). BMT tasnifi bo'yicha hududda Buyuk Britaniya, Irlandiya, Daniya, Islandiya, Norvegiya, Latviya, Litva, Finlyandiya, Shveysiya, Estoniya singari davlatlar joylashgan (3-ilova). Mintaqaning joylashgan o'rni juda qulay. Mintaqa tarkibida Skandinaviya va Bolitqbo'y davlatlari bilan bir qatorda, Atlantika okeanida joylashgan ayrim orol mamlakatlari ham kiradi.

Shimoliy Yevropa jahondagi iqtisodiy jihatidan rivojlangan mintaqalardan biri bo'lib, ushbu hududda Buyuk Britaniya singari "Katta yetitlik" davlatlari bilan bir qatorda, qit'a shimolidagi qator orol, yarim orol va sohibo'yi davlatlari joylashgan. Mintaqaning iqtisodiy geografik o'rni qulay bo'lib, xalqaro dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatiga ega.

Mazkur hududda joylashgan davlatlarni foydali qazilmalarga ancha boy deysh mumkin. Mintaqa tarkibida joylashgan Shveysiya sifatli temir rudasi, mis, rux, qo'rg'oshin, volfram zaxiralari, Norvegiya Shimoliy dengizdan topilgan neft va tabiiy gaz havzalari bilan, Finlyandiya mis, titan rudalari bilan alohida ko'zga tashlanadi.

Mintaqa davlatlari chuchuk suv resurslari bilan to'la ta'minlangan. O'rmon resurslariga bo'yliqi bilan esa mintaqaning Shveysiya, Finlyandiya, Norvegiya singari davlatlari alohida ajralib turadi. Mazkur davlatlarda yog'och ishlab chiqarish, sifatli mebel sanoati samarali yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, Finlyandiya sifatli qog'oz ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan.

Mintaqa mamlakatlari orasida Islandiya geyzerlar mamlakati sifatida ko'zga tashlansa, Daniya sifatli sut va sut mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha natijat Yevropa qit'asida, shuningdek, jahon mamlakatlari orasida ham yetakchilik qiladi.

Shimoliy Yevropa aholisi etnik jihatdan bir xil bo'lib, roman-german tillar oilasiga mansub. Aholining tabiiy o'sishi nihoyatda past bo'lsa-da, biroq ular umr davomiyligining yuqoriligi bilan ajralib turadi (umr davomiyligi etkaklarda – 79 yosh, ayollarda – 83 yosh).

Urbanizatsiya darajasi ancha yuqori, ya'ni mintaqada 81% bo'lib, bu ko'rsatkich Daniyada 88%, Islandiyada 94% ni tashkil qiladi.

**Buyuk Britaniya** – Shimoliy Yevropaning, qolaversa, jahonning eng rivojlangan mamlakatlaridan biri. Rasmiy nomi – Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi. Poytaxti – London. Hududi – 244100 km<sup>2</sup> (Shotland orollari bilan birga). Aholisi – 65,6 mln. kishi (2016-y.). Davlat tili – ingliz. Dini – protestantlik. Pul birligi – funt sterling.

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qirolligi Britaniya orollarida joylashgan. Uning tarkibiga Angliya, Shotlandiya, Uels va Shimoliy Irlandiya kiradi. Geografik o'rning qulayligi unda xalqaro dengiz va havo yo'llari kesishganligi bilan belgilanadi.

Buyuk Britaniya yer yuzasi, asosan, pasttekislik, shimoli-g'arbi – tog'liklar, markazi va janubi-sharqi – tekislik va pasttekisliklardan iborat.

Mamlakat Shimoliy dengiz orqali Yevropadan ajralib turadi. Uning relyefi ikki qismga: shimoliy va g'arbiy qismlarga bo'linadi. Foydali qazilmalari birmuncha kam. Temir rudasi va yuqori sifatli toshko'mir qazib chiqariladi. Toshko'mirning aniqlangan umumiy zaxirasi 170 mlrd. tonna. XX asrning 60-yillaridan boshlab Shimoliy dengiz shelf zonasidan neft va tabiiy gaz qazib olish boshlandi. Shunday bo'lsa-da, mamlakat o'zining neft va tabiiy gazga bo'lgan ehtiyojini import hisobiga qondiradi.

Energetika xom ashyosiga bo'lgan ehtiyoj Buyuk Britaniyada uran rudasi hisobiga qoplanadi. Mamlakat suv resurslari bilan to'liq ta'minlangan. Uning markaziy qismida temir rudasi, kaolin, osh tuzi singari foydali qazilma konlari uchraydi.

Mamlakat iqlimiga Shimoliy Atlantika iliq oqimlari, janubi-g'arbiy shamollar olib keluvchi iliq havo massalari o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shimoliya iyulning o'rta harorati 13°C, janubi-sharqda 16,5°C. London va uning atroflarda harorat 3-4 oy mobaynida 0°C dan past holatda saqlanadi, mamlakat sharqida ba'zan –18°C gacha tushadi.

**Asosiy daryolari:** Temza, Severn, Uz, Tis, Tayn, Iden va boshqalar. Daryolari, asosan, yomg'ir suvlaridan to'yinadi, kuz va qishda to'lib oqadi, muzlamaydi. Tog'larda ko'llar ancha ko'p, ulardan eng yiriklari Loh-Ney, Loh-Lomand.

Mamlakat hududida ilgari o'rmon resurrlari ancha ko'p bo'lgan bo'lsa-da, keyingi davrlarda ular kesilib, kamayib ketgan. O'rmonlar bilan qoplangan maydonlar mamlakatda 7 foizga ham yetmaydi.

Davlat tuzilishiga ko'ra, Buyuk Britaniya – parlamentar monarxiya mamlakati bo'lib, davlat boshlig'i sifatida mamlakati qiroli va qirolicha boshqaradi. Mamlakatning yagona konstitutsiyasi yo'q. Davlat tuzumi konstitutsiya o'rinda qo'llaniladigan akt, maxsus qonunlarga, urf-odatlarga asoslanadi. Qonun chiqaruvchi oliy organi – parlament bo'lib, u qiroli va ichki palatadan iborat. Shimoliy Irlandiya ma'muriy muxtoriyat huquqiga ega bo'lib, u qiroli tomonidan tayinlangan gubernator tomonidan boshqariladi.

Tarixiy ma'lumotlarga nazar tashlasak, miloddan avvalgi VIII asrdayoq orollarga Kelt-Britlar kelib joylashgan. V asrning ikkinchi yarmida anglo-saksalar mamlakatning katta qismini bosib olib, qator feodal qiroliklarni barpo qilishgan. IX asr boshlarida anglo-saks davlatlari birlashib, "Angliya" deb atala boshladi.

X asrning ikkinchi yarmida Angliya Normandiya Gersogi tomonidan istilo qilingandan so'ng mamlakatda feodal tuzum shakllandi, feodal yer egaligi paydo bo'ldi. X-XI asrlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq markazi sifatida mamlakatda shaharlar paydo bo'la boshladi. Uzoq asrlar mobaynida Buyuk Britaniya dengiz va okeanlar "hukmdori" sifatida ko'pgina hududlarni zabt etdi.

XIX asrga kelib Britaniyada qazib olingan ko'mir va eritilgan cho'yan jahonda qazib olingan ko'mirning 70% dan ortiq qismini va eritilgan cho'yaning 40% ni tashkil etdi. Jahonda ilk to'qimachilik, tikuvchilik sanoatining rivoji ham, avvalo, aynan mazkur mamlakat nomi bilan bog'liq.

Buyuk Britaniya aholisi soni XX asrgacha aholining okean ortiga ommaviy tarzda ko'chib ketishiga qaramasdan ancha tez o'sib bordi. Biroq tug'ilish kamayib ketganligi munosabati bilan keyingi 15-20 yil davomida aholining tabiiy o'sishi sezilarli darajada pasayganligi kuzatilmog'ida, shu bilan birga, mamlakatda katta yoshdagilar salmog'i kun sayin ortib bormog'ida.

Buyuk Britaniya – urbanizatsiya darajasining yuqorigiligi bilan ajralib turadi. Aholining 83% qismi shaharlarda yashaydi. Ammo London, Glazgo, Liverpul shaharlarida aholi birmuncha qisqarib bormog'ida. Aholining 85% i inglizlar, qolganlari shotlandlar, irlandlar va boshqa millat vakillariga to'g'ri keladi. Aholisi 7 mln. kishidan ortiq bo'lgan London eng yirik aglomeratsiyani tashkil qiladi. Yevropada joylashgan eng yirik megalopolislardan biri Buyuk Britaniyada joylashgan Ingliz

megalopolisi bo'lib, undagi aglomeratsiyalar soni – 30 ta. Eng yirigi – London. Uning umumiy uzunligi – 400 km.

Buyuk Britaniyaning asosiy shaharlari: London, Glazgo, Sheffild, Birmingem, Liverpul, Terso, Tong, Xelnsdeyl, Uik, Allapul, Teyn, Elgin, Banf, Freyzetboro, Edinburg, Pert, Dandi, York, Bolton, Gloster, Brayton, Bat, Reding, Oksford, Bristol, Medisbro va h.k. (Bradschaw M. World regional geography. Boston. 2000).

Xo'jaligi. II jahon urushi davrida Buyuk Britaniyaning bir gancha shaharlari katta talafot ko'rdi, savdo aloqalari izdan chiqdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1950-yildan 1980-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida bir necha foizgacha kamaydi. Shunday bo'lsa-da, bugungi kunda Buyuk Britaniya jahon mamlakatlari orasida o'z nufuzi, iqtisodiy salohiyati bilan alohida ajralib turadi.

Ma'lumki, mamlakat xo'jaligi uzoq davrlar mobaynida mustamlakachilikdan katta foyda ko'rar edi. Bu holatga barham berilishi bilan chetdan kiritiladigan xom ashyo miqdori ham tobora qisqarib bordi.

Bugungi kunda Buyuk Britaniya sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha

jahonda beshinchi o'rinni egallaydi. Barcha sanoat mahsulotlarining 2/3 qismi og'ir industriya hissasiga to'g'ri keladi. Fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar, jumladan, atom energetikasi, elektron jihozlar ishlab chiqarish va neft kimyosi, robotsozlik ancha tez rivojlandi. Shuningdek, sanoatning ayrim tarmoqlari: avtomobilsozlik, kemasozlik, aerokosmik sanoat, jumladan, harbiy samolyotlar, vertolyotlar va aviasozlikda qo'llaniladigan dvigatellar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi.

Buyuk Britaniya ilmiy-texnikaviy salohiyati bo'yicha Yevropada eng oldingi o'rinni egallaydi. Mamlakat olimlari tomonidan olingan Nobel mukofotlari soni bo'yicha ham mazkur mamlakat jahonda AQSHdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Chumonchi, mamlakat dunyoda yetakchi universitetlari bilan ham ajralib turadi (13-jadval).

Buyuk Britaniya iqtisodiy jihatdan yuqori darajada rivojlangan mamlakat bo'lib, eksportining 90% i sanoat mahsulotlariga to'g'ri keladi.

Eksportida ayniqsa, mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati mahsulotlari yetakchi o'rinni egallaydi.

Yogilg'i energetika sanoatida toshko'mir qazib olish o'z o'rini neft va tabiiy gaz qazib olishga bo'shatib bormog'ida. Atom energiyasi ham tez rivojlanmog'ida. Ko'mir qazib olish bo'yicha Yorksher havzasi oldingi o'rinda turadi. Metallurgiya – qadimiy tarmoq hisoblanib, mahalliy ruda

xom ashyosi mazkur sanoat tarmog'ini deyarli to'liq ta'minlaydi. Mamlakat zaruriy xom ashyoni Ispaniya va Kanadadan import qiladi.

Jahonning nufuzli universitetlari reytingi (2015-2016-o'quv yillar) 13-jadval

| №  | Oliy o'quv yurti                                     | Davlat          | №   | Oliy o'quv yurti                             | Davlat          |
|----|------------------------------------------------------|-----------------|-----|----------------------------------------------|-----------------|
| 1  | Kaliforniya texnologiya instituti                    | AQSH            | 16  | Kaliforniya universiteti                     | AQSH            |
| 2  | Oksford universiteti                                 | Buyuk Britaniya | 17  | Pensilvaniya sharti universiteti             | AQSH            |
| 3  | Stenford universiteti                                | AQSH            | 118 | Kornellskiy universiteti                     | AQSH            |
| 4  | Kembridj universiteti                                | Buyuk Britaniya | 119 | Toronto universiteti                         | Kanada          |
| 5  | Massachusets texnologiya instituti                   | AQSH            | 20  | Dyuk universiteti                            | AQSH            |
| 6  | Garvard universiteti                                 | AQSH            | 21  | Michigan sharti universiteti                 | AQSH            |
| 7  | Prinston universiteti                                | AQSH            | 22  | Karnegi-Mellon universiteti                  | AQSH            |
| 8  | London imperiya kolleji                              | Buyuk Britaniya | 23  | London iqtisodiyot va siyosiy fanlar maktabi | Buyuk Britaniya |
| 9  | Syurixdagi Shveysariya federal texnologiya instituti | Shveysariya     | 24  | Edinburg universiteti                        | Buyuk Britaniya |
| 10 | Chikago universiteti                                 | AQSH            | 25  | Shimoli-g'arbiy universiteti                 | AQSH            |
| 11 | Djons Xopkins universiteti                           | AQSH            | 26  | Singapur Milliy universiteti                 | Singapur        |
| 12 | Yel universiteti                                     | AQSH            | 27  | London Qirollik kolleji                      | Buyuk Britaniya |
| 13 | Kaliforniya universiteti                             | AQSH            | 28  | Qirollik instituti                           | Shveysariya     |
| 14 | London universitet kolleji                           | Buyuk Britaniya | 29  | Myunxen universiteti                         | Germaniya       |
| 15 | Kolumbiya universiteti                               | AQSH            | 30  | Nyu-York universiteti                        | AQSH            |

Manba: Internet ma'lumotlari: [www.times.higer](http://www.times.higer)

Mamlakat kemasonligida Klayd, Glazgo, Temza va boshqa shaharlar yetakchilik qiladi. Mashinasozlik tarmog'ining asosiy markazlari –

Nyukasl, Sheffild, Glazgo. Yangi tarmoqlar orasida elektrotexnika, elektron sanoat, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, biotexnologiya kabi tarmoqlar jadal rivojlanmoqda.

**Kimyo sanoatida** – neft-kimyo, sulfat kislot, kimyoviy tolalar, azot, fosfor va kaliy o'g'itlar ishlab chiqarish muhim o'rin tutadi. To'qimachilik sanoati – import xom ashyoga, asosan, paxta, jun va boshqa to'lardan foydalanadi. Oziq-ovqat sanoati ko'p tarmoqli bo'lib, mamlakat hududi bo'ylab keng quloch yozgan.

**Qishloq xo'jaligida** asosan, bug'doy, tariq, qand lavlagi, arpa yetishtiriladi. Chorvachilikda esa qoramol, qo'y, cho'chqa, parranda boqiladi. Yevropa mamlakatlari orasida baliq ovlash bo'yicha faqat Norvegiya, Daniya, Ispaniya singari davlatlardan keyingi o'rinda turadi.

London shahri nafaqat mamlakat poytaxti, qolaversa, jahonning moliya markazi hisoblanadi. Manchester, Kardif, Liverpul, Edinburg shaharlari ham yirik moliyaviy markazlar sanaladi.

Asosiy port shaharlari: Aberdin, Belfast, Bristol, Kardif, Glazgo, Liverpul, London, Manchester, Plimut va h.k. Mamlakatda transportning barcha turlari rivojlangan.

Iqtisodiy geografik tafovutlariga, shuningdek, tarixiy-geografik xususiyatlariga ko'ra Buyuk Britaniya beshta iqtisodiy rayonga ajratiladi. Bular:

➤ Janubiy Angliya rayoni – turli xil sanoat tarmoqlari, fan talab tarmoqlarning mujassamlashuvi bilan ajralib turadi;

➤ Markaziy Angliya rayoni. Mazkur rayonda ancha keksa bo'lgan, qora metallurgiya, metalni qayta ishlash singari tarmoqlar rivojlangan;

➤ Lankashir rayoni. Ushbu rayonda tarixan to'qimachilik sanoati rivojlangan;

➤ Yorksher rayoni. Hudduda mashinasozlik, asbob-uskunalar, jun gazlamalar ishlab chiqarish rivojlangan;

➤ Shimoliy Angliya iqtisodiy rayoni – ko'mir, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoatining rivojlanganligi bilan ko'zga tashlanadi.

3. Janubiy Yevropa mintaqasi. Aholisi – 150 mln. kishi, urbanizatsiya darajasi 70% ga teng. Mintaqa tarkibiga: Albaniya, Andorra, Bosniya va Gersgovina, Xorvatiya, Gretsiya, Italiya, Kosovo, Makedoniya, Malta, Chernogoriya, Portugaliya, San-Moreno, Serbiya, Sloveniya va Ispaniya kiradi.

4. Sharqiy Yevropa mintaqasida BMT tasnifi bo'yicha Belorussiya, Bolgariya, Chexiya, Vengriya, Moldaviya, Polsha, Ruminiya, Rossiya, Slovakiya, Ukraina singari davlatlar joylashgan. Mintaqa davlatlari G'arbiy Yevropa davlatlaridan farqli ravishda davlat tuzilishiga ko'ra

respublikalar hisoblanadi. XX asr yakunida mazkur davlatlar murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z boshidan kechirdi.

### Sharqiy Yevropa davlatlari. Rossiya

Sharqiy Yevropa davlatlarining geografik o'rni juda qulay bo'lib, bu avvalo, ularning iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar bilan chegaradoshligi, Boltiq, Qora dengiz portlari, Dunay kabi xalqaro ahamiyatga ega daryolar orqali boshqa mintaqalar bilan bog'langanligi, shuningdek, Yevropa va Osiyoni bog'lovchi avtomobil va temir yo'llari kesishgan hududda joylashganligi bilan belgilanadi. Tabiiy resurslar mintaqada bo'ylab notekis taqsimlangan. Jumladan, Polsha, Ruminiya, Bolgariya neft, tabiiy gaz, toshko'mir, temir va polimetall rudalari bilan ajralib turadi.

Aholisi 293 mln. kishi bo'lib (2016-y.), mintaqada tabiiy o'sish ko'rsatkichlarining pastligi bilan ajralib turadi. Shahar aholisi 69%.

Mintaqa sanoatida mashinasozlik, metallurgiya, to'qimachilik, oziq-ovqat va mebel sanoati yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligida esa, g'alla-chilik, yem-xashak ekinlari, ayrim moy beruvchi ekinlar, chorvachilikda esa ko'proq qoramolchilik, parrandachilik yaxshi rivojlangan.

Sharqiy Yevropa davlatlarining tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, xo'jaligini chuqurroq o'rganish maqsadida Rossiya Federatsiyasiga umumiy geografik tavsif berishni lozim topdik.

**Rossiya** – maydoni bo'yicha Yer sharidagi eng yirik davlat bo'lib, maydonining taxminan 4,1 mln. km<sup>2</sup> hududi Yevropaga, 13,0 mln. km<sup>2</sup> Osiyo qit'asi hududiga to'g'ri keladi. Mamlakat chegaralarining umumiy uzunligi bo'yicha eng oldingi o'rinni egallaydi va u 58,6 ming km. ni tashkil qiladi. Bunda dengiz orqali o'tgan chegaralar quruqlikdagi chegaralardan deyarli ikki barobar uzunroqdir. Rossiyaning quruqlikdagi chegaralari 20 ming km. dan ortiq. Mamlakat 16 ta davlat bilan chegaradosh. Rossiya – Federativ Respublika bo'lib, davlat rahbari – prezident, ijro etuvchi organi esa, hukumat hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi mineral resurslarining turlari va zaxiralari bo'yicha jahondagi eng yetakchi davlatlar qatoriga kiradi. Mamlakat ko'mir, neft va tabiiy gaz, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, galay, nikel, boksit, nefelin rudalari, olin, kumush, platina, olmos zaxiralariغا boy.

### Rossiya aholisining joylashuvi

14-jadval

| Yil  | Aholi ulushi, foizda |               | Jami |
|------|----------------------|---------------|------|
|      | Yevropa qismida      | Osiyo qismida |      |
| 1897 | 94                   | 6             | 100  |
| 1926 | 86                   | 14            | 100  |
| 1959 | 80                   | 20            | 100  |
| 1989 | 78                   | 22            | 100  |
| 2010 | 80                   | 20            | 100  |

*Manba: Экономическая география и территориальное развитие России. Под ред. Ю.А.Сивагина. Москва, Юрайт, 2016.*

Aholi mamlakat bo'ylab notekis joylashgan. Aholining o'rta zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 9 kishiga yaqin. Mamlakatning markaziy qismlarida aholi eng zich joylashgan. Aholi joylashuviga nazar tashlanganda uning asosiy qismi Yevropa hududiga to'g'ri kelishi kuzatiladi (14-jadval).

Rossiya Federatsiyasi aholisining soni 2016-yilda 144,3 mln. kishini tashkil etdi. Mamlakat demografik vaziyatining hozirgi holatini tug'itish va aholi tabiiy ko'payishining qisqarishi bilan izohlash mumkin. Mamlakat aholisi so'nggi bir asrdan ortiqroq davr mobaynida deyarli ikki barobarga oshdi.

Aholisining milliy tarkibi juda xilma-xil bo'lib, ko'p qismini ruslar (81,5%), tatarlar (3,8%), ukrainlar (3%), chuvashlar (1,2%), boshqirdlar (0,9%), chechenlar (0,6%) va boshqalar tashkil etadi.

Urbanizatsiya darajasi 74% ga teng. Mamlakatning yirik millioner shaharlari: Moskva, Sankt-Peterburg, Nijniy Novgorod, Samara, Novosibirsk, Yekaterinburg va h.k.

Rossiya xo'jaligi haqida so'z yuritganda, shuni alohida ta'kidlash zarurki, mamlakat MDH davlatlari orasida maydonining kattaligi va aholisining soni bo'yicha eng oldingi o'rinni egallaydi. U ulkan tabiiy, iqtisodiy imkoniyatlarga ega. MDH davlatlari YAMDning 60% i va sanoat ishlab chiqarishining 2/3 qismi Rossiya hisobiga to'g'ri keladi.

Rossiya iqtisodiyoti keng tarmoqli bo'lib, sanoat mahsuloti hajmining 1/3 qismi yoqilg'i-energetika tarmoqlariga to'g'ri keladi. Mamlakat yoqilg'i-energetika balansining taxminan 70% dan ortiqrog'i neft va tabiiy gaz, qolgan qismi ko'mir, qisman uning ba'zi hududlarida tof hamda yonuvchi slanes hissasiga to'g'ri keladi. Neft sanoati – mamlakat yoqilg'i-energetika tarmoqlari orasida muhim o'rin tutadi. Konlardan qazib olingan

neftning asosiy qismi mamlakat ichkarisiga va boshqa hududlarga (Sharqiy va G'arbiy Yevropa, MDH davlatlariga, Xitoyga) neft quvurlari orqali tashiladi. Mamlakat tabiiy gazning umumiy zaxirasi va uni qazib olish hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'ringa turadi. Uning asosiy qismini G'arbiy Sibir, Shimoliy Kavkaz, Ural, Volgabo'yi, Yakutiya va Saxalindan qazib olinadi. Uning asosiy qismi G'arbiy Sibirga to'g'ri keladi.

Elektroenergiya ishlab chiqarish bo'yicha Rossiya dunyoda AQSH, Yaponiya va Xitoydan keyin to'rtinchi o'ringa turadi. Elektr quvvatining eng katta qismini issiqlik stansiyalarida ishlab chiqariladi (15-jadval).

## Rossiyada elektroenergiya ishlab chiqarish

15-jadval

| Elektr stansiyalar | 1970-y. | 1980-y. | 1990-y. | 2000-y. | 2010-y. |
|--------------------|---------|---------|---------|---------|---------|
| Jami               | 470     | 805     | 1082    | 878     | 1038    |
| IJS                | 373     | 622     | 797     | 582     | 699     |
| GES                | 94      | 129     | 167     | 165     | 168     |
| AES                | 4       | 54      | 118     | 131     | 171     |

Manba: Экономическая география и прикладное региональное развитие России. Под ред. Ю.А.Симагина. Москва, Юрайт, 2016.

Qora metallurgiya sanoatida temir rudasi qazib olish keng yo'lga qo'yilgan. Qora metallurgiya uchun ishlatiladigan kokslanadigan ko'mir Kuzbass va Pechora havzalaridan keltiriladi. Rossiya jahonda po'lat eritish bo'yicha ham yetakchilik qiluvchi davlatlar qatoriga kiradi. Bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakat Xitoy, Yaponiya, AQSH va Koreya Respublikasidan keyin beshinchi o'rinni egallaydi.

Rossiyaning asosiy qora metallurgiya markazlari quyidagilar: Ural, Markaziy qoraltuproq va G'arbiy Sibir. Yirik shaharlari: Nijniy Tagil, Magnitogorsk, Chelyabinsk, Novotroitsk, Novokuznetsk.

Polimetall rudalari qazib olinuvchi asosiy rayonlar: Shimoliy Kavkaz, Zabayskay, Uzoq Sharq. Alyuminiy sanoatining asosiy markazlari: Achinsk, Bratsk, Boksitogorsk, Volkov, Volgograd, Kamensk-Uralsk, Krasnoyarsk.

Mashinasozlik – Rossiya sanoatining muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, barcha hududlarida bir tekis tarqalgan. Energetika mashinasozligining yirik korxonalari: Barnaul, Belgorod, Sanki-Peterburg, Novosibirsk.

\*Rossiyada qazib olinadigan toshko'mir hamda, qo'ng'ir ko'mirning bir qismini ham xorij davlatlariga eksport qilinadi.

Rossiya avtomobil sanoatida yengil va yuk mashinalari ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan (16-jadval). Bu tarmoqning yirik korxonalari: Nijniy Novgorod, Ijevsk, Miass, Ulyanovsk, Moskva, Tolyatti shaharlarida joylashgan. Shuningdek, mamlakatning Pavlovo va Lkino shaharlarida avtobuslar, Moskva, Nijniy Novgorod, Ulyanovsk shaharlarida yuk avtomobillari, Engels shahrida trolleybuslar ishlab chiqariladi.

## Rossiya mashinasozlik sanoati (1990-2010-y.y.)

16-jadval

| Mahsulot turi                                                      | 1990-y. | 2000-y. | 2010-y. |
|--------------------------------------------------------------------|---------|---------|---------|
| Qishloq xo'jaligi mashinasozligi                                   |         |         |         |
| Qishloq xo'jaligi va o'tmon xo'jaligi uchun traktorlar, ming dona. | 214     | 19,2    | 6,9     |
| Don yig'uvchi kombaynlar, ming dona                                | 65,7    | 52      | 4,3     |
| Yengil avtomobillar, mln.dona                                      | 1,1     | 1,0     | 1,2     |
| Yuk avtomobillar, ming dona                                        | 665     | 184     | 156     |
| Yuk vagonlari                                                      | 25,1    | 4,0     | 50,5    |

Manba: Экономическая география и прикладное региональное развитие России. Под ред. Ю.А.Симагина. Москва, Юрайт, 2016.

Temiryo'l mashinasozligining yirik korxonalari Nijniy Novgorod, Sanki-Peterburg, Ulan-Ude, Nijniy Tagil, Kolomna, Kaluga va boshqa shaharlarda joylashgan. Vagonlar Bryansk, Mitshi, Nijniy Tagil, Tver, Abakan, Alaysk, Sanki-Peterburg va boshqa shaharlarda faoliyat olib bormoqda. Dengiz va daryo kemasozligi markazlari Sanki-Peterburg, Astraxan, Nijniy Novgorod, Tyumen, Krasnoyarsk, Xabarovsk, Blagoveshensk, Komsomolsk-Amur, Arxangel'sk, Murmansk, Samolotsozlik sanoatining yirik markazlari: Moskva, Qozon, Samara, Voronej, Saratov, Smolensk, Rostov-Don va b.

## Nazorat savollari

1. Yevropa davlatlariga umumiy geografik tavsif bering.
2. Germaniya Federativ Respublikasiga umumiy geografik tavsif bering?
3. Germaniyaning tarixiy rivojlanishi va davlat tuzumi haqida nimalar bilasiz?
4. Germaniya xo'jaligini ta'rifiang.
5. Germaniya sanoatining qanday asosiy tarmoqlari mavjud?

6. Germaniya qishloq xo'jaligida yetakchilik qiluvchi asosiy tarmoqlar qaysilar?
7. Fransiya Respublikasi qaysi davlatlar bilan chegaradosh?
8. Fransiya ma'muriy jihatdan nechta viloyat va nechta departamentga bo'linadi?
9. Fransiyaning qanday tabiiy boyliklari mavjud?
10. Mamlakatning qaysi qismlari tekisliklardan iborat?
11. Buyuk Britaniya xo'jaligiga ta'rif bering.
12. Buyuk Britaniyaning joylashgan geografik o'rni qanday qulayliklarga ega?
13. Mamlakat demografik vaziyati haqida nimalar bilasiz?
14. Buyuk Britaniya sanoatida qaysi tarmoqlar yetakchilik qiladi?
15. Buyuk Britaniya qanday rusmiy yengil avtomashinalar ishlab chiqaradi?

### Osiyo mamlakatlari

Osiyo maydoni (44 mln. km<sup>2</sup>) Yevrosiyo maydonining taxminan 3/5 va quruqlikning salkam 1/4 qismini tashkil qiladi. Yer sharti aholisining 60 foizi istiqomat qilayotgan hududda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi turli tiplarga mansub 50 dan ortiq davlat va mamlakatlar mavjud.

Osiyoda daryo sivilizatsiyasining eng qadimiy va rivojlangan markazlari (Mesopotamiya, Hindiston va Xitoy) shakllangan. Sug'orma dehqonchilik qulay bo'lgan daryolar ta'sirida fan va madaniyat g'urkirab taraqqiy etgan.

Mintaqa iqtisodiy geografik o'rning muhim xususiyati aksariyat mamlakatlari uchun dengiz bo'yarlari va Osiyo-Tinch okeani "o'sish qutblari"ga yaqinligini ta'kidlash joiz. Bundan tashqari hududning o'rtan ortiq davlatlari quruqlikning ichki berk havzasida joylashgan.

Geografik adabiyotlarda Osiyo hududi to'rtta subregionlarga ajratiladi: Janubi-G'arbiy Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo hamda Sharqiy Osiyo (yoki Markaziy-Sharqiy Osiyo). BMT klassifikatsiyasi bo'yicha g'arbiy, markaziy va janubiy, sharqiy, janubi-sharqiy regionlarga bo'lingan. Mazkur mintaqalar bir-biridan tarixiy, geosiyosiy, etnolingvistik, tabiiy va diniy xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Hududi, aholisining soni va YAIM ishlab chiqarish bo'yicha Sharqiy Osiyodagi Xitoy hamda Yaponiya, keyingi o'rinda Janubiy Osiyo mintaqasi yetakchilik qiladi. Osiyoda Xitoy va Hindiston kabi ulkan davlatlar bilan bir qatorda, hududi kichik mitti davlatlar ham bor.

Osiyo hududi iqtisodiy rivojlanishida keskin farq mavjud. Iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan Xitoy, Hindiston va yangi industrial mamlakatlar bir qatorda, kambag'al, agrar sohaga ixtisoslashgan hududlar mavjud.

Osiyoning tabiiy resurslari ham ancha boy va xilma-xil. Mineral resurslardan neft – Fors qo'ltiqbo'yi mamlakatlari (zaxiralarning 2/3 qismi), Janubi-sharqiy Osiyo va Xitoyda; tabiiy gaz – Eron va Fors qo'ltiqbo'yi davlatlarida; toshko'mir, temir, marganes – Xitoy va Hindistonda; nikel – Indoneziya va Filippinda; mashhur "qalay belbog'i" – Malayziya, Indoneziya, Tailand, Xitoyda; mis – Xitoy, Mongoliya, Eron, Hindistonda. Hozirda mintaqaning gidroenergetik (Xitoy, Hindiston, Janubi-sharqiy Osiyo), baliqchilik (Tinch okeani bo'yli mamlakatlari), geotermal (Tinch okeani olovli halqasi), va rekreatsiya salohiyatidan samarali foydalanilmoqda.

Ta'kidlanganidek, mintaqaning suv, tuproq, o'rmon rekreatsiya resurslari tarqalishida o'ziga xos tafovutlar kuzatiladi. Osiyoning katta qismi tog'lar (Himalay, Qoraqurum, Hindugush, Kun-Lun), qurg'oqchil cho'llar, cheksiz toshli va qumli hududlar (Rub-el-Xali, Neftud, Tar, Taklamakan, Gobi)dan iborat bo'lgani bois yer resurslari, ekin maydonlari yetarli emas. Aksincha, quyosh taffi, dehqonchilikka yaroqli yer maydoni ko'p hududlarda namlik notekis taqsimlangan. Suv va o'rmon resurslari taqchilligi hududning janubi-g'arbiy va markaziy qismlari uchun ayniqsa dolzarb.

Osiyo mamlakatlari aholi ko'rsatkichlarida birinchidan, mintaqada aholi soni 100 milliondan oshgan 7 ta (Xitoy, Hindiston, Indoneziya, Pokiston, Bangladesh, Yaponiya, Filippin) mamlakat mujassamlangan. Aholi zichligidagi katta tafovutlar, masalan Mongoliyada 1 km<sup>2</sup> ga 2 kishi, Bangladeshda bu ko'rsatkich 1000 kishidan ortadi. Uchinchidan, aksariyat musulmon davlatlarda tabiiy ko'payish, erkaklar va bolalar sonining yuqoriligi, aholi diniy va etnik tarkibidagi murakkab farqlanishlar, urbanizatsiya darajasining nisbatan pastligi, aholining katta shaharlarda to'planganligi va b.

Osiyo iqtisodiy rayonlashitirish nuqtai nazaridan 4 ta yirik mintaqaga ajratiladi: sharqiy, janubiy, janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy.

Janubi-g'arbiy Osiyo quruq iqlimga ega, aholisi bir millatli, jahonning yirik neft bazasi sanaladi.

Sharqiy Osiyoda jahon xo'jaligining ikki yirik markazi – Yaponiya va Xitoy, shuningdek, Osiyo yo'llarlari – Janubiy Koreya va Tayvan joylashgan.

Janubi-sharqiy Osiyo iqtisodiyotini tabiiy kauchuk, elektrotexnika, elektronika, oʻrmon va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, Janubiy Osiyo iqtisodiyotining ixtisoslashuvini Hindiston belgilab beradi.

Osiyo mamlakatlaridagi siyosiy va harbiy-siyosiy ziddiyatlar oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, XXI asrga ham qadam qoʻydi. Hozirda baho-munozarali hududlar, separatizm harakatlari, etnodiniy xilma-xilliklar va boshqa geosiyosiy masalalar butun mintaqalarni oʻz ichiga qamrab olgan. Xususan, Janubi-gʻarbiy Osiyo Isroil-Falastin, Kurdiston, Kipr va Afgʻoniston singari "qaynoq" nuqtalar ta'siri ostida qolgan.

Janubiy Osiyoda siyosiy ziddiyatli separatizm & choqlari Kashmir va Shri-Lanka, Janubi-sharqiy Osiyoda Indoneziya, Janubiy Fillipin, Sharqiy Osiyoda Shimoliy va Janubiy Koreya, Xitoy-Hindiston, Rossiya-Yaponiya oʻrtasidagi tortishuv hududlar, Uygʻur hamda Tibet avtonom respublikalaridagi separatizm bir necha oʻn yillardan buyon davom etib kelmogʻda.

#### Yaponiya

#### Iqtisodiy geografik oʻrni, mamlakatning umumiy tavsifi

Yaponiya – Tinch okeanida (4 mingdan ortiq orollar), Sharqiy Osiyo sohilida joylashgan arxipelag davlat. Uning maydoni Yevropaning – GFR, Norvegiya, Osiyoning – Malayziya, Vyetnam mamlakatlari bilan deyarli bir xil. Hudud yadrosi Yapon orollari arxipelagi: Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku, Kyusyu. Bundan tashqari, Yaponiya tarkibiga Ryukyu (Nansei) va boshqa koʻplab mayda orollar ham kiradi. Xokkaydo, Xonsyu, Sikoku, Kyusyu orollari ulkan muhandislik inshootlari (suv osti tunnelari, koʻpriklar) orqali oʻzaro bogʻlangan. Qirgʻoq chizigʻining umumiy uzunligi 30 ming km. yoki ekvator chizigʻining 3/4 qismiga teng. Demakki, mamlakatning 1 km<sup>2</sup> maydoniga 80 km. qirgʻoq chiziqlari toʻgʻri kelmogʻda. Xonsyu orolining janubiy sohili, Sikoku va Kyusyu orollarining qirgʻoqlarida qoʻlloqlar koʻp; bu yerda murakkab qirgʻoq chizigʻiga ega boʻlgan ichki Yapon dengizi joylashgan. Ryukyuning janubiy orollari majon riflari bilan oʻralgan. Soʻngei oʻn yilliklar davomida mamlakat hududi dengiz hisobiga kengayib bormogʻda.

Ma'muriy-hududiy jihatdan Yaponiya 46 ta prefekturaga boʻlingan. Zamonaviy Yaponiya – konstitutsion monarxiya (imperiya) davlati. Mamlakat imperatori "davlat va xalqning birlamligi ramzi" hisoblanadi. Oliy hokimiyat organi 2 palatali parlament, ijroiya hokimiyat organi – hukumat.

Yaponiyaning iqtisodiy va siyosiy geografik oʻrni tarixiy oʻzgaruvchan xususiyatga ega. Chunonchi, XIX asrda transport savdo aloqalari Sharqiy-Xitoy dengizi orqali, asosan, Osiyoga yoʻnaltirilgan boʻlsa, asr oxirida Tinch okeanidan foydalanishni boshladi. Hozirgi paytda xom ashyo, yoqilgʻi va oziq-ovqat mahsulotlari importi va tayyor mahsulotlar eksportida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi markaziy oʻrinda turadi.

Mamlakatning quruqlikdagi eng yaqin qoʻshnilar – Rossiya, Janubiy Korea va Xitoy. Qoʻshni Rossiya bilan hududiy munosabatlar – (Kunashir, Iturup, Shikotan, Kuril hamda Habomai orollari majmui) hamon muammoligicha qolmogʻda.

#### Tabiiy sharoiti va resurslari

Mamlakat maydonning 75 foizini togʻlar egallaydi. Bunday holat hududning katta qismidan hoʻjalik maqsadida foydalanishga monelik qiladi. Eng baland togʻ choʻqqisi – Fudziyama (3776 m.) – Yaponiyaning ramzi sanaladi.

Yaponiya hududi yuqori seysmik zonada joylashgan. Har yili 1500 dan ortiq turli kuchdagi zilzilalar, tayfunlar, sunamilar hudud iqtisodiyotiga katta zarar yetkazadi. Mamlakatda 15 ta soʻnmagan harakatdagi vulqonlar bor.

Yaponiya hududining 2/3 qismini togʻli oʻrmonlar egallasa-da, yogʻoch zaxirasi oʻz ehtiyojlarining faqatgina yarmini qoplaydi.

Yaponiya daryolaridan GESlar qurish hamda suv ta'minoti uchun foydalaniladi.

**Tabiiy resurslari.** Mamlakatda foydali qazilmalar juda kam. Yaponiya iqtisodiyoti deyarli butunlay mineral xom ashyo importiga bogʻliq. Xokkaydo va Kyusyu orolidan oz miqdorda toshkoʻmir qazib olinadi. Mamlakatda temir, qoʻrgʻoshin zaxiralari ham juda kam va ularni qayta ishlash jarayoni ancha murakkab. Yaponiyaning mazkur xom ashyo turlari bilan ta'minlanganligi atigi 1-2% ni tashkili etadi.

Yaponiyada subtropik, musson, moʻtadil (Hokkaydo), tropik (Ryukyu) iqlim keng tarqalgan. Butun hududida iyunidan sentyabr oyi oxirigacha musson yomgʻirlari davri boʻladi.

**Aholisi.** Yaponiya aholi soni boʻyicha dunyo miqyosida yirik demografik salohiyatga ega davlat hisoblanadi. 2016-yil ma'lumotlariga binoan mamlakatda 125,3 mln. kishi istiqomat qiladi. Bu borada, jafon mamlakatlari orasida Meksikadan keyingi oʻn birinchi oʻrinni egallaydi.

Yaponiya – bir millatli mamlakat; aholining 98% ini yaponlar tashkil qiladi. Bundan tashqari, mamlakatda koreys va xitoyliklar anchagina; Xokkaydo orolida mamlakatning eng qadimgi aholisi – ayunlar yashaydi.

Yaponiya demografik tarixi aholisining turli davrlarda har xil sur'atlarda o'sib borganligi bilan tavsiflanadi. Uning aholisi XX asrning

birinchi yarmida 44 mln. dan 83 mln. ga yoki sakkan ikki baravarga ko'paygan bo'lsa, 1950-yillar o'rtasiga kelib aholi takror barpo bo'lishi birdaniga o'zgardi. Tug'ilish koeffitsiyenti 1950-yillarda 30 promilledan 60 yilda 19 promillega kamaydi. Shunga mos holda o'lim koeffitsiyenti har ming aholiga nisbatan 15,9 kishiga pasaydi.

Zamonaviy Yaponiya demografik jarayonlarga "aholi qarishi" va depopulyatsiya jiddiy xavf tug'dirmoqda. Mamlakatda har 1000 aholiga tug'ilish 8 kishi, o'lim esa 10 kishiga to'g'ri kelmoqda yoki tug'ilishni o'lim butunlay yutib yubormoqda. Aholining yosh tarkibida 65 yosh va undan kattalar salmog'i muntazam o'rtib bormoqda (27 foiz).

Yaponlar eng qadimiy dinlar – sintoizm, konfutsiylik va buddizm dinlariga e'tiqod qilishadi.

Yaponiyada – o'rtaacha aholi zichligi 1 km. ga 330 nafardan ortadi. Tinch okeani qirg'oqlari (Yapon megalopolisi)da mamlakat aholisining 2/3 qismi majassamlangan.

XX asr boshlarida Yaponiya ko'proq qishloqlar mamlakati sanalardi. 1920-yillarda hudud aholisining atigi 18 % i shaharlarni tashkil qilgan bo'lsa, 40-yillarda bu ko'rsatkich 38% ga ko'tarildi. O'tgan asrdagi urbanizatsiya darajasi 50 foizdan o'rtib ketdi.

Hozirgi zamonaviy Yaponiya yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakat. Aholisining 94 foizi shaharlarda yashaydi. Yaponiyada 650 dan ortiq shaharlar mavjud. Ulardan Tokio (8,5 mln. kishi), lokogama (3,6 mln.), Osaka (2,6 mln.), Nagoya (2,2 mln.), aholisi 1 mln. dan 2 mln. gacha Sapporo, Kobe, Kioto, Fukuoka, Kawasaki, Sayama, Xirosima va Senday shaharlarini qayd etish mumkin.

Yirik shahar aglomeratsiyasi – Key-xin (Tokio-lokogama). Aglomeratsiya maydoni 8677 km<sup>2</sup>, aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> 4340 kishini tashkil etadi. Aglomeratsiya ikki yirik shahar (Tokio va lokogama) hamda ko'plab kichik aholi punktlarini birlashtiradi. Shuningdek, Xansin (Osaka-Kobe-Kioto) va Tyukyo (Nagoya) aglomeratsiyalari oraliq'dagi Key-xin yirik urbanistik tizimining (*Tokio megalopolisi* (*Tokaydo*) aholi soni tez sur'atlarda o'rtib bormoqda. Kyusyu orolining shimolida Kitakyusyu-Fukuoka aglomeratsiyasi shakllanmoqda.

## Xo'jaligi

Yaponiya – hozirgi zamon jahon iqtisodiyotining bosh markazlaridan biridir. YAIM ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya faqatgina AQSHga yon beradi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mag'lub bo'lgan, atom bombasining dahshatlarini boshdan kechirgan Yaponiya birinchilardan bo'lib, postindustrial asrga qadam qo'ydi hamda jahonning yetakchi moliyaviy va ilmiy markazlaridan biri maqomini oldi.

Hozirda dunyo aholisining atigi 2% ga yaqini yashaydigan mamlakat hissasiga jahon moddiy ishlab chiqarishning 8% dan ortig'i hamda jahon xizmatlar sohasining qariyb 18% i to'g'ri keladi. XX asr ikkinchi yarmida Yaponiyaning shiddatli iqtisodiy rivojlanishini "yapon iqtisodiy mo'jizasi" nomini oldi.

Mutaxassislar xulosasiga ko'ra "yapon iqtisodiy mo'jizasi"ning asosiy sababi millatning mehnatsevarligi, rivojlangan mamlakatlarga nisbatan ishchi kuchining arzonligi hamda yuqori malakaligi, mehnat intizomi, xorij texnologiyalaridan samarali foydalanishi, eksportga yo'natirilgan faol siyosatning yuritilishi, shuningdek, mudofaa xarajatlarga ajratiladigan mablag'larning kamligi va boshqalar (YAIMning 1% i bilan izohlanadi).

**Sanoati.** Zamonaviy Yaponiya iqtisodiyoti yuqori darajada rivojlangan mamlakat. Yalpi ichki mahsuloti (4,8 trln.dollar) bo'yicha AQSH va Xitoydan keyingi o'rinni band etadi; YAIM aholi jon boshiga 38870 dollar (2015-y.)ni tashkil etadi. Mamlakat jahon sanoat mahsulotining taxminan 12 foizini ta'minlaydi va asosan, qayta ishlash sanoati mahsulotlaridan iborat. Zamonaviy Yaponiya qayta ishlash sanoatida material va energiya sig'inkorligi yuqori tarmoqlardan ilm-fan sig'inkorligi yuqori tarmoqlarga o'tish jarayoni ro'y bormoqda. Yaponiya hozirga qadar katta miqdorda po'lat va prokat, kemalar, matolar ishlab chiqarsa-da, elektron sanoat, avtomobilsozlik, sanoat asbob-uskunalarini ishlab chiqarish, kimyo sanoati tarmoqlari yuqori raqobatchilikka ega<sup>20</sup>.

Yaponiya okean shelfidan mineral xom ashyolarni qazib olishni yaxshi o'zlashtirgan. Mamlakatning asosiy sanoat tarmoqlari Tinch okeani bo'y i sanoat mintaqasida majassamlashgan. Mamlakatning 13 foizini tashkil etgan hudud, qariyb 80 foiz sanoat mahsuloti bilan ta'minlaydi.

Tinch okeani bo'y i sanoat mintaqasiga Xonsyu oroli, Tokiodan to Simonosekigacha, shuningdek, Kyusyu va Sikoku orollarining shimoliy qismlarini o'z ichiga oladi.

Elektr energiyasining katta qismi GES (61%) va AESlarda (29%) ishlab chiqariladi. Qayta ishlash sanoatida oziq-ovqat va yengil sanoatning salmogi qisqarib bormoqda.

Yaponiya – mashinasozlik mahsulotlari tarkibi raqamli dasturiy boshqaruvi (RDB) bilan dastgohlar, kemalar, robotlar, elektronika ishlab chiqarishdan tarkib topgan. Elektronika mahsulotlari kompyuterlar, optik tolalar, yarim o'tkazgichlar ishlab chiqarish bo'yicha AQSHdan keyingi o'rinda turadi.

Yaponiya ilmtalab tarmoqlari yuqori darajada taraqqiy etgan mamlakat sanaladi. Ilmiy texnika tajriba konstruktorlik ishlari (ITTKI) xarajatlar ulushiga ko'ra (YAIMning salkam 4%) jahonning yirik beshlik davlatlari gatorida turadi. Ilmtalab sohalar Kanto, Tokay, Kinki rayonlarida hududiy jihatdan mujassamlashgan. 1970-yilda ilmiy tadqiqot hududi Tokiodan 60 km. shimoli-sharqqa maxsus qurilgan Sukuba shahriga ko'chirildi. Ilm-fan shahri Sukubada o'tgan asrning 90-yillarida 80 ga yaqin ilmiy tadqiqot muassasalari birgalikda faoliyat olib bogan.

1980-yillarda ishlab chiqilgan "Texnopolis" dasturida mamlakatni texnopolislashtirish, ishlab chiqarish va ilmiy tadqiqotlarni hamkorlikda tashkil etish, yirik shahar aglomeratsiyalarida texnopolis shaharlarini bunyod etishga katta ahamiyat qaratilgan. Hozirda bunday texnopolislar to'rt butun mamlakatni egallab olgan. Yapon texnopolislarida elektronika, mekatronika, yangi materiallar ishlab chiqish, dizayn industriyasi, yuqqa kimyo texnologiyalari, optoelektronika, biotexnologiya, informatika, axborot tizimi kabi eng noyob yo'nalishlar samarali faoliyat yuritmoqda.

Mamlakat jahonning eng yirik moliyaviy makazi hisoblanib, jahondagi beshita yirik (aktivlari miqdoriga ko'ra) banklarining ikkitasi – yapon banklaridir.

**Qishloq xo'jaligi.** Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligining roli asta-sekin kamaymoqda. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy faol aholining 4 foizi band. YAIMda qishloq xo'jaligining ulushi 1% (2015-y.), xizmatlar sohasi – 73% va sanoat – 24% ga teng.

Yaponiya qishloq xo'jaligida dehqonchilik ulushi ancha ustunlik qiladi. Mamlakatda intensiv dehqonchilik yuqori darajada taraqqiy etgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi yuqori darajada mexanizatsiyalashgan. Yirik qishloq xo'jalik rayonlarida sholi, sabzavotlar, choy, tamaki, shuningdek, intensiv chorvachilik rivojlangan. Shahar atrofidagi yirik aglomeratsiyalar va tekislik zonalarida parrandachilik va cho'chqachilik fermalari mavjud. Yaponiya qishloq xo'jaligi uchun kichik yerlardan foydalanish xarakteri (0,5-1,0 ga). Asosiy qishloq xo'jalik ekini sholiining katta qismi Xonsyu orolining markaziy hamda janubiy rayonlarida azaldan

katta ahamiyatga ega. Xonsyuning shimolida va Xokkaydoda bo'g'doy, javdar va arpa ekiladi, biroq yetishtiriladigan don mamlakat ehtiyojini qondira olmaydi.

Guruch, tuxum va sabzavotlar mamlakat ehtiyojlarini ta'minlaydi. Ichki qirg'oqbo'yi rayonlari baliqchilikka ixtisoslashgan. Yaponlar taomomasini qadimdan baliq va dengiz mahsulotlari to'ldiradi. Aholi jon boshiga baliq iste'moli bo'yicha Yaponiya faqatgina Islandiyaga yon bosadi, baliq ovlash bo'yicha esa jahonda ikkinchi o'rinni egallaydi (Xitoydan keyin).

**Transporti.** Yaponiya rivojlangan transport tizimiga ega. Mamlakat yulk tashishda avtomobil va ikkinchi o'rinda dengiz kabotaji turadi. Tashqi savdo yulk tashish aylanmasida dengiz transporti ustuvor ahamiyatga ega. Tokio qo'ltig'ida – Iokogama, Tiba, Kavasaki, Osaka qo'ltig'ida – Osaka, Kobe, Isenouni qo'ltig'ida – Nagoya portlari jahondagi eng yirik portlar sanaladi.

Mamlakat yuqori tezlikdagi temir yo'llar bo'yicha yetakchi sanaladi. Elektromagnitli teyurar poyezdlar harakati 2008-yilda soatiga 581 km. ni tashkil etgan. Dastlab, 515 km. ni tashkil etgan Sinkysen magistralida kuniga 285 ta teyurar poyezd harakatlanadi.

1980-yillardayoq suvosti tunellari va ko'priklari to'rt yirik orolni birlashtirgan. Mamlakatning asosiy transport o'qi Tinch okeani sanoat minagasi bo'yab o'tadi.

Keyingi yillarda mamlakat tashqi savdoda yulk tashishda havo transportining ulushi ortib bormoqda.

### Tashqi iqtisodiy aloqalari

Tashqi savdo hajmiga ko'ra Yaponiya AQSH va Germaniyadan keyingi o'rinda turadi. Mamlakatning savdo sheriklari iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan AQSH, Avstraliya, Germaniya, Kanada. Keyingi yillarda asosiy savdo hamkori sifatida Xitoy (eksport – 19, importda – 22 foiz) yetakchilik qilmoqda. Mamlakat importida yoqilg'i va sanoat xom ashyosi salmog'i yuqori. Import geografyasi tarkibida Xitoy, AQSH, Avstraliya, Saudiya Arabistoni, BAAAlari yetakchi sanaladi. Janubi-sharqiy, janubi-g'arbiy va Yevropa mamlakatlari bilan tashqi savdo hajmi ortib bormoqda.

Yaponiya xalqaro ixtisoslashuvda fantalab yuqori texnologiyali mahsulotlar, integral sxemalar, mikroprosessorlar, stanok va robotlar ishlab chiqarish bilan jahon bozorini egalladi.

## Ichki tafovutlari

Yaponiya xo'jaligining rivojlanishida hududiy tafovutlar mavjud. Mamlakat iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishiga ko'ra 10 ta rayonga ajratiladi. Ammo ko'p hollarda aholi joylashuvi, xo'jaligining hududiy tashkil etilishi, iqtisodiy xususiyatlariga ko'ra 3 ta yirik mintaqa: shimol, janubi-g'arb va markazga ajratiladi.

Markaziy mintaqa, Xonsyu orolining o'rta va Tinch okeani sanoat mintaqasining asosiy qismini o'z ichiga oladi. Hudda mamlakat aholisining 2/3 qismi, sanoatning 3/4 va qishloq xo'jaligining 3/5 qismi mujassamlashgan.

Janubi-g'arb (Xonsyu orolining janubi-g'arbiy qismi va Sikoku, Kyusyu va Ryukyu orollari) elektronika, qora va rangli metallurgiya ko'mir sanoati va kemasozlikka ixtisoslashgan. Yaponiyada Kyusyuni "Silikon orol" deb atashadi.

Shimol – sust rivojlangan rayon; Xokkaydo oroli va Xonsyuning shimoliy hududlarida qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik, neft-kinoyo va metallurgiya sanoati yaxshi rivojlangan. Xokkaydoning "poytaxti" – Sapporo shimoldagi yagona millioner-shahar sanaladi.

## Nazorat savollari

1. Yaponiya iqtisodiy geografik o'rmining xususiyatlariga tavsif bering.
2. XX asrning ikkinchi yarmida yapon iqtisodiyoti rivojlanishining bosqichlarini izohlang. "Yapon iqtisodiy mo'jizasi" sabablari va xususiyatlarini yoritib.
3. Zamonaviy Yaponiya xo'jaligi tarmoqlar tarkibining o'zgarishida qanday omillar ta'siri ustun? Bu aholi va sanoat tarmoqlarining hududiy joylashuviga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Yapon madaniyati fenomeniga tavsif bering.

## Xitoy

### Iqtisodiy geografik o'rni, mamlakatning umumiy tavsifi

Dunyoning eng qadimiy sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan Xitoy sharqiy va markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan. Uning madoni 9,6 mln. km<sup>2</sup> ga teng. Mamlakat g'arbdan sharqqa 5700 km., shimoldan janubga 3650 km. masofaga cho'zilgan. Xitoy 15 ta mamlakat va davlatlar bilan chegaradosh.

Xitoy iqtisodiy geografik o'rmining o'ziga xos qulayliklari mavjud. Mamlakatning 7 ta provinsiyasi bevosita (15 ming km.) dengiz bilan tutashgan. Shuningdek, mamlakat ichki rayonlarini Yanszi daryosi dengizlar bilan bog'laydi. Xitoy qirg'oqlarini Sharqiy Xitoy, Janubiy Xitoy va Sarig dengiz suvlari yuvib turadi.

Xitoy Mongoliya, Qozog'iston va Rossiya bilan qururqlik yo'llari orqali bog'langan. Mazkur temir yo'llar Dalyan-Xarbindan to Manchuriyagacha; Pekin – Eren-Xoto (Erlan) va Ulan-Batorgacha cho'zilgan. Mazkur transport koridorlari Rossiyaning Transsibir magistrali bilan birlashadi.

Ma'muriy hududiy jihatdan 22 ta provinsiya, 5 ta avtonom rayon va 3 ta markazga bo'yinuvchi shaharlar (Pekin, Shanxay va Tyanszinga bo'linadi. Mamlakatda alohida ma'muriy rayonlar, sobiq Britaniya mustamlakasi – Syangan (Gongkong) va Portugaliya mustamlakasi – Aomin (Makao) tashkil etilgan.

Qadimda xitoyliklar jahon sivilizatsiyasiga mahobatli yodgorliklari, xususan, Buyuk Xitoy devori, "Taqlangan shahar" ichidagi saroy-ibodatxonalar majmuasi kabi ulkan inshootlarni hadya etgan. Shuningdek, Xitoyda dastlab, kompas, qog'oz, kitob bosmasi, porox, shoyi matolar hamda chinni ishlab chiqarish yo'liga qo'yilgan.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Xitoy xilma-xil tabiiy sharoit va resurslarga ega. Mamlakatning katta qismini tog'liklardan iborat, hududining 12% ini tekisliklar tashkil qiladi. Janub, shimol va janubi-g'arbdan ulkan tog' tizmalari – Himalay, Kunlun va Qoraqurun bilan qushab olingan. Mamlakatning sharqi, okean bo'yi esa, aksincha, pasttekisliklardan iborat bo'lib, ulardan eng yirigi Buyuk Xitoy tekisliklari hisoblanadi.

Xitoy turfa xil iqlimga ega. Mamlakatning g'arbiy qismida iqlim keskin kontinental va quruq, sharqda – nam mussonli. Mamlakat hududi uchta iqlim mintaqasida joylashgan, shimoldan janubga: mo'tadil, subtropik va tropik.

Xitoy daryolari tizimining umumiy uzunligi 220 ming kilometr. Haydaladigan yerlar mamlakat yer fondining atigi 10% ini tashkil etadi; mamlakat haydaladigan yerlar va o'rmonlar maydoni bo'yicha dunyoda to'rtinchi o'rinda turadi. Biroq, aholi jon boshiga taqsimlanganda bu ko'rsatkich ancha pasayib ketadi.

Xitoyda foydali qazilmalarning deyarli barchasi mavjud. Xitoyning shimoli-sharqida yirik ko'mir havzalari – Shanxay, Shensin, Kaylian, Fushun va Fusin joylashgan. Ko'mirning umumiy zaxirasi bo'yicha AQSH va Rossiyadan keyingi uchinchi o'rinni egallaydi (1 trln.t.).

Neft qazib olishda beshinchi o'rinni yoki dunyoning 7 foiz neftini

qazib oladi. Asosiy neft havzalari Shimoliy Xitoyda (Boxay qo'lig'i), Shimoli-sharqiy Xitoy, ichki Xitoyning Jungar va Saydam ko'lovinasida joylashgan. Tabiiy gaz Sichuan ko'lovinasidan qazib olinadi.

Yirik temir va marganes zaxiralari mamlakatning qora metallurgiyasi ehtiyojlarini qondiradi. Janubiy va markaziy provinsiyalarida rangli metall konlari topilgan. Volfram, rux, qalay, titan, litiy va taniat zaxiralari bo'yicha Xitoy dunyoda birinchi o'rinda, mis zaxiralari bo'yicha esa uchinchi o'rinda turadi. Mongoliya bilan chegaradosh hududlarda dunyoda eng yirik kamyon va tarqoq metal zaxiralari joylashgan. Xitoy, shuningdek, surma, uran, olingugurt va kaliy tuzi zaxiralari bo'yicha ham yetakchi.

**Aholisi.** Xitoy dunyoda aholi soni bo'yicha eng yirik davlat (1378 mln. 2016-y.) Butun dunyo aholisining 20 foizi Xitoyda yashaydi. Mamlakat aholisi hududlar bo'ylab notekis joylashgan. 90% ga yaqin aholisi mamlakat hududining 1/3 qismida istiqomat qiladi. Xitoyning sharqiy provinsiyalar – Xebey, Shandun va Syanszuda aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 600 kishidan ortadi, aksincha, g'arbiy mintaqada – Tibet, Simszyan-Uyg'ur avtonom rayonida aholi ancha siyrak joylashgan.

Xitoyda aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 130 kishini tashkil etadi, biroq mintaqalarda bu ko'rsatkich keskin farq qiladi – aholining 80 foizdan ortig'i mamlakatning sharqiy qismida yashaydi.

Xitoy aholisi yosh mamlakat sanaladi. Aholisining 22 foizini 15 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil etadi. 65 yosh va undan kattalar salmog'i 10 foizga teng.

Xitoy – qishloqlar mamlakati. Hudduda bir necha o'nlab yirik shaharlar mavjud bo'lishiga qaramay, shaharliklar ulushi 56% tashkil etadi. Mamlakat aholisining 92% ini xitoyliklar (xanlar) tashkil etadi.

### Xo'jaligi

Xitoy sotsialistik mamlakat hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyoti keyingi yillarda juda tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Hudduda sanoat, qishloq xo'jaligi, mudofaa, fan va texnikani modernizatsiyalash dasturlari ishlab chiqilgan. Xitoy iqtisodiy rivojlanishining tezlashishida chet el investitsiyalarining hisssasi katta. Investitsiyalar, ilg'or texnika va texnologiyalar dengiz bo'yida (80 foiz investitsiyalar), janubi-sharqiy hududlarga jalb etilgan. Eng yirik erkin iqtisodiy hududlar (EIH) – Shenchen, Chjuxay, Shantun va Syamenda joylashgan. Xitoy iqtisodiga AQSH, Syangan, Tayvan, Yaponiya va Yevropa davlatlari eng ko'p investitsiya kiritgan.

Xitoy YAIM ishlab chiqarish bo'yicha AQSHdan so'ng ikkinchi o'ringa chiqib oldi (13,4 trln. dollar, 2013-y). YAIM tarkibida sanoatning

ulushi 44 foizga yaqin, qishloq xo'jaligi mos holda 10 foizga teng.

**Sanoati.** Xitoy sanoatining tarmoqlar tarkibi juda murakkab. Mamlakatda tog'-kon va qayta ishlash sanoati yuqori darajada rivojlangan. Hudud toshko'mir qazib olish bo'yicha birinchi, qalay, volfram, molibden, fosforit, temir qazib chiqarishda ikkinchi o'rinda turadi.

Sanoatning asosini og'ir sanoat tashkil etadi. Yozilg'i-energetika sanoati ko'mir asosida ishlaydi. Elektr energiya ishlab chiqarish bo'yicha jahonda birinchi o'rinda turadi. 2009-yilda Xitoyda dunyodagi eng katta quvvati 17700 MVA ga teng "Sansya" gidroelektr stansiyasi ishga tushirildi. Keyingi yillarda mamlakatda atom energetikasi jadal rivojlanmoqda.

Cho'yan va po'lat eritish bo'yicha Xitoy dunyoning yetakchi mamlakati sanaladi (1-o'rin). Qora metallurgiya korxonalari kokslandigan ko'mir va temir rudasi qazib olinadigan hududlarda mujassamlangan.

Xitoy rangli metall ishlab chiqarish markazlari mamlakatning janubi va janubi-sharqida Yunnan (mis va qalay) va Xunan (alyuminiy, qo'rg'oshin, rux va qalay) provinsiyalarida joylashgan.

Mashinasozlik elektronika, stanoksozlik va kemasonozlik asosiy markazlari Shanxay, Shenyan, Pekin, Nankin va Daliyandir. Pekingga yaqin joylashgan Xaydyan hududi Xitoyning "Silikon vodiysi" ga aylangan.

Shuningdek, Xitoyda mineral o'g'itlar, tabiiy matolar, kiyim, poyabzal va bolalar o'yinchoqlari ham ishlab chiqariladi.

Plastmassa va kimyoviy tolalar ishlab chiqarish neftni qayta ishlash markazlariga yoki yirik portlar – Shanxay, Tyanszin, Nankin va Guanchjou yaqinida joylashgan. Yirik sanoat markazlari Shanxay, Pekin, Tyanszin, Annan, Uxan, Xarbin, Guanchjou va b.

**Qishloq xo'jaligi.** Qishloq xo'jaligi mamlakatning eng qadimiy sohalaridan sanaladi. Hudud qishloq xo'jaligida dehqonchilik oldinda turadi. Shimolda, asosan, bug'doy, makkajo'xori, jo'xori va tamaki ektiladi. Janubiy va janubi-sharqiy provinsiyalar ("Yashil Xitoy") sholi yetishtirishga ixtisoslashgan. Texnika ekinlaridan shakarqamish Guandun va choy Yunnan, Xaynan va Sichuan, meva Osiyo bog'i – Sichuan provinsiyasida yetishtiriladi.

Sholi tog'li rayonlardan tashqari mamlakatning barcha hududlarida yetishtiriladi. Yiliga (206 mln.t.) undan ikki ba'zan uch marotaba hosil olishadi.

Bug'doy hosili bo'yicha mamlakat dunyoda birinchi o'rinda (120 mln.t.). Bug'doy Buyuk Xitoy tekisliklarida va hatto balandligi 4000 m. gacha bo'lgan tog'li Tibetda ham yetishtiriladi. Mamlakat paxta, makkajo'xori, moyli ekinlar, batat yalpi hosili bo'yicha ham dunyoning yetakchi davlatiga aylangan.

Chorvachilikning qo'y va echkichlik tarmoqlari rivojlangan.

Xitoy sholi, bug'doy, kartoshka, sabzavot, tamaki, yalpi hosili, shuningdek cho'chqa va qo'ylar soni hamda go'sht yetishtirishda dunyoda birinchi o'rinda turadi. Baliq va dengiz mahsulotlari ovlash bo'yicha ham Xitoy dunyoda yetakchi mamlakat. Hozirda baliqlarni ko'paytirishda sholi dalalaridan keng foydalaniladi.

**Transporti.** Xitoy transport tizimida temir yo'llar ustunlik qiladi. Temir yo'llar uzunligiga ko'ra mamlakat uchinchi o'rinda turadi (86 ming km.). Tashqi savdoda esa dengiz transportining ahamiyati yuqori. Konteyner yuklar Shanxay, Gongkong va Guanchjou portlaridan jo'natiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida an'anaviy daryo transportining ham ahamiyati katta. Yuklarning 80 foizi Yangzi, Amur, Xuanxe, Chiuszyan daryolari va Buyuk Xitoy kanali orqali tashiladi.

Havo transportida yo'lovchi tashish bo'yicha Xitoy dunyoda beshinchi o'rinda turadi. Mamlakatda 500 dan ortiq aeroportlar bor. Xalqaro turizmning rivojlanishi mamlakatning yirik aeroportlari birinchi navbada Pekin, Gongkongda yo'lovchilar sonining muntazam o'rtib borishiga sabab bo'lmogda.

### Tashqi iqtisodiy aloqalari

Xitoy tashqi savdo aylanmasi yildan-yilga ko'payib bormogda. Asosan, yengil sanoat mahsulotlari (gazlama, kiyim, poyabzal) va mashinasozlik mahsulotlari (maishiy elektronika, o'yinchoqlar va h.k.) eksport qilinadi. Xom ashyo va yarim fabrikatlar ulushi 15% dan oshmaydi. Importi mashina va asbob-uskunalar, elektron tarkibiy qismlar, xom ashyo va yarim fabrikatlardan iborat. AQSHga eksportning va importning 10% i, Yaponiyaga mos tartibda 17 va 18 foizi to'g'ri keladi. Xitoyning boshqa savdo hamkorlari qatorida Janubiy Koreya, Tayvan va Yevropa Ittifoqi davlatlari yetakchilik qiladi. Hozirda Xitoy eksportining 30 foizini elektronika, uskunalar va maishiy texnika kabi savdo brendlari tashkil etadi.

Xitoy iqtisodiga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning katta qismi dengizbo'yi provinsiyalari va Syanganga to'g'ri keladi. Biroq, kelajakda iqtisodiy rivojlanishni mamlakatning markaziy hududlariga (tosh sohiliga) ko'chirish rejalashtirilmoqda.

### Nazorat savollari

1. Xitoyning g'arbiy va sharqiy qismi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasida qanday farqlanish mavjud?
2. XXR aholisi va xo'jaligining joylashuviga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
3. Xitoyni industrial-agrar davlatlar qatoriga kiritisa bo'ladimi? Javobingizni sharhlang.
4. Metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va to'qimachilik sanoatining markazlari mamlakatning qaysi qismida joylashgan?
5. Mamlakat iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi qanday rol o'ynaydi?
6. Xitoy "ochiq iqtisodiyot"ning shakllanishi haqida nimalarni bilasiz?

### Afrika davlatlari

Afrika maydonining kattaligi bo'yicha Yevrosiyodan keyingi yirik materik hisoblanadi. Materik maydoni 29,2 mln. km<sup>2</sup> bo'lib, unga tegishli orollar bilan esa 30,3 mln. km<sup>2</sup>, bu yer quruqlik yuzasining 1/5 qismi demakdir. Eng yirik oroli Madagaskar hisoblanadi. Hind okeanida joylashgan Sokotra, Zanzibar, Pemba, Mariya, Komor, Amirant, Seyshel, Maskaren va Atlantika okeanida joylashgan Madeyra, Kanar, Kabo-Verde, Bioko, San-Tome, Prinsipi, Vozneseniya, Avliyo Yelena, Tristan-da-Kunya orollari ham Afrikaga tegishli. Hozirda Afrikada jami 58 ta mamlakat mavjud bo'lib, ulardan 52 tasi respublika, 3 tasi monarxiyadir. G'arbiy Sahroi Kabir mamlakatining maqomi noma'lum.

Afrikaning tabiati o'ziga xos bo'lib, xilma-xil tabiiy resurslarga juda boy. Xrom, temir, marganes, mis, uran, qalay, kobalt, oltin, platina, asbest, slyuda zaxiralari bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi. Umumian olganda, Afrika dunyoda oltin zaxirasi bo'yicha birinchi o'rinni, olmos zaxirasi bo'yicha ikkinchi o'rinni (Avstraliyadan keyin) egallaydi. Hududining deyarli barcha qismini kristall jinslardan iborat bo'lib, qadimgi platformada joylashgan. Shuning uchun ham materik magmatik va metamorfik jinslarga juda boy. Relyefi tekislik xarakteridagi plato, palaxsali tog'lardan iborat. Afrika mintaqasi hanuzgacha geologik jihatdan to'la o'rganilmagan.

Afrikaning katta hududi tropik, subtropik iqlimida joylashgan. Issiqsevar o'simliklar uchun yetarli agroiklim resurslari mavjud. Yillik yalpi radiatsiya 6000<sup>o</sup>-10000<sup>o</sup>C bo'lib, issiqsevar o'simliklardan mo'l hosil olish imkoniyatini yaratadi.

Hudud suv resurslariga boy. Yillik umumiy suv oqimi 5 ming km<sup>3</sup> dan ortiq, shundan 25% i Kongo, 10% i Zambezi hamda 6% i Niger daryolariga to'g'ri keladi. Nil daryosining yillik suv oqimi atigi 85 km<sup>3</sup> ga teng.

Ma'lumki, 1980-yillar o'rtalariga qadar Afrikadagi 50 dan ortiq davlatlar o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. 1906-yilgacha ba'zi Yevropa davlat tomonidan (Buyuk Britaniya, Fransiya) tomonidan mustamlaka qilindi. Ikkinchi jahon urushigacha Efiopiya, Liberiya 1947-yilda mustaqillikka erishdi. 1922-yilda Misr mustaqillikka erishdi, qolgan davlatlar esa, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Italiya, Ispaniya mustamlakalari bo'lib qoldi. Ikkinchi jahon urushida sobiq Ittifoqning g'alabasi Afrika davlatlari mustaqilligi uchun katta turtki bo'ldi. Bu davrda mustaqillik uchun milliy ozodlik harakatlari boshlanib ketdi. 1950-yillarga kelib Liviya, Misr, Gvineya, Marokash, Tunis, Sudan, 1960-yilda esa, 17 ta mamlakat Madagaskar, Nigeriya, Kongo, Senegal, Kamerun, Somali, Benin, Syerra-Leone, Tanzaniya, Uganda, Ruanda, Burundi, Keniya, Zambiya, Malavi, Gambiya, Botswana, Lesoto, Ekvatorial Gvineya, Mavritaniya kabi davlatlar, 1962-yildan Jazoir, Gvineya-Bissau, Angola, Mozambik mustaqillikni qo'lga kiritdi. 1980-yillarda Jibuti, Rodeziya, Seyshel orollari, Kanar orollari, Zimbabve kabilar mustaqillikka erishdilar.

Aytilish o'rinliki Afrika Yevropa mustamlakachilik zalimi ta'siri ostida bo'lgan asosiy hududlardan biridir. Mazkur davlatlarning nomlanishi ham o'ziga xos edi (17-jadval). Ikkinchi jahon urushidan keyin mustamlaka tuzumining yemirilish borishi va milliy ozodlik harakatlarining kuchayishi bois hozirgi Afrika siyosiy kartasi butunlay o'zgardi.

2016-yil ma'lumotiga ko'ra, Afrika aholisining soniga ko'ra (1203 mln.) materiklar ichida Yevrosiyodan keyingi ikkinchi, uning o'sish sur'atlari bo'yicha esa, birinchi o'rinida turadi (tug'ilish har 1000 aholiga 36, umumiy o'lim 10, go'daklar o'limi 57 nafarni tashkil qilgan).

# 17-jadval Ayrim Afrika davlatlarining mustamlakachilik davrida va mustaqillikni qo'lga kiritganidan keyingi nomlanishi

| Avvalgi nomi                        | Yillar | Hozirgi nomi |
|-------------------------------------|--------|--------------|
| Portugaliya janubi-g'arbiy Afrikasi | 1975   | Angola       |
| Dagome                              | 1975   | Benin        |
| Bechuanaland protektorati           | 1966   | Botswana     |
| Yuqori Volta Respublikasi           | 1984   | Burkina-Faso |

|                                   |      |                               |
|-----------------------------------|------|-------------------------------|
| Ubangi-Shari                      | 1960 | Markaziy Afrika Respublikasi  |
| Zoir Respublikasi                 | 1997 | Kongo Demokratik Respublikasi |
| O'rta Kongo                       | 1960 | Kongo                         |
| Fil suvagi qirg'og'i              | 1985 | Kot-d'Ivuar                   |
| Afar va issalar hududi            | 1977 | Jibuti                        |
| Ispaniya Gvineyasi                | 1968 | Ekvatorial Gvineya            |
| Abissiniya                        | 1941 | Efiopiya                      |
| Olin qirg'oq                      | 1957 | Gana                          |
| Portugal Gvineyasi                | 1974 | Gvineya-Bissau                |
| Basutlend protektorati            | 1966 | Lesoto                        |
| Nyasaland protektorati            | 1964 | Malavi                        |
| Fransiya Sudani                   | 1960 | Mali                          |
| Germaniya janubi-g'arbiy Afrikasi | 1990 | Namibiya                      |
| Germaniya Sharqiy Afrikasi        | 1962 | Ruanda / Burundi              |
| Britaniya Somalisi                | 1960 | Somali                        |
| Zanzibar / Tanganika              | 1964 | Tanzaniya                     |
| Uganda                            | 1962 | Uganda                        |
| Shimoliy Rodeziya                 | 1964 | Zambiya Respublikasi          |

*Manda: <https://ru.wikipedia.org/>*

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, OITS/OIV virusi dastlab, mazkur qit'ada epidemiya ko'rinishida shakllandi. So'ngra esa, butun insoniyatni larzaga keltiruvchi pandemiya shaklida nomoyon bo'ldi. Bugungi kunda ham qit'a mamlakatlari ushbu ko'rsatkich bo'yicha yer yuzida eng oldingi o'rinlarni egallaydi. Afrika aholisi yiliga bir necha million kishiga ko'paymoqda. Aynigsa, Niger, Chad, Angola, Mozambik, Mali, Uganda, Malavi, Gveniya, Angola ushbu ko'rsatkichlarning yuqorigi bilan ajralib turadi (18-jadval).

Mazkur mamlakatlarda tug'ilish ko'effitsiyenti 40 promilddan ham yuqoridir, o'lim ko'effitsiyenti esa, jumladan, Lesotoda 15, Kongo Demokratik Respublikasida 16 promilteni tashkil etgan. Aholining o'rtacha umr ko'rish davri qit'ada erikalar orasida 59 yosh, ayollarda esa 62 yoshdan oshmaydi.

2015-yilda ayrim davlatlarda 15-24 yoshgacha bo'lgan aholining OITS/OIV infeksiyasi bilan kasallanish holati, %.


| Hudud                   | Erkaklar | Ayollar | Hudud        | Erkaklar | Ayollar |
|-------------------------|----------|---------|--------------|----------|---------|
| Bütün dunyoda           | -        | -       | Namibiya     | 10,7     | 15,9    |
| Rivojlangan davlatlarda | -        | -       | Kanada       | -        | -       |
| Afrika                  | 3,2      | 4,7     | AQSH         | -        | -       |
| Malavi                  | 7,1      | 11,1    | Rossiya      | -        | -       |
| Liviya                  | -        | -       | Belorussiya  | 0,6      | 0,6     |
| Svazilend               | 23,2     | 34,2    | Ukraina      | 1        | 0,8     |
| JAR                     | 14,9     | 23,6    | Latviya      | 0,9      | 0,4     |
| Lesoto                  | 18,9     | 26,6    | Turkmaniston | -        | -       |
| Botswana                | 17,8     | 26,8    | O'zbekiston  | 0,2      | 0,025   |

Manba: <http://demoscope.ru/weekly/2016/World/Population/Data/Sheet>

Yuqorida ta'kidlanganidek, Afrika aholisi uzoq davrlar mobaynida mustamlakachilik zulmi ostida bo'lganligi tufayli, qul qilib sotildi, qattiq ekspluatatsiya qilindi, bu hol o'z navbatida, aholi sonining sezilarli darajada kamayib ketishiga sabab bo'ldi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng mustaqillikga erishgan, ehtimollikni qo'lga kiritgan mamlakatlar aholisi sekimlik bilan bo'lsa-da birmuncha ortib bordi. Afrika qit'asi aholisining etnik tarkibini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Shimoliy va shimoliy-sharqiy Afrika. Hududda arablar va boshqa xalqlar yashaydi. Bu mintaqaga Jazoir, Tunis, Marokash, Liviya va Misr davlatlari;
2. Bu mintaqaga qit'aning sharqiy, markaziy, g'arbiy qismlari kirib, o'lkada Xaus, bantoid, Atlantika bo'yli, Monde-Gvinya xalqlari yashaydi;
3. Ekvatorial rayon aholisi – Bantu til oilasiga kiradi;
4. Janubiy rayon – Kosa, Zulu xalqlari, Yevropadan kelgan inglizlar, gollandlar, fransuzlar va boshqa xalqlardan tashkil topgan;
5. Madagaskar hududi Indoneziya til oilalariga kiradi.

Afrika mintaqalari: Shimoliy Afrika, G'arbiy Afrika, Markaziy Afrika, Sharqiy Afrika, Janubiy Afrika



2-rasm. Afrika mamlakatlari aholisi zichligi

Manba: <https://ru.wikipedia.org/>

Afrikada 41% aholi shaharlarda yashaydi. Aholisining soni 1 mln. dan ortiq bo'lgan 20 ga yaqin shaharlar mavjud. Bular: Qohira, Iskandariya, Kypaun, Yoxanesburg, Lagos, Kinshasa, Nayrobi, Addis-Abeba, Jazoir, Kasablanka, Dakar. Qohira, Yoxanesburg, Lagos va boshqa yirik shaharlar atrofida aglomeratsiyalar shakllangan.

Afrika mamlakatlari xo'jaligi. Afrika sanoati boshqa qit'a mamlakatlari sanoatidan ancha past rivojlangan. Qayta ishlovchi sanoat JAR, Misr, Jazoir, Nigeriya, Marokash, Liviya hamda, Zimbabve, Tunis, KDR, Keniya mamlakatlarida yaxshi rivojlangan. Aynan shu mamlakatlar elektr energiya ishlab chiqarish bo'yicha ham Afrikada yetakchi o'rinlarni egallaydi. Mamlakat sanoatining 80% i 11 ta davlatga – Misr, Jazoir, Marokash, Liviya, Nigeriya, Tunis, Keniya, Zambiya, Sudan hissasiga to'g'ri keladi.

O'simlik yakk hokimligi – bu nafaqat tabiiy geografik, balki tarixiy, ijtimoiy hodisadir. Shunday ixtisoslashuv mustamlaka davridan saqlanib qolgan. Aynan, shu holat Afrika mamlakatlari uchun xos.

Marokash, Jazoir, Keniya, Uganda singari davlatlarda fosforit, kislota va o'g'itlar ishlab chiqariladi. Neft qayta ishlash sanoati Jazoir, Liviya, Misr, Nigeriya JARda rivojlangan. Janubiy Afrika Respublikasida, shuningdek, mashinasozlik, tog'-kon sanoati, metallurgiya, transport mashinasozligi yaxshi rivojlangan. Misr, Marokash, Nigeriyada elektr asbob-uskunatlari, Jazoir, Misr, Angola. Zimbabve, Tanzaniyada yog'ochni

qayta ishlash sanoati birmuncha rivojlangan. Oziq-ovqat va yengil sanoati qit'aning barcha davlatlarida rivojlangan. Masalan: Palma yog'i – Nigeriya, Syerra-Leone, Kamerunda; shakar ishlab chiqarish – Janubiy Afrika Respublikasi, Mavritaniya, Nigeriya, Keniya, Efiopiyada; vinochilik – Jazoir, Tunis, Marokashda rivojlangan.

Afrika mamlakatlarida aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligida band bo'lib, shu sabab ularning aksariyat qismi agrar mamlakatlar hisoblanadi. G'arbiy Afrika – kakao, Sharqiy Afrika – kofe; Liviya, Kongo, Nigeriya, Madagaskarda – kauchuk, Mistr, Sudan, Ugunda – paxta, Janubiy Afrika mamlakatlarida – tamaki, Shimoliy qismida – bug'doy, shimoli-sharqiy qismida – makkajo'xori yetishtirish keng yo'lga qo'yilgan.

Afrika – transportining rivojlanganlik darajasiga ko'ra jahondagi eng oxirgi o'rinni egallovchi mintaqadir. Dastlabki transport vositalarining shakllanishi ko'proq mahalliy tabiiy resurslarni, foydali qazilmalarni qazib olish, ularni yaqinroq portlarga yetkazish va shu asosida boshqa davlatlarga dengiz kemalari orqali yetkazish uchun mo'ljallangan edi.

Dengiz transportining ahamiyati xalqaro aloqalarni olib borishda beqiyosdir. Transport tarmog'iga xos xususiyat, uni, asosan, sohil hududlarida rivojlangan. Temir yo'llarning uzunligi 85 ming km. ga yaqin. Uzunligi va ahamiyati bo'yicha keyingi o'rinda quvvur transporti turadi.

Afrikani subregionlarga ajratish juda murakkab vazifadir. Bunda natqat tabiiy sharoitni, balki undan ham ko'proq tarzda hududlarning etnik va diniy xususiyatlarini hisobga olish zarur hisoblanadi. Ularni hisobga olgan holda Afrikani quyidagi subregionlarga bo'lish qabul qilingan: Shimoliy Afrika, G'arbiy Afrika, Markaziy Afrika, Sharqiy Afrika, Janubiy Afrika.

Shimoliy Afrika subregioni Sudandan tashqari qolgan barcha arab mamlakatlarini o'z ichiga oladi. Aholi, asosan, vohalar va dengiz sohillarida joylashgan. Iqtisodiyotida neft va gaz, temir rudasi va fosforitlarni qazib olish, qayta ishlash va eksport qilish muhim o'rin egallaydi. Oziq-ovqat va yengil sanoat ham yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligida bug'doy, arpa, paxta, zaytun, uzum, sitrus mevalari yetishtirish asosiy rol o'ynaydi.

Shimoliy Afrikaning umumiy maydoni 9555,2 ming km<sup>2</sup>, aholisining soni 229 mln.kishi, shu jumladan, shahar aholisi ulushi 51% (2016-y.). Hudda, asosan, arablar va tuareglar istiqomat qiladi.

Subregionda Mistr, Liviya, Tunis, Sudan, Jazoir, Marokash hamda G'arbiy Sahroi Kabir mamlakatlari joylashgan. Geografik o'rni qulay.

Xo'jaligining asosini tog'-kon sanoati tashkil etadi. Jazoir, Liviya va Misrda neft va gaz qazib olish, qayta ishlash sanoati yaxshi rivojlangan

bo'lib, u tovar ahamiyatiga ega. Qora metallurgiya sanoati Mistr (Xeluan) va Jazoir (Annaba)da, rangli metallurgiya Jazoir, Mistr, Marokashda, mashinasozlik mamlakatlarning poytaxtlari hamda katta shaharlarda rivojlangan. Shimoliy Afrikada kimyo sanoati, ayniqsa, mineral o'g'atlar ishlab chiqarish yuqori darajada yo'lga qo'yilgan.

Sanoatda qazib olish muhim o'rin egallaydi. Liviya, Jazoirda ular eksportning asosiy qismini tashkil etadi. Qazilma mahsulotlardan tog'-kon sanoati, neft, temir rudasi, fosforit, marganes, polimetall rudalari mavjud. Neft qazib chiqarish 200 mln. tonnadan oshadi. Bu, asosan, 2/3 qismi Liviya va Jazoirga to'g'ri keladi. Tabiiy gaz, asosan, Jazoirda, Misrda, neft qayta ishlash sanoatining 2/3 qismi Misrda, Jazoirda, Liviyada, qora metallurgiya sanoati Jazoir va Misrda rivojlangan. Hamma davlatlarda oziq-ovqat sanoati rivojlangan.

Qishloq xo'jaligida dehqonchilik rivojlangan. Asosiy dehqonchilik markazlari O'rta Yer dengizi va Atlantika okeani sohillariga yaqin hududlarda joylashgan. Sug'orma dehqonchilik Misrda rivojlangan bo'lib, u ingichka tolali paxta, shakarqamish hamda boshqa ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan.

Asosiy eksport qilinadigan mahsulotlari: neft va neft mahsulotlari, tabiiy gaz, fosforitlar, rangli metallar, paxta, sitrus mevalari, xurmo, oziq-ovqat mahsulotlari.

Subregion tarkibidagi 7 ta davlatning har biri o'ziga hos tabiiy va iqtisodiy geografik xususiyatlarga ega.

G'arbiy Afrika tarkibiga Gvineya qo'ltig'idan shimolda joylashgan mamlakatlar kiradi. Iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi (kakao, yeryong'oq, sitrus o'simliklari) yetakchilik qiladi. Katta miqdorda neft (Nigeriya) va olmos (Kot-d'Ivuar, Syerra-Leone) qazib olish va eksport qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'jaligining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. Nigeriya va Gvineyada qazib olish tarmog'i katta o'rin egallaydi. Qayta ishlash sanoati Nigeriya, Fil suvagi qirg'og'i singari davlatlarda rivojlangan. Ko'pchilik davlatlarda u yoki bu darajada don va oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishini ko'rish mumkin. Sanoatda qazib beruvchi sanoat: Nigeriyada (neft va tabiiy gaz), Gvineya-Bissau (boksit), Senegal va Togo (fosforit), Niger (uran), Gana (marganes), Liberiya (temir rudasi), Zambiya, JAR olmos qazib chiqarishda yetakchi.

Transport tizimi yetarlicha rivojlanmagan. Temir yo'l qisqa bo'lib, faqat tog'-kon sanoati rivojlangan hududlar bilan port shaharlarni o'zaro bog'laydi. Nigeriya, Gvineya-Bissau, Gambiyada umuman temir yo'l yo'q. Syerra-Leone va Liberiya qisqa liniyalari temir yo'l bor xolos. Avtomobil

transportidan mamlakat ichkarisidagi mahsulotlarni tashishda, yo'lovchilar tashishda foydalaniladi. Muhim portlar: Dakar, Konakri, Abidjan, Katani, Lagos va boshqalar.

Tashqi savdosi: mintaga xorij davlatlarga kakao, kofe, kauchug, neft va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari eksport qiladi. Mintaqaning eng katta davlati Nigeriyadir. Uning subregiondagi iqtisodiy o'rni alohida ajralib turadi.

Markaziy Afrika mintaqasi – aholisi 157 mln. kishi. Tarkibiga 9 ta mustaqil davlat kiradi. Bular: Angola, Kamerun, Markaziy Afrika Respublikasi, Chad, Kongo Respublikasi, Ekvatorial Gvineya, Gabon, San-Tome va Prinsipi.

Markaziy Afrika – o'rmon va mineral resurslarga juda boy mintaga. Neft va marganes rudasini eksport qilish (Gabon, Kongo Respublikasi), olmos va oltin qazib olishda Kongo Demokratik Respublikasi yetakchilik qiladi.

Sharqiy Afrika mintaqasiga 20 ta mustaqil davlat kiradi. Bular: Burundi, Komor orollari, Efiopiya, Eritreya, Tanzaniya, Zambiya, Zimbabve, Somali, Keniya, Uganda, Reyunon, Ruanda, Malavi, Mozambik, Jibuti, Seyshel orollari, Janubiy Sudan, Madagaskar, Mayotta, Mavrikiy. Aholisi – 394 mln. kishi.

Sharqiy Afrika chetga kofe, yeryong'oq, choy, paxta eksport qiladi. Olmos, mis qazib olishda muhim o'rinni tutadi.

Mintaga xilma-xil tabiiy sharoitlari bilan ajralib turadi. O'rmonlar hududining 1/5 qismini egallaydi. Uganda, Keniya, Tanzaniya, Malavi xo'jaligida ko'llar va daryolar asosiy rol o'ynaydi.

Mineral resurslar bo'yicha Zambiya asosiy o'rinda turadi. Mis, nodir metallar, toshko'mir konlari mavjud. Boshqa davlatlarda geologik qidiruv ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan.

Mintaga aholisi tahlil qilinganda shu hol ko'zga tashlanadiki, Efiopiya, Jibuti, Somalida senet-xalillar, janubda bantu xalqlari keng tarqalgan. Aholining tabiiy ko'payishi Afrikaning o'rta qismida ko'rsatgichlariga tengdir. Zichligi 1 km<sup>2</sup> ga haydaladigan yerlarga nisbatan 575 nafarni tashkil etadi. Ko'chmachilik odat tusiga aylangan. 26% aholisi shaharlarda yashaydi. Asosan, poytaxt shaharlar birmuncha rivojlangan.

Xo'jaligi agrar xususiyatga ega. Qishloq xo'jaligida chorvachilik muhim o'rinni tutadi. Tanzaniya, Keniya, Efiopiya, Somalida dehqonchilikda bug'doy, makkajo'xori, banan, sabzavotlar yetishtiriladi. Uganda, Tanzaniya, Zambiyada shakarqamish, Somalida banan, Keniyada, Ugandada bug'doy yetishtiriladi. Asosiy eksport mahsulotlari – kofe, choy, tamaki hisoblanadi. Chorvachilikda yirik uy hayvonlari, mayda shoxli hayvonlar,

tuylar boqiladi. Go'sht, sut chorvachiligi Keniya, Efiopiyada nisbatan yaxshi rivojlangan.

Sharqiy Afrika qazilma sanoati qit'aning boshqa mintaqalariga nisbatan orqada. Zambiya hududida mis konlari keng tarqalgan. Sanoat, asosan, poytaxt va port shaharlarda rivojlangan.

Mintaga transporti juda sust rivojlangan.

Janubiy Afrika mintaqasi. Mintaqada qit'aning iqtisodiy jihatdan yetakchi (JAR) va eng sust rivojlangan (Mozambik) mamlakatlari joylashgan. Hududda oltin, olmos, mis rudasini qazib olish va eksport qilishda muhim o'rinni tutadi.


Janubiy Afrika Respublikasi Afrika hududining 4,1% ini egallagan hamda aholisining 4,3% ini o'zida jamlagani holida, mazkur mamlakatga qit'a miqyosida sanoat mahsulotlarining 30% i, po'latning 60% i, temir yo'llarning 1/3 qismi, barcha yuk va yengil avtomobillarning 30% i to'g'ri keladi. Mamlakat aholisi 55,7 mln. kishi, urbanizatsiya darajasi 65%.

Jahonda qazib olingan oltinning hamda jani olmosning katta qismi mazkur mamlakatda ishlab chiqariladi. JAR uran qazib olish bo'yicha (yiliga 3,5 ming t.) dunyoda Kanada va AQSH dan keyingi o'rinda turadi.

Shunga qaramasdan, JARning barcha hududlarini iqtisodiy rivojlangan, deb bo'lmaydi. Janubiy Afrika Respublikasiga bir tomondan iqtisodiy rivojlangan davlat, ikkinchi tomondan, rivojlanayotgan davlatlarga xos bo'lgan xususiyatga ega mamlakat deb qarash mumkin.

JARning uch poytaxti qayd etiladi: Bular: Pretoriya, Keyptaun va Blumfonteyn. Mamlakatning ma'muriy poytaxti – Pretoriya bo'lib, prezident o'z faoliyatini ushbu shaharda olib boradi; Keyptaun qonun chiqaruvchi poytaxt bo'lib, mamlakat parlamenti mazkur shaharda joylashgan; Blumfonteyn esa – uning sud ishlari bilan bog'liq markaziy shahridir. Mamlakatning yirik shaharlari Yoxannesburg, Durban, Port-Elizabet, Jermiston.

JARning barcha hududi 9 provinsiyaga bo'linadi:



3-rasm. JAR ning ma'muriy-hududiy bo'linishi  
<http://www.xaga.org/russiansouth-africa/>

1. G'arbiy Kap provinsiyasi (Keyptau);
  2. Shimoliy Kap provinsiyasi (Kimberli);
  3. Sharqiy Kap provinsiyasi (Bisho);
  4. Kva-Zulu-Natal (Pitermaritsburg);
  5. Blumfonteyn;
  6. Shimoli-g'arbiy provinsiya (Matikeng);
  7. Gauteng (Yoxannesburg);
  8. Mpumalanga (Nelspreyt);
  9. Limpopo (Polokvane).
- Mamlakatda zulu, kosa, svana, pedi, suto, tsonga singari xalqlar yashaydi va ular aholining 72% ini tashkil etadi. Shuningdek, gollandlar, hindlar ko'pchilikni tashkil etadi.

#### Nazorat savollari

1. Afrika mamlakatlarining jahon dunyo siyosiy kartasida tutgan o'rni qanday?
2. Mamlakatning tabiiy geografik o'rni baholang?
3. Shimoliy Afrika subregioni mamlakatlarining siyosiy geografik holati qanday?
4. Afrika regionini mamlakatlari bir-biridan qanday farq qiladi?
5. Afrika qit'asi tabiiy resurslari haqida nimalar bilasiz?
6. Janubiy Afrika sanoatining asosiy tarmoqlari qaysi?
7. Afrika aholisining joylashishi va shaharlari haqida ma'lumot bering.
8. Janubiy Afrika Respublikasi sanoatining yetakchi tarmoqlarini ko'rsating.
9. Janubiy Afrika Respublikasini etnik jihatdan ta'riflang.
10. Janubiy Afrika Respublikasi provinsiyalarini izohlang.

#### Lotin Amerikasi mamlakatlari

Lotin Amerikasi tarkibiga AQSHdan janubda joylashgan mamlakatlarni kiradi. Lotin Amerikasi nomi davlatlarning rasmiy tili negizida roman (lotin) tili yotishi, Pireney yarim oroli (ispan va portugallar) tarixi, madaniyati va an'analarning ta'siri kuchligidan darak beradi. Huddud tarkibiga Meksika, Markaziy Amerika, Vest-Indiya va Janubiy Amerika davlatlari kiradi. Janubiy Amerika 2 ta subregion: And (Venesuela, Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili), La-Plata yoki Atlantikabo'yi (Argentina, Urugvay, Paragvay, Braziliya) mamlakatlariga ajratiladi.

Lotin Amerikasi shimoldan janubga tomon 11 ming km. masofaga cho'zilgan; sharqda Atlantika va g'arbda Tinch okeani qirg'oqlarini yuvib turadi. Mintaqa iqtisodiy geografik o'rning o'ziga xos jihati rivojlangan AQSH bilan qo'shimchiligida, dunyo okeanlari bilan bevosita tutashligida o'z aksini topadi. Hudduda joylashgan davlatlardan Paragvay va Boliviya to'g'ridan-to'g'ri dengizga chiqa olmaydi.

Lotin Amerikasidagi aksariyat davlatlar XIX asrning birinchi yarmida mustaqillikni qo'lga kiritdi. Hozirda Lotin Amerikasida 38 ta davlat mavjud. Gviana, Martinika, Gvadelupa – Fransiyaning, Puerto-Riko va Virginiya orollari AQSHning, Aruba va Kyurasao Gollandiyaning, Folklend, Britaniya Virginias, Angliya, Bagam orollari Buyuk Britaniyaning nazorati ostida.

Lotin Amerikasi jami 20,5 mln.km<sup>2</sup> maydonni egallaydi, aholisi – 637 mln.kishi.

Yevropa va Afrikadan farqli o'laroq Lotin Amerikasi mamlakatlari maydoni va aholi soni jihatidan bir-biridan keskin farqlanadi. Mintaqada gigant mamlakat – Braziliya (Lotin Amerikasi umumiy maydonning 40% va aholisining 1/3 qismini tashkil etadi) va Meksika, Argentina, Peru va Venesuela yaqqol ajralib turadi. Qolgan mamlakatlar, odatda, kichik yoki juda kichik hududlarga ega.

Mintaqadagi 38 ta davlatdan 24 tasi respublika boshqaruv shakliga ega, bir qator mamlakatlar Britaniya Hamdo'stligi tarkibidagi (Bagam orollari, Yamayka, Beliz, Sent-Lyusiya, Barbados, Grenada) parlamentar monarxiya. Mustaqil davlatlar ichida – Argentina, Braziliya, Venesuela, Meksika, Sent-Kits va Nevis federativ tuzilishga ega. Argentina, Braziliya, Meksika rivojlanayotgan tayanch mamlakatlar guruhida bo'lsa, Gaiti kambag'al, Kuba – g'arbiy yarimshardagi yagona sotsialistik mamlakat.

Lotin Amerikasi mamlakatlarini tarixi va milliy an'analari, tili va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'zaro birlashtiradi.

Lotin Amerikasi iqtisodiy rayonlashitirish tamoyiliga ko'ra 4 ta yirik mintaqaga ajratiladi: Meksika, Markaziy Amerika va Vest-Indiya, And mamlakatlari, Amazonka va La-Plata havzasi mamlakatlari.

Meksika – keyingi o'n yillarda iqtisodiyoti ulkan sakrashlar bilan rivojlanib borayotgan tayanch mamlakat; mintaqadagi NAFTA, LAAL iqtisodiy tashkilotlarining faol a'zosi. Neft va neft mahsulotlari, rangli va qora metallar, mashina va uskunalar, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan.

Markaziy Amerika va Vest-Indiya – iqtisodiyoti sust rivojlangan, xalqaro turizm, banan, kofe, shakarqamish va sitrus mevalar mintaqasi.

**Amazonka va La-Plata havzasi mintaqaning sharqiy va Janubiy Amerika tekislik qismlarini o'z ichiga oladi.** Hududda qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, o'rmon, yengil va oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jaligida donchilik (Argentina va Braziliya), kofe, sitrus mevalar, shakarqamish (Braziliya), go'sht va jun (Argentina va Urugvay) yetishtiriladi. Janubiy konus umumiy bozori (MERKOSUR) tarkibiga Argentina, Braziliya, Paragvay, Urugvay davlatlari kiradi.

**And mamlakatlari** tarkibiga Kolumbiya, Ekvador, Peru, Boliviya, Chili va Venesuela kiradi. Mintaqa an'anaviy neft va neft mahsulotlari (Venesuela, Ekvador), rangli metallurgiya (Venesuela, Boliviya, Peru va Chili) sanoatiga ixtisoslashgan. Kolumbiya va Ekvadorda kofe, banan, Peru va Boliviya paxta, jun yetkazib beradi. Kolumbiya jahonda eng yirik mariyuana yetishtiruvchi mamlakat hisoblanadi.

Lotin Amerikasi tabiiy resurslarga juda boy. Meksikaning baland tog'li hududlari, Markaziy Amerika, Vest-Indiya orollari va Janubiy Amerikaning And qismi yangi tashkil topgan yosh hudud hisoblanadi. Bu yerda rangli metallarning yirik zaxiralari, xususan, mis (Chili, Peru, Meksika), qalay (Boliviya), alyuminiy (Yamayka, Braziliya, Surinam va Venesuela), polimetall rudalar (Meksika va Peru), kumush (Meksika va Peru), nikel (Braziliya va Kuba) topilgan. Shuningdek, grafit, oltin, gurgul (Meksika) va natrily selitra (Chili), neft (Venesuela va Meksika), tabiiy gaz (Venesuela, Meksika va Argentina) va toshko'mir zaxiralari ham bor.

Lotin Amerikasining suv resurslari nihoyatda katta. Dunyodagi eng uzun darvo Amazonka mamlakatini gidroenergiya resurslari bilan ta'minlaydi. Lotin Amerikasi davlatlari elektr energiyaning katta qismini gidroelektr stansiyalarda ishlab chiqaradi.<sup>21</sup>

Aholi soni bo'yicha Lotin Amerikasi faqat Osiyo, Afrika va Yevropadan ortda qolgan (550 mln.kishi). Mintaqa aholisi dastlab, immigratsiya va tabiiy ko'payish hisobiga o'rtib borgan. Hudud aholisining katta qismi okean bo'ylarida istiqomat qiladi; markaziy mintaqalarda (Amazonka), baland tog'larda (And), Janubiy Amerikaning janubi sharqida (Patagoniya) aholi ancha siyrak.

Lotin Amerikasining aksariyat mamlakatlari uchun yuqori urbanizatsiya (yo'lg'on urbanizatsiya) jarayonlari xos. Mintaqaning 77% aholisi shaharlarda yashaydi.

Mintaqani industrialashirish o'tgan asrda bosqichma-bosqich kechdi. Ikki jahon urushlari va har 8-10 yilda dunyo iqtisodiyotini larzaga solayotgan iqtisodiy inqirozlar Lotin Amerikasi sanoatlashishga kuchli

turtki bo'ldi. Mineral va qishloq xo'jaligi xom ashyosi yetkazib berishda yetakchilik qilgan mintaga jahon urushlari davrida o'z valuta zaxiralarni sezilarli darajada to'ldirishga muvaffaq bo'lgan.

Keyingi o'n yilliklarda mintaga sanoatda sezilarli tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi; tog'-kon sanoati o'z o'rnini qayta ishlash sanoatiga sekina bo'lib shabab bermogda. Xalqaro ixtisoslashuvda neft sanoati (Meksika va Venesuela), boksit qazib olish (Yamayka, Surinam, Braziliya), yengil avtomobillar va avtobuslar ishlab chiqarish (Braziliya va Meksika), shakar ishlab chiqarish (Braziliya va Kuba) yetakchi mavqega ega.

Mintaqa qayta ishlash sanoati mahsulotining qariyb 80 foizini – Braziliya, Meksika va Argentina ta'minlaydi; an'anaviy tarmoqlar (metallurgiya, yengil va oziq-ovqat sanoati) bilan bir qatorda yangi va fantalab sohalar (avtomobilsozlik, aerokosmik sanoat, mikroelektronika va elektrotexnika, polimerlar kimyosi va organik sintez kimyosi) rivojlanib bormogda.

Aksariyat mamlakalar qishloq xo'jaligida dehqonchilik ustunlik qiladi. Xususan, bug'doy (Argentina), makkajo'xori (Braziliya, Meksika, Argentina), sholi (Braziliya), shakarqamish (Braziliya, Kuba), kofe (Braziliya, Kolumbiya), banan (Kolumbiya, Ekvador, Markaziy Amerika mamlakatlari), kakao (Braziliya), tamaki (Braziliya, Kuba va Surinam) yetishtirishda jahon bozorida o'z o'rniga ega.

Chorvachilikda go'sht yetishtirish ekstensiv yo'nalishda rivojlangan. Braziliya yirik shoxli qoramolchilik va cho'chqachilik, Argentina yirik shoxli qoramolchilik va qo'ychilik, Peru lamachilik, Meksika yirik shoxli qoramolchilik bilan shug'ullanadi.

Shimoliy Chili, Peru va Ekvadorning g'arbiy qirg'oqlari dunyoni eng ko'p baliq bilan ta'minlab beradi. Baliq va dengiz mahsulotlari Karib havzasi va Markaziy Amerikadagi ko'plab mamlakatlar bozorini rivojlantirishda muhim omil sanaladi.<sup>22</sup>

Lotin Amerikasi transport to'ri mintaqaning tashqi qiyofasi konfiguratsiyasi bo'ylab cho'zilgan; hududning ichki qismlari bir-biri bilan yetarlicha bog'lanmagan. Tashqi yuk tashishda Panama kanali va dengiz transportining o'rnini beqiyos.

Mintaqa iqtisodiyotida MIZ (maxsus iqtisodiy zona), eksport qayta ishlash zonalar (EQLZ) yoki "makladoras" va ofshor zonalar muhim ahamiyatga ega. Bunday alohida hududlar Vest-Indiya hamda Markaziy Amerika mamlakatlarida ancha tarqalgan.

Mintaqa iqtisodiyotida chet el kapitali keng ko'lamda ishtirok etadi. Aggar mustaqil rivojlanishning boshlang'ich bosqichlarida, asosan, Buyuk

<sup>21</sup> Bradshaw M. World regional geography, 2000, 482 b

<sup>22</sup> Bradshaw M. World regional geography, 2000, 482 b

Britaniya va Fransiya sarmoya kiritgan bo'lsa, XX asrda ularning o'rnini AQSH, Germaniya, Italiya va Yaponiya egalladi.

O'tgan asrning 60-yillariga qadar mintaqaga iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanişida Argentina yetakchi bo'lsa, keyingi yillarda Braziliya va Meksika uni ancha ortda qoldirdi. So'nggi yillarda Kolumbiya va Peru da iqtisodiyotda jadal rivojlanish qayd etilmoqda. Biroq, And, O'rta Amerika tog' tizmalari va Karib orollarida tabiiy ofatlar, xususan, zilzila, vulqon va kuchli dovullar katta vayronagarchiliklarni olib keladi. Atrof-muhit bilan bog'liq ko'plab muammolar bo'lishiga qaramay mintaqaga yevropaliklar kelib o'rnatilmoqda va kamyob resurslarni nazorat qilmoqda.<sup>23</sup>

XX asrning ikkinchi yarmida Lotin Amerikasida iqtisodiy integratsiya jarayoni faollasha boshladi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va Lotin Amerikasi integratsiya guruhlarini o'rtasida Janubiy Amerika umumiy bozori yoki MERKOSUR (Mercado Común de Cono del Sur – MERCOSUR), Lotin Amerikasi integratsiya birlashmasi, And mamlakatlari hamdo'stligi (KAN), Karib umumiy bozori (KARIKOM), Markaziy Amerika umumiy bozori jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Janubiy Amerika umumiy bozori 1991-yilda Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay tomonidan tashkil etilgan bo'lib, 2006-yilda unga Venesuela qo'shildi.

### Braziliya

#### Iqtisodiy geografik o'rni, mamlakatning umumiy tavsifi

Braziliya – Lotin Amerikasining sharqiy va markaziy qismida joylashgan, maydoni hamda aholi soniga ko'ra eng yirik davlat. Shimoldan Fransuz Gvianasi, Gayana, Surinam, Venesuela, shimoli-g'arb va g'arbdan Kolumbiya, Peru, Boliviya, janubi-g'arb va janubdan Paragvay, Argentina, Urugvay davlatlari bilan chegaradosh. Quruqlikdagi chegaralari 16 ming km, sharqdan Atlantika okeani 7,4 ming km. masofada mamlakat qirg'oqlarini yuvib turadi.

Braziliya yaqin uch asr mobaynida Portugaliyaning mustamlakasi bo'lib kelgan. Dastlab, yevropaliklarni hududning yirik olin va olmos xazinalariga bo'yliq jalb etgan. XVIII asrda yuqori Braziliya jahonda qazib olinayotgan oltinning yarmini ta'minlagan.

1822-yil Braziliya mustaqillikni qo'lga kiritdi. 1888-yilda mamlakatda quldorlik bekor qilindi. Bir yildan so'ng monarxiya davlati ag'darilib, respublika deb e'lon qilindi. Braziliya hozirda – federativ respublika. Davlat boshlig'i – prezident.

Ma'muriy-hududiy jihatdan 23 shtat, 3 ta hudud va federal okrug (Braziliya shahri)ga bo'linadi.

Ko'p hollarda Braziliyaga kofe, futbol, seriallar va karnavallar mamlakati deya ta'rif beriladi. Ammo hozirda mamlakat sun'iy spirt, mashinasozlik mahsulotlari, kompyuterlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyo yetakchisiga aylandi. YAIM ishlab chiqarish hajmi bo'yicha o'nlik mamlakatlari qatoridan mustahkam o'rin egalladi. "Janubiy yarim shar gigant", "Tropik gigant", "XXI asr gigant", "Lotin Amerikasi lokomotivi" kabi ta'riflar uni mintaqada mamlakatlari ichida mutlaq yetakchi ekanidan darak beradi.

Braziliya Janubiy Amerikaning deyarli yarmini egallaydi (maydoniga ko'ra jahonda beshinchi o'rinda). Shimoldan janubga tomon meridional yo'nalishda 4320 km. masofaga cho'zilgan.

Tabiiy resurslari. Braziliyada tabiiy resurslar nihoyatda ko'p. Yoqilg'i resurslari toshko'mir, tabiiy gaz, neft mamlakat iste'molini to'liq ta'minlay olmaydi. Rudali foydali qazilmalar, xususan, temir (temir uchburchagi – Itabira, Syerra-dus-Karajas, Morduk-Urukun), marganes (Syerra-du-Naviu), alyuminiy (Trombetas), nikel (Nikelandiy), qalay rudasi (Portu-Velyu), shuningdek, polimetall rudalar, uran oltin va kamyob metallar mavjud. Bokslarning yirik xazinalari mamlakat shimolidan bir necha mamlakatlar bo'ylab (Venesuela, Gayana, Surinam, Fransuz Gvianasi va Braziliya) uzoq masofaga cho'zilgan.

Minas-Jerays shtatida noruda resurslardan apatit, fosforit (Itumbiera), boksit, oltin, olmos, qalay, tantal, berilliy, litiy va boshqa nodir metallar mavjud.

Misning yarim xazirasi Karabada (Bayya va qisman Minas-Jerays shtatida), Atlantika okeani qirg'oq bo'yilarida titan rudalari, qo'rg'oshin va rux (San-Paulu yaqinida) topilgan.

Braziliya juda katta o'rmon (Amazonka selvalari), suv (Amazonka, San-Fransisko, Parana va uning irmoqlari), gidroenergetika, tuproq (kompost), agroiklimiy hamda rekreatsiya resurslariga boy.

Iqlimi. Braziliya hududining shimoldan janubga va sharqdan g'arbga juda katta masofada cho'zilganligi bois ekvatorial, subekvatorial, tropik va subtropik iqlim mintaqalari shakllangan. G'arbiy Amazonka hamma vaqt nam va issiq (ekvatorial), sharqiy Amazonka hamda Braziliya yassi tog'ligi markazi yozda nam, qishda quruq iqlim (subekvatorial), yassitog'likning sharqiy qismida issiq va nam (tropik), Braziliya janubida subtropik iqlim hukmron.

Aholisi. Mamlakat aholisining aksariyatini (99,7%) braziliyaliklar – murakkab (aralash) irqiy va etnik tarkibidagi millat tashkil etadi. Asl

<sup>23</sup> Brandeshtaw M. World regional geography. 2000. 482 b.

mahalliy Amerika aholisining ko'p qismi Amazonka daryosining quyilish qismida istiqomat qiladi. Ular 1500-yillarda 3,5 million bo'lgan degan taxminlar mavjud ammo hozirgi kunda ularning soni 200 mingga ham yetmaydi<sup>24</sup>.

"Oq tanliar" mamlakat aholisining 50 foizini, mulatlar salkam 40 foizi, negrlar 6 foizi, shuningdek, metislar, sambolar va hindular 1% ini tashkil etadi. Keyingi yillarda yapon immigrantrlarining soni sezilarli darajada o'rtib bormoqda (1 mln.ga yaqin). Turli millat vakillari yashashiga qaramasdan mamlakatda rasmiy til bitta – portugal tili.

Braziliya aholisi hududlar bo'yicha notekis tarqalgan. O'rtaacha aholi zichligi bir km<sup>2</sup> ga 20 kishini tashkil etadi. Hududining 7% ini tashkil etuvchi Atlantika okeani qirg'oqlarida salkam 70% aholi yashaydi. Hukumat tomonidan amalga oshirilgan mamlakatning ichki qismlarini aholi bilan to'ldirishga qaratilgan sa'yi-harakatlar aholining shimol va g'arbga migratsiyasi biroz oshishiga olib kelgan bo'lsa-da, kutilgan natijani bermadi. Aksincha, kambag'al dehqonlar mamlakatning, asosan, okean bo'yida joylashgan katta shaharlarga ko'chib ketishga harakat qilmoqda.

Mamlakat aholisining 87 foizi shaharlarda yashaydi. Migrantrlarning asosiy oqimi iqtisodiyoti rivojlangan janubi-sharq tomon yo'natirilgan. Yirik sanoat markazlari va rayonlarida migrantlarning xaroba shaharchalari (favel) juda tez kattalashmoqda.

Yirik aglomeratsiyalari San-Paulu (20 mln. dan ortiq kishi), Rio-de-Janeyro (salkam 17 mln.), Belu-Orizonti, Porto Allegri, Braziliya, Salvador, Fortaleza, Resifi sanaladi. Urbanist-eksperlar fikricha, shiddat bilan rivojlanayotgan Rio-de-Janeyro va San-Paulu aglomeratsiyasi yaqin yillarda yirik megalopolisga aylanadi. San-Paulu mamlakatning "iqtisodiy va moliyaviy poytaxti", "Braziliya Chikagosi", Rio-de-Janeyro "madaniy va turistik poytaxti" hisoblanadi.

### Xo'jaligi

Braziliya – iqtisodiyoti jadal va muvaffaqiyatli rivojlanayotgan mamlakat. 90-yillarda amalga oshirilgan liberal iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakat YALIMni deyarli ikki barobar oshirdi. Braziliya Lotin Amerikasidagi eng yirik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etuvchi mamlakat hisoblanadi. 2008-yilda 45,1 mlrd. dollar miqdorida investitsiya kiritilgan.

**Sanoati.** Braziliya uchun sanoatning yuqori darajada mujassamlashuvi xos. Mamlakat sanoat mahsulotining qariyb 80 foizini janubi-sharqiy shtatlar – San-Paulu, Rio-de-Janeyro va Minas-Jerays beradi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda og'ir va an'anaviy yengil sanoat yetakchi. Keyingi yillarda fantalab tarmoqlar atom yangi konstruksiya va sintetik materiallar, aniq mexanika, biotexnologik tadqiqotlarning ulushi yuqoriyab bormoqda.

Avtomobilsozlik Braziliyadagi eng yirik sanoat ishlab chiqarish tarmog'i. "Ford" va "Volkswagen" mamlakat bilan sheriklikda 1995-yilgacha yiliga 1 mln. ta ichki bozori uchun mos mashinalar ishlab chiqardi<sup>25</sup>.

O'tgan asrning 70-yillaridagi "neft inqirozidan" keyin mamlakatning yoqilg'i-energetika majmuasi tubdan qayta qurildi. Elektroenergetikada GESlarning ulushi 9/10 dan oshadi. Atlantika shelfida olib borilgan neft qidirish ishlari qazib olish hajmini 66 mln. tonnaga yetkazish imkonini berdi. Yoqilg'i sanoatida yangi tarmoq – shakarqamishdan sun'iy spirt ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi; avtotransport vositalarining 90% i sun'iy spirtidan foydalanadi.

**Qishloq xo'jaligi.** Braziliya iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rnlardan birini egallaydi. Uning zimmasiga yalpi ichki mahsulotning 6% i to'g'ri keladi. Sohada iqtisodiy faol aholining 20 foizi band.

Qishloq xo'jalik mahsulotlari eksporti bo'yicha AQSH va Fransiyaga yon bosadi. Braziliya jahon bozorida an'anaviy qishloq xo'jalik mahsulotlari: kofe, shakarqamish, soya, makkajo'xori, kakao, banan, paxta, yetishtirib beruvchi mamlakat sanaladi. Mamlakat yirik shoxli qoramollar soni bo'yicha ham yetakchi. Yirik shoxli qoramol mamlakat ichkarisidagi tabiiy yaylovlarda, parranda, cho'chqa va qo'y, asosan, mamlakat janubida boqiladi. Shimoli-sharqdagi qurg'oqchil yerlarda echkichilik rivojlangan.

Sanoat va qishloq xo'jaligidagi tub o'zgarishlar natijasida eksport tuzilmasi o'zgarib, mashinasozlik birinchi (27%), qishloq xo'jaligi mahsulotlari ikkinchi (25%) o'ringa chiqdi, keyingi o'rnlarda metall rudalari va tayyor prokat turadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida soya, go'sht, shakar va apelsin soki ulushi oshdi, kofe biroz qisqardi (2-3% gacha).

**Transporti.** Mamlakat temir yo'llari to'ri XIX asr oxiri XX asr boshlarida shakllana boshlagan. Temir yo'llarining uzunligi bo'yicha jahonda 9-o'rinda turadi (uzunligi – 30 ming km.). Temir yo'l magistralari foydali qazilmalar qazib olish markazlari, qishloq xo'jalik rayonlari va port shaharlar bilan o'zaro bog'langan.

<sup>24</sup> Brundshaw M. World regional geography, 2000, 512 b

<sup>25</sup> Brundshaw M. World regional geography, 2000, 515 b

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 1,7 mln.km. (dunyoda – 4-o'rinda). Avtomobil yo'llari janubi-sharq va janubiy rayonlarda juda zich, aksincha, markaziy-g'arb va shimoliy (Amazoniya) iqtisodiy rayonlarda ancha siyrak. Magistralar mamlakatning kenglik va meridional yo'nalishlari bo'yab cho'zilgan.

Transamazoniya magistrali Resifi va Juan-Pesoa (Atlantika okeani qirg'oqlari)dan mamlakatning barcha hududlari bo'yab Peru chegaralari va uning poytaxti Limagacha cho'zilgan. Trassaning katta qismi Amazonka daryosiga parallel holatda (janubgacha oraliq masofa 300 km.) mamlakatning shimoli-sharqiy rayonlarini birlashtirgan. Panamerika shossesi bevosita Transamazoniya magistrali bilan bog'langan.

### Iqtisodiy rayonlari

Zamonaviy Braziliya rivojlanishiga ko'ra 5 ta iqtisodiy rayonga ajratiladi:

1. Shimoliy (Amazoniya) iqtisodiy rayoni – Rorayma, Rondoniya, Para, Tokantins, Akri, Amapa, Amazonas shtatlari.
2. Markaziy-g'arb iqtisodiy rayoni – Matu-Grosu, Goyas, Braziliya federal okrugi, Matu-Grosu-du-Sul shtatlari.
3. Janubiy iqtisodiy rayon – Parana, Santa-Katarina, Ri-Grandi-du-Sul shtatlari.
4. Shimoli-sharqiy iqtisodiy rayon – Maranyan, Piaui, Seara Ri-Grandi-du-Norti, Paraiba, Pernambuku, Alagoas, Serjili, Banya shtatlari.
5. Janubi-sharqiy iqtisodiy rayon – Minas-Jerays, Espiritu-Santu, Rio-de-Janeyro, San-Paulu shtatlari.

Shimoliy iqtisodiy rayon hududiga ko'ra eng yirik va kam o'zlashtirilgan mintaq. XIX-XX asrlardagi "kauchuk vas-vasasidan" so'ng bu yerda Amazonka o'rmonlarini o'zlashtirish boshlab yuborilgan.

Markaziy g'arb faol o'zlashtirilgan rayonlardan biri sanaladi. Unda mamlakat yangi poytaxti – Braziliya joylashgan. Xo'jaligi, asosan, yaylov go'sht chorvachiligiga ixtisoslashgan.

Janubi-sharq eng rivojlangan rayon – uning yadrosi – San-Paulu shtati. Iqtisodiy rayonda mamlakat aholisining 43% i, sanoat mahsulotlarining 80% i va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining taxminan 70% i yetishtiriladi (asosan, kofe, shakarqamish, apelsin va mol go'shti). San-Paulu shahri nafaqat Braziliyada, balki Lotin Amerikasidagi eng yirik sanoat markazi hisoblanadi.

Janub – iqtisodiyoti qishloq xo'jaligiga asoslangan agrar rayon. Hududda sholi, bug'doy, soya, uzumchilik va vino ishlab chiqarish, cho'chqachilik, jadal rivojlangan.

Shimoli-sharqiy rayonda (Qora Braziliya) dastlabki koloniyalar va eski plantatsiya xo'jaligi saqlanib qolgan. Aholisining 2/3 qismini mulat va negrlar tashkil etadi. Mashinasozlik mahsulotlari, qishloq xo'jaligida soya, tamaki, uzum, jun, parranda va cho'chqa go'shti yetishtirishga ixtisoslashgan.

### Tashqi iqtisodiy aloqalari

Braziliyaning jahon savdosidagi ulushi unchalik katta emas (1 foiz). Mamlakat tashqi savdosida rivojlangan mamlakatlari (60 foiz), Xitoy va qo'shni mamlakatlar hisssasi o'tib bormoqda. Asosiy eksportdagi sheriklari – Xitoy (17%, 2013-y.), AQSH (11% dan ortiq), Argentina (salkam 7%), Gollandiya (5%), Germaniya (4%). Importda: AQSH (salkam 15%), Xitoy (15%), Argentina (7%), Germaniya (6%).

Eksport tarkibida qishloq xo'jalik xom ashyosi pasayib, uning o'rmini mashina va uskunalar, ruda va metallar, kimyo mahsulotlari egallab bormoqda. Mashina va transport uskunalari, yoqilg'i va kimyo sanoati mahsulotlarini import qiladi.

Mamlakatning qudratli resurs va iqtisodiy bazasi, keng iste'mol bozori yirik TMKlar kapitalini o'ziga jalb qildi. Jahonning 10 ta yirik TMKlari ro'yxatida Braziliyaning "Petrobras" kompaniyasi ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakat iqtisodiy rivojlanishida integratsiya jarayonlari muhim rol o'ynaydi. Braziliya hozirda ko'pgina iqtisodiy guruhlar (Janubiy konus umumiy bozori (MERKOSUR), Lotin Amerikasi integratsiya birlashmasi, La-Plata guruhli mamlakatlari, Amazonka pakti) a'zosi sanaladi.

### Nazorat savollari

1. Braziliyaning tabiiy sharoit va resurslari barcha hududlarida xo'jalik yuritish uchun qulaymi? Nima uchun hozirgacha mamlakatning ko'pgina rayonlari o'zlashtirilmagan?
2. Braziliya aholisi va xo'jaligining joylashuviga qanday omillar katta ta'sir ko'rsatadi?
3. Mamlakat aholisining zamonaviy etnik tarkibi qachon shakllangan?
4. Braziliya shaharlashuv darajasining Lotin Amerikasi boshqa davlatlariga nisbatan yuqoriligiga sabab nima?

## Australiya va Okeaniya davlatlari

Umumiy maydoni – 8,5 mln. km<sup>2</sup>, aholisi – 40 mln. kishi. (2016-yil). Avstraliya, Yangi Zelandiya va Tinch okeanining markaziy va janubiy-gʻarbiy qismidagi orollar birgalikda Avstraliya va Okeaniyani tashkil etadi. Mintaqa mamlakatlarining rivojlanish darajasi nihoyatda xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Jumladan, hududda joylashgan Avstraliya va Yangi Zelandiya iqtisodiy jihatdan ilgʻor mamlakatlar qatoriga kirs, orollarda joylashgan mamlakatlar iqtisodiy jihatdan ancha sust rivojlangan.

Avstraliya Ittifoqi – iqtisodiy jihatdan rivojlangan, industrial-agrar davlat boʻlib, Avstraliya materigi, Tasmaniya oroli va koʻpgina mayda orollardan tashkil topgan. Mintaqaning rivojlangan davlatlaridan biri – Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya Hamdoʻstligi tarkibidagi davlat boʻlib, ikkita yirik orol, yaʼni Shimoliy va Janubiy hamda bir necha kichik orollardan iborat. Okeaniya hududi Melaneziya, Polineziya va Mikroneziya singari orollar majmuidan iborat.

Mintaqa boshqa kontinentlardan ancha uzoqda joylashgan boʻlib, uning qirgʻoqlari Tinch va Hind okeani suvlari bilan yuvilib turadi.

Avstraliya Ittifoqi – Avstraliya materigini yaxlit holda Avstraliya Ittifoqi egallagan boʻlib, gʻarbdan-sharqqa 4400 km, shimoldan-janubga 3100 km. ga choʻzilgan. Uning tarkibiga materikdan tashqari Tasmaniya va boshqa qator orollar kiradi. Maydoni – 7741 ming km<sup>2</sup>, shundan 7687 ming km<sup>2</sup> maydon faqat materikka tegishli.

Hududning katta qismi tabiiy sharoiti jihatidan noqulay. Relyefi tekislikdan iborat. Mamlakat hududining 5 foizi togʻlardan iborat. Iqlimi qurgʻoqchil, daryolari kam. Eng katta daryosi – Murrey. Mamlakat hududining 50 foizi yaylov va oʻtloqlardan iborat boʻlib, haydaladigan yerlar va oʻrmonlar hududining 5 foizini tashkil qiladi. Mamlakat hududining faqat sharqiy va janubiy-sharqiy qismini dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay.

Iqtisodiy – geografik oʻrni haqida fikr yuritilganda, uning janubiy yarim sharda yirik materiklar, mintaqalar va mamlakatlardan ancha uzoqda joylashganligini alohida taʼkidlash zarur.

Avstraliya xilma-xil foydali qazilmalarga boy. Shulardan baʼzilari zaxirasi boʻyicha dunyodagi yuqori oʻrinlarni egallaydi. Mamlakat qazilma boyliklar bilan oʻz ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, ularni xorij mamlakatlariga ham eksport qiladi. Temir va uran rudalari, mis, nikel, boksit, koʻmir, oltin konlari shular jumlasidan. Tom-Prays, Maunt, Maunt-Ueylbek singari temir rudasining yirik konlari mamlakat gʻarbid, oltin konlari (Kambalda, Leonora) janubiy-gʻarbid, nikel konlari (Privyeyl)

shimoliy-sharqiy va janubiy-gʻarbiy qismlarida, alyuminiy (boksit) va uran rudalari konlari (Nabarlek) shimolda, polimetall rudalari konlari (Broken-Xill) janubiy, olmos konlari mamlakatning shimoliy, sharqiy va janubiy hududlarida joylashgan. Shuningdek, koʻmir konlari uning janubiy va janubiy-sharqiy, neft hamda, tabiiy gaz konlari esa sharqiy va gʻarbiy hududlardan qazib olinadi.

2016-yilda Avstraliya va Okeaniya aholisi 40 mln. kishini tashkil etgan holda, bu koʻrsatkich Avstraliyada 24,1 mln., Yangi Zelandiyada 4,7 mln., Papua-Yangi Gviniyada esa 8,2 mln. ni tashkil qilgan.

Aholi sonining oʻsishida tabiiy koʻpayish bilan bir qatorda, xalqaro migratsiya muhim oʻrin egallaydi. Aholi juda notekis taqsimlangan. Aholining oʻrtacha zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 3 kishini tashkil etgan boʻlsa, ushbu koʻrsatkich mamlakatning janubiy-sharqiy qismida 120-250 kishiga yetadi. Umumiy olganda, aholi materikning chekka sohil qismlarida birinmuncha zich, markaziy va gʻarbiy hududlarida ancha siyrak tarqalgan. Baʼzi bir hududlarda jumladan, Eyr koʻli atrofiga va markaziy hududlarda doimiy aholi yoʻq.

Aholining umr davomiyligi erkaklarda – 80, ayollarda – 84 yoshga teng. Aholining milliy tarkibida avstraliyalik inglizlarning ulushi 90% dan ortiqroqni tashkil qiladi. Shuningdek, mamlakatda fransuzlar, nemislar, afrikaliklar, hindistonliklar, janubiy-sharqiy osiyo xalqlari ancha keng tarqalgan. Aytilish oʻrinli, Avstraliya Ittifoqidan farqli oʻlaroq, Okeaniya aholisining tarkibida mahalliy xalqlarning ulushi ancha yuqori\*.

Avstraliya jahondagi urbanizatsiya darajasi eng yuqori mamlakatlardan biri boʻlib, aholisining 89% i shaharlarda yashaydi\*\*. Eng yirik shaharlari: Sidney, Melburn, Brisben, Adelaida, Pert, Nyukasl, Kanberra, Kerns, Darvin.

Davlat tuzilishi – federal parlamentar davlat. Ijro etuvchi xokimiyat – Britaniya monarxi, general-gubernator, premyer-ministr. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – ikki palatali federal parlament. Avstraliya hududi quyidagi maʼmuriy birliklardan iborat boʻlib, bular: Avstraliya poytaxti hududi, Viktoriya, Gʻarbiy Avstraliya, Kvinslend, Yangi Janubiy Uels, Shimoliy hudud, Tasmaniya, Janubiy Avstraliya.

Tarixga nazar tashlasak, Avstraliya aborigenlari bu gʻitaga 40000 yil ilgari koʻchib kelishgan. 1606-yili gollandiyalik dengizchi V. Yanszon yevropaliklardan birinchi boʻlib Avstraliya qirgʻoqlariga yetib kelgan.

\* Yangi Zelandiya mahalliy xalqi hisoblangan – maorilarning jami aholi sonidagi ulushi 20% dan ortiq. Bu koʻrsatkich Papua-Yangi Gviniyada 70-80% ga, mayda orollarda esa 100% gacha yetadi.

\*\* Bu koʻrsatkich Avstraliya va Okeaniyada 70% ni tashkil etadi.

1643-yilda yana bir golland dengizchisi A. Tasman mamlakatning shimoliy qirg'oqlari va Tasman orolini o'rganib chiqdi. 1770-yilda ingliz sayyohi J. Kuk Avstraliyaning sharqiy qirg'oqlariga kelib tushdi va qit'ani Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qildi. XVIII asr oxirida Sidney shahriga asos solindi. 1901-yil 1-yanvarida Avstraliya Ittifoqi tashkil topdi.

### Avstraliya Ittifoqining ma'muriy bo'linishi

19-jadval

| № | Bayrog'i                                                                          | Nomlanishi                 | Ma'muriy birliklar | Poytaxti | Maydon, km <sup>2</sup> |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------|----------------------------|--------------------|----------|-------------------------|
| 1 |  | Avstraliya poytaxti hududi | hudud              | Kanberra | 2358                    |
| 2 |  | Viktoriya                  | shlat              | Melburn  | 227 416                 |
| 3 |  | G'arbiy Avstraliya         | shlat              | Pert     | 2 529 875               |
| 4 |  | Kvinslend                  | shlat              | Brisben  | 1 730 648               |
| 5 |  | Yanai Janubiy Uels         | shlat              | Sidney   | 800 642                 |
| 6 |  | Shimoliy hudud             | hudud              | Darvin   | 1 349 129               |
| 7 |  | Tasmaniya                  | shlat              | Xobart   | 68 401                  |
| 8 |  | Janubiy Avstraliya         | shlat              | Adelaida | 983 482                 |

manba: <https://ru.wikipedia.org/>

Avstraliya xo'jaligida mahalliy mineral resurslar va qishloq xo'jaligi xom ashyosiga asoslangan sanoat tarmoqlari, jumladan, tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan.

Yirik issiqlik va gidravlik elektrostansiyalarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Avstraliya hozirgi vaqtda neft, tabiiy gaz, ko'mir qazib olish bo'yicha jahonda yetakchilik qiladi. Shuningdek, mamlakatda po'lat eritish, yengil avtomobillar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, mamlakat quyidagi sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi:

- *Qora metallurgiya sanoati.* Rivojlangan shaharlar: Port-Kembla, Nyukasl, Uandovi;
- *Rangli metallurgiya sanoati.* Rivojlangan shaharlar: Maunt-Ayza, Klunkarti, Gladston, Katgurti-Boulder, Port-Piri, Kanberra, Xobart, Risdon, Bell-Bey;
- *Neftni qayta ishlash va neft-kimyo sanoati.* Rivojlangan shaharlar: Melburn, Sidney, Nyukasi, Brisben, Pert, Adelaida;

- *To'qimachilik sanoati.* Yirik to'qimachilik korxonalari joylashgan shaharlari: Sidney, Melburn, Ballarat, Adelaida, Pert, Albani;
- *Oziq-ovqat sanoati.* Bu sanoat tarmoqlari orasida un ishlab chiqarish, qand-shakar, go'sht, sut, baliq-konserva sanoati korxonalari deyarli barcha shaharlarda mavjud.

Qishloq xo'jaligida yaylov chorvachiligi (qo'ychilik) va qoramolchilik yaxshi rivojlangan. Avstraliya yaylovlarining kattaligi va ularda boqilayotgan qo'yning soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallaydi. Chorvachilik qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Mamlakatda dehqonchilik ham yuqori darajada rivojlangan. Shakarqamish, paxta va ayniqsa, donchilik yuqori tovar ahamiyatiga ega. Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari yengil va oziq-ovqat sanoatining asosiy xom ashyosi hisoblanadi.

Mamlakatda ichki transport turi sifatida asosiy yuklar temiryo'l transporti orqali tashiladi. Xalqaro savdo aloqalarida esa, dengiz transportining ahamiyati katta. Avstraliyada keyingi yillarda quvur transportining rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Avstraliya xorijga, asosan, AQSH, Yaponiya, Hindiston va Yevropa davlatlariga tog'-kon, metallurgiya, mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini chiqaradi. Mamlakat keyingi vaqtlarda sharqiy va janubi-sharqiy osiyo mamlakatlarining asosiy xom ashyo bazasiga aylanib bormoqda.

### Nazorat savollari

1. Avstraliya Ittifoqi chegaralari, joylashgan o'rni qanday?
2. Avstraliya Ittifoqi tabiiy resurslariga xo'jalik nuqtai nazardan baho bering.
3. Xo'jalikdagi asosiy tarmoqlari qaysilar?
5. Mamlakat demografik vaziyati va urbanizatsiyasidagi muhim xususiyatlarni izohlang.
6. Avstraliya Ittifoqining qanday sanoat tarmoqlari mavjud?
7. Avstraliya Ittifoqining yirik shaharlariga misollar keltiring.

## Adabiyotlar

1. Abitqulov Q. Iqtisodiy geografiya. -T.: TDIV, 2003. -262 b.
2. Ata-Mirzaev O., Tuxliyev N., Uzbekistan: tabiat, aholi, iqtisodiyat. -T.: Uzbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2009.
3. Vaxabov A.V., Tadjibaeva D.A., Xajibekiyev Sh.X. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy tashabbotlar. -T., 2011
4. Voronin V.B., Sharafitdin M.D. Iqtisodiyat, ijtimoiy va siyosiy geografiya. Ushbu kitob. -Samara, 2006.
5. Domanyanskiy R. Iqtisodiyat va siyosat: regional aspekt. -M.: Nauka, 2010.
6. Muxitdinov A.S. Iqtisodiyat va siyosat: siyosiy geografiya Rossiya va jahon. -M.: Nauka, 2009.
7. Makasovskiy V.P. Geografiya va siyosat: siyosiy geografiya Rossiya va jahon. -M.: Nauka, 2009.
8. Makasovskiy V.P. Umumiy iqtisodiyat va siyosat: siyosiy geografiya. Kursoq darslik. Qism 1,2. -M.: VILADIOS, 2009.
9. Mironenko N.S. Iqtisodiyat va siyosat: siyosiy geografiya. Umumiy iqtisodiyat va siyosat. -M.: Aspekt Press, 2006.
10. Otamirzaev O. Uzbekistan: tabiat, aholi, iqtisodiyat. -T., 2011.
11. Roldanova I. A. Iqtisodiyat va siyosat: siyosiy geografiya. Jahon va O'zbekiston. -T.: Universitet, 2014.
12. T. T. 1,2: iqtisodiyat va siyosat. 2-e izd., ispr. i dop. -M.: Izdatel'stvo Yurati, 2015. -431 s.
13. Soliyev A. Iqtisodiyat va siyosat: siyosiy geografiya. -T., Universitet, 2005.
14. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.
15. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.
16. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.
17. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.
18. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.
19. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.
20. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.
21. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.
22. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.
23. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. -T.: Universitet, 2014.

## MUNDARIJA

|                                                            |     |
|------------------------------------------------------------|-----|
| Kirish.....                                                | 3   |
| I BOB. UMUMIY QISM                                         |     |
| Fanning obyekti va predmeti, tarkibiy tuzilishi.....       | 4   |
| Yer shari va unda hayotning shakllanishi.....              | 6   |
| Jahon siyosiy xaritasi, uning shakllanish bosqichlari..... | 9   |
| Davlatlarning tirlari.....                                 | 14  |
| Jahon aholisi, aholi migratsiyasi.....                     | 17  |
| Jahon urbanizatsiyasi.....                                 | 22  |
| Global muammlar.....                                       | 30  |
| Jahon xo'jaligi.....                                       | 35  |
| Jahon sanoati.....                                         | 38  |
| Jahon qishloq xo'jaligi.....                               | 56  |
| Jahon transporti.....                                      | 63  |
| II BOB. REGIONAL QISM                                      |     |
| "Katta yertilik" davlatlari.....                           | 65  |
| Amerika Qo'shma Shtatlari.....                             | 66  |
| Kanada.....                                                | 74  |
| Yevropa davlatlari.....                                    | 79  |
| Germaniya.....                                             | 81  |
| Sharqiy Yevropa davlatlari. Rossiya.....                   | 94  |
| Osiyo mamlakatlari.....                                    | 98  |
| Yaponiya.....                                              | 100 |
| Xitoy.....                                                 | 106 |
| Afrika davlatlari.....                                     | 111 |
| Lotin Amerika mamlakatlari.....                            | 120 |
| Braziliya.....                                             | 124 |
| Australiya va Okeaniya davlatlari.....                     | 130 |
| Adabiyotlar.....                                           | 134 |



SaidakKaxapovna Tashlayeva  
Matluba Mamanazapovna Egamberdiyeva  
Nilufar Qarshiboyevna Komilova  
Umriniso Tursunqulovna Egamberdiyeva

## GEOGRAFIYA

(Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya)

nogeografik yo'nalishlar uchun  
o'quv qo'llanma

Muharrir M.A.Xakimov

Bosishga ruxsat etildi. 11.09.2017y. Bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ .  
Bosma tabog'i 8,5. Shartli bosma tabog'i 9,25. Adadi 300 nusxa.  
Bahosi kelishilgan naxda. Buyurtma № 184.  
«Universitet» nashriyoti». Toshkent, Talabalar shaharchasi,  
O'ZMU ma'muriy binosi.  
O'zbekiston Milliy universiteti bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent, Talabalar shaharchasi, O'ZMU.